Asotirlarda hayvonlarning o‘rni beqiyos. Mifopoetik tafakkurda hayvonlar asotiriy kodning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Asotirlar va asotirlashtirilgan ertaklar esa mana shu kod asosida yaratiladi. Asotirdagi hayvonlar insonning atrof-muhitni va o‘zini o‘zi ifodalashining bir usulidir. Insonning o‘zini tabiatda mifologik gavalantirishi totemistik asotirlarga yo‘l ochib berdi. Totem (urug‘ jamoalari sig‘inadigan hayvon, o‘simlik, tosh va hkz) – (3, 581a). ma‘lum insonlar jamoasini, urug‘ini ular yashaydigan hudud bilan, o‘tmishni bugungi kun bilan bog‘laydi. Urug‘larning totemlari odatda ma‘lum bir hayvon bilan bog‘liq. Bu yerda animalizm unsuri urug‘ning urf-odatlari, rasm-rusmlari, e‘tiqodi, yashash tarzi bilan namoyon bo‘ladi. Bu motivlar oxir oqibatda hayvonlar yaratguchi qiyofasida tasvirlangan kosmogonik asotirlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ko‘p xalqlarning asotirlarida qator hayvonlar dunyoning yaratilishida bevosita ishtirok etadi. Qadimiy tasviriy san‘at yodgorliklarida ham hayvonlar asosiy tasvir ob‘yekti bo‘lib kelgan.

Agar asotirlarda hayvonlar xudo yoki yarim xudo ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, badiiy adabiyotda ular real voqelikka yaqin turgan obrazlar sifatida tasvirlanadi. Har bir xalqning folklorida hayvonlar mavjud. Jonivorlar folklorida qadim-qadimda paydo bo‘lgan. Ularga shunchaki inson xizmatkorlari sifatida qaralgan, ular bir jonli buyum sifatida tasvirlangan. Hayvonlarning turi esa xalqlarning mashg‘uloti, geografik joylashuvi, madaniyati, dunyoqarashi, an‘ana va urf-odatlari bilan bog‘liq. O‘zbek xalqi og‘zaki ijodida, dostonlarida, jumladan, azaldan ot, tuya, yirik shoxli qoramol, qo‘y-qo‘zilar kuylangan. Ular boylik, to‘qlik va xotirjamlik ramzi hisoblangan.

Badiiy adabiyotdagi hayvonlar tasviri o'quvchiga obrazli-emosional ta'sir qilish usuli hisoblanadi. Hayvonlar tasvirlangan asarlar mazmuni yuksak emosionalligi bilan ajralib turadi. Insonlar hayotini hayvonlar obrazlari orqali tasvirlash badiiy adabiyotdagi animalistik janrning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Animalistik janrlardagi hayvonlar obrazlarini tahlil qilish, ularning o'zaro munosabatlari va aloqalarini ko'rib chiqish, Yevropa va Okean ortidagi (Kanada, AQSH) tarixiy-adabiy jarayon davomida hayvonlar haqidagi tasavvurlarning o'zgarishini kuzatib borish imkonini beradi. Hayvonlar haqidagi adabiyotning asosiy badiiy tamoyillari xalqlarning folklorida (og'zaki ijodida) aniqlangan bo'lsa, umumiy animalistik motivlarni har bir xalq va har bir milliy adabiyot vakillari o'zlaricha ishlab chiqqanlar. Yozma adabiyotda, jumladan insoniyat badiiy tafakkurining eng ko'hna va o'lmas namunalaridan biri bo'lmish "Avesto"da jonivorlarga, ayniqsa qushlarga chuqur hurmat bilan qarashgan. (1,15)

Barcha davrlar adabiyotlarida hayvonlar obrazlarini uchratish mumkin. Jahon adabiyotida bunday asarlar mo'l-ko'l. Antik dunyoda badiiy adabiyotda jonivorlarni tasvirlashning ma'lum bir mezon, ma'lum bir qolipi paydo bo'ldi. Jonivorlar va qushlar masallarning qahramonlariga aylandilar. Mashhur Ezop bu janrning o'lmas namunalarini yozib qoldirdi. Bu mezon bora-bora odatdagi risolaga sig'may qoldi. Keyinroq jonivorlar badiiy adabiyotda bir vositachi sifatida tasvirlanadigan bo'ldi. Muallif o'z maqsadini amalga oshirish uchun hayvonlarni kerak bo'lganda ishlatadi, kerak bo'lmaganda ishlatmaydi. Jumladan, Apuleyning "Oltin eshak" romani shunday asarlar qatoriga kiradi.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada hayvonlar, xususan uy hayvonlari va qushlar dastlab "le" va "fablio" (Fransiya), "minnizang" (Germaniya) kabi kichik janrlardagi asarlarning personajlariga aylandilar, jonivorlar asarlardagi insonlar bilan ularning tilida so'zlashadigan, ko'pincha ularni tutib olgan insonlar qo'lidan quvlik va makkorlik qilib chiqib ketadigan bo'lishdi. Shu davrda yaratilgan yirik janrdagi asarlardan Yevropada keng tarqalgan "Tulki haqida roman"ni ajratib ko'rsatish mumkin.

Biroq o'rta asrlarda dinlar ta'siri ostida Yevropada inson bilan hayvonlar o'rtasiga Xitoy devori qo'yildi. Yevropada ilohiyotchi faylasuf Foma Akvinskiy "Hayvonlarning qalbi yo'q", deya ta'lim berayotgan bir paytda Sharqda, aksincha, hayvonlarga o'zgacha munosabatda bo'ldilar. Dostonlarda otlar insonning eng yaqin do'sti etib tasvirlandi. Abulqosim Firdavsiy o'zining mashhur "Shohnoma"sida afsonaviy Semurg' qushining o'lmas obrazini yaratdi. Sanoyi Razvoniyy "Tasbihi tuyur" va Hokroni Sharvoniyy "Mantiq ut-tayr" qasidalarida qushlarning hayoti, ularning tillari haqida ilk asarlarni bitdilar. Keyinchalik bu an'anani Shayx Farididun Attor o'zining "Mantiq ut-tayr" asarida, Alisher Navoiy esa "Lison ut-tayr" (1499)da davom ettirdilar. Ulug' Navoiy "Lison ut-tayr" - "Qush tili" asarida inson bilan tabiat, ilohiyot masalasini badiiy ta'rif-tavsifladi. Buyuk shoir o'z qarashlarini To'ti, Tovus, Popishak kabi o'ttizdan ortiq qushlar tili, qilmish-qidirmishlari, sarguzashtlari orqali majoziy tarzda badiiy ifodaladi.

XVI asrda Yevropada Migel Servantes (1547-1616) o'zining "Itlar suhbatlari" (Las Dialogas des Caenes) novellasini yaratdi.

XVII asrda Ezop an'alarini davom ettirgan fransuz adibi Jan de Lafonten (1621-1695) o'n ikki kitobdan iborat "Masallar" (Fables)ida hayvonlarning majoziy obrazlari orqali jamiyat va insonlar orasidagi illatlarni fosh etib tashladi.

XVII asrning oxiri - XVIII asrning birinchi yarmi fransuz adabiy ertak janri taraqqiyotida oltin davr bo'ldi. Bu davrda mashhur fransuz ertakchisi Sharl Perro (1628-1703) ning "Ona G'oz ertaklari" (Contes de ma mère l'Oye) deb ham ataluvchi "Qadimgi zamon voqealari va ertaklari" (Histoires ou contes du temps passé), Komon de Lafors (1650-1724) ning "Ertak ketidan ertaklar" (Contes suivis des contes), grafinya de Myura (1670-1716) ning "Sehrli ertaklar" (Contes merveilleux) nomli kitoblari nashr qilindi.

XVIII asrda ingliz adibi Jonatan Svift (1667-1745) o'zining "Gulliverning sayohatlari" (Gulliver's Travels, 1726)ni yaratdi va animalistik adabiyot maydoniga ippik (yunoncha hippos - "ot" so'zidan) janrni olib kirdi. J.Svift o'zining bu mashhur satirik asarida o'z zamondoshlarining nuqsonlarini fosh etar ekan, jirkanch yexularga olijanob otlar - guigngnmlarni qarshi qo'ydi. Svift kashf etgan yexu so'zi o'zlarining eng tuban gunohlari bilan hayvon darajasiga yetgan odamlarni belgilash uchun qo'llanilsa, adib to'qigan guigngnm so'zi otlarning kishnashiga taqliddir.

Rossiyalik tadqiqotchi Yu.S.Orexova Fransiya animalistik prozasini tadqiq qilar ekan, ikki asosiy shamoilni ajratib ko'rsatadi: 1) XVIII asrgacha udumda bo'lgan "antropologik" yo'nalish. Unda hayvonlar insonlarga monandlashtiriladi; 2) hayvonlar xislatlarini yoritishda realizmdan kelib chiqadigan "zoologik" yo'nalish.(2,6)

Biz rus olimasining fikriga qo'shilgan holda shuni ta'kidlamoqchimizki, "antropologik" tasvir asosan xalq og'zaki ijodining, keyinchalik esa iqtidorli shoir va adiblar tafakkurining mahsuli bo'lgan. Unda badiiy tasvir ustunlik qiladi. "Zoologik" tasvir esa "antropologik" tasvirdan ilmiyligi bilan farq qiladi. "Bular badiiy asar bo'lib, badiiy asar bo'lmadi, ilmiy asar bo'lib, ilmiy asar bo'lmadi. Ular chinakam badiiy asar darajasiga ko'tarila olmay, ilmiylikka tobe bo'lib qoldi. Oqibat, o'z sohasiga oid qo'llanma asar bo'lib qoldi." (4,7)

XVIII asrgacha animalistik adabiyotda "antropologik" omil ustunlik qildi. Bunga misol qilib fransuz adiblarining shu davrda yaratilgan o'nlab adabiy ertaklarini keltirish mumkin. Biroq keyinchalik tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishi bilan animalistik adabiyotda inson va hayvonot olami birligi g'oyasi ustunlik qila boshladi hamda "antropologik" omil o'z o'rnini "zoologik" omilga bo'shatib berdi.

Adabiy ertak alohida janr bo'lib, an'anaviy folklor ertakka o'xshash umumiy xislatlar bilan birga undan jiddiy farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega, zero u "folklorli shartli adabiy shakl"dan iborat. Adabiy ertak ma'lum hudud folkloriga, asotiriy unsurlarga hamda epik manbalarga asoslangan bo'lishi yohud butunlay yozuvchi tomonidan o'ylab topilgan bo'lishi mumkin.

Animalistik janr turli tarixiy-adabiy qonunlarga bo'ysungan turfa janr shakllarining omuxtasidan iborat. Animalistik matnlar bir narsada juda o'xshash: hayvonlarning xislatlari inson hayotidagi yirik hajmdagi hodisalarni ifodalash va tushunishga yordam beradi. Hayvonlar obrazlari orqali irqiy, sinfiy, gender va boshqa xavflar tadqiq qilinadi.

Animalistik ertaklarda biz hayvonlarning ayrim tiplarini personajlar sifatida ishlatilishining kulturologik qonuniyatlarini kuzatishimiz mumkin. Fransuz lingvokulturasida ayiq, bo'ri, tulki,

it, mushuk kabi hayvonlar ishtirok etadi. Ingliz lingvokulturasida esa ayiq, quyon, mushuk (yo'lbars, pantera), ilon va to'ng'iz (cho'chqa) eng asosiy hayvon-qahramonlar hisoblanadi. Boshqa xalqlarning hayvonlar haqidagi ertaklarida ham sanab o'tilgan hayvonlarga stereotip qarashlar mavjud. Bu ertaklarda eng ko'p uchraydigan hayvon ayiq, jumladan, do'stlik va olijanoblik ramzi hisoblanadi. Animalistik ertaklarda bo'ri vahshiy va beshafqat mahluq, tulki - ayyor va epchil, yovvoyi quyon - faol va mustaqil, eshak - tentak, uzoqni ko'ra bilmas jonivor obrazlarida namoyon bo'ladi.

Hayvonlar obrazlarida insonlar xarakterining ma'lum qirralari tipiklashtiriladi. Hayvonlar o'rtasidagi hayot uchun kurash ijtimoiy ziddiyatlarning majoziy ifodasi sifatida tasvirlanadi. Qadimdan hayvonlar haqidagi ertaklar chuqur ramziy ma'nolarga ega bo'lgan. Ular, jumladan, yoshlarga hayot tajribasidan, va xususan, hayvonot olami haqidagi bilimlardan saboq bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirsaidov B.T. Xudojestvennyy obraz ptis v misticheskoy poezii srednix vekov (XI-XIII vv). Avtoref. diss. KFN. - Xudjand, 2004.
2. Orexova Yu.S. Animalisticheskaya literatura Fransii: tradisii i ix transformasiya v tvorchestve S.G.Kollet. Avtoref. diss. KFN. - Kaliningrad, 2008.
3. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki tomli. T.II.-T.: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1984.
4. Tog'ay Murod. Seton-Tompson kitobiga so'zboshim.//E.Seton-Tompson. Yovvoyi yo'rg'a. Jonivorlar haqida hikoyalar. - T.: Noshir, 2010.

ИҚТИСОДИЁТНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Тошкент молия институти
Молия факультети 2-босқич талабаси
Кулдашев Фарид Гулом ўғли

Мамлакатимиз иқтисодиётининг рақобатбардошлигини оширишда ҳамда иқтисодиётни модерни-зация қилиш шароитида хорижий инвестиция-ларни жалб қилиш зарур. Мустақиллик йилларида хорижий инвестициялар, асосан, саноатнинг ёқилғи-энергетика, енгил саноат, машинасозлик, қурилиш материаллари, озик-овқат саноати тармоқларига ажратилди. Бу эса саноат ишлаб чиқаришга хорижий инвестиция маблағларини йўналтириш самарадорлигини ошишига олиб келди. Иқтисодиётни тартибга солишнинг бозор механизмларини ривожланиши, иқтисодиётнинг институционал таркибини такомиллаштирилиши ва қонунчилик ҳужжатларининг қабул қилиниши, мамлакатнинг географик жойлашуви, энергетика ресурсларининг мавжудлиги, табиий ва иқлим шароитлари, минтақадаги демографик аҳвол, давлат ва бошқа бошқарув субъектларининг бошқариш фаолияти билан боғлиқ ташкилий-ҳуқуқий, иқтисодий қарорларнинг қабул қилиниши хорижий инвесторларнинг фаолиятини фаоллаштирди.

Миллий иқтисодиётни саноатлаштиришда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажмини ошириш мақсадида 2011-2015 йиллар давомида 13 миллиард доллардан зиёд ёки ўтган беш йилдагига нисбатан 1,7 баробар кўп тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилди. Бу эса энг илғор технологиялар билан жиҳозланган ва хомашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш ҳамда рақобатдош тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни таъминлайдиган, мамлакатимиз экспорт салоҳиятини ошириш ҳамда янги иш ўринларини яратишга хизмат қиладиган 320 тадан ортиқ йирик инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш имконини берди. 2014 йилда саноатга йўналтирилган инвестиция ҳажми 2013 йилга нисбатан 16,3 фоизга ўсди ва саноатга ажратилган инвестициянинг умумий инвестициядаги ҳиссаси 36,3 фоизни ташкил этди. 2015 йилда ана шу мақсадларга барча молиялаштириш манбалари ҳисобидан 15 миллиард 800 миллион АҚШ доллари миқдорида инвестициялар жалб этилди ва ўзлаштирилди, инвестицияларнинг 3 миллиард 300 миллион доллардан зиёди ёки 21 фоиздан ортиғи хорижий инвестициялар бўлиб, шундан 73 фоизини тўғридан-тўғри чет эл инвестициялари ташкил этди.

Натижада умумий қиймати 7 миллиард 400 миллион доллар бўлган 158 та йирик ишлаб чиқариш объекти қурилишини якунлаш ва фойдаланишга топшириш имконияти пайдо бўлди. 2016 йилда иқтисодиётга 16,6 миллиард АҚШ доллари миқдорида ёки 2015 йилга нисбатан 9,6 фоизга кўп инвестициялар йўналтирилди. Хорижий инвестициялар ва кредитлар ҳажми 11,3 фоизга ўсди ва 3,7 миллиард доллардан ошиб

кетди. Бу эса Ўзбекистон иқтисодийтини модернизация қилишнинг ҳозирги босқичида инвестицион фаолиятни амалга ошириш механизмларини янада такомиллашганини кўрсатмоқда. Хорижий инвестициялар мамлакат ичига бошқа мамлакатдан капитал олиб келишдан ташқари, мамлакатнинг иқтисодий ўсишига кўмак берувчи билим ва малакани кириб келишига ҳам таъсир кўрсатади. Шу сабабли, мамлакатимизда хорижий инвестицияларни жалб этиш бўйича кўпгина чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, йирик халқаро молия институтлари, ҳукумат ташкилотлари ва хорижий банкларни, биринчи навбатда мамлакатимиз билан йирик инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш бўйича ўзаро ҳамкорлик алоқаларини кенгайтиришга катта қизиқиш билдираётган Осиё тараққиёт банки, Жаҳон банки, Ислон тараққиёт банки, Япония, Жанубий Корея ва ХХР тараққиёт банклари, қатор араб давлатларининг инвестиция фондларини жалб этиш масаласига катта аҳамият берилмоқда.

Ушбу йўналишда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ягона давлат инвестиция сиёсатини шакллантириш ва амалга оширишни мувофиқлаштириш ҳамда хорижий инвестицияларни жалб этиш мақсадида Инвестициялар бўйича давлат қўмитасини ташкил этиш бўйича фармонининг чиқарилиши республикада инвестиция муҳитини янада такомиллаштириш, хорижий капитал иштирокидаги корхоналарни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш, хорижий инвестициялар жалб қилиш сиёсатини шакллантириш ва амалга ошириш борасидаги ишларни мувофиқлаштиришга алоҳида эътибор қаратиш заруриятини кўрсатмоқда.

Юқорида келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики юртимизда хорижий инвестицияларни жалб этиш бўйича кўпгина чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Аммо бу соҳада ҳали ўз ечимини кутаётган муаммолар ҳам мавжуд. Жумладан, хорижий инвестицияларнинг энг катта қисми ёқилғи-энергетика тармоғига тўғри келмоқда. Машинасозлик ва метални қайта ишлаш, металлургия ва озиқ-овқат саноатига жалб қилинган хорижий инвестициялар ҳиссаси жуда камдир.

Бу соҳаларда ҳам хорижий инвестицияларни кенг кўламда жалб этган ҳолда инновацион техника ва технологиялардан фойдаланиш имкониятларини ошириш, бу билан янги ғояларни амалиётга татбиқ этган ҳолда саноатни юксалтириш ва шу орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ҳамда ички бозорда маҳаллий маҳсулотлар улушини кўпайтиришга муҳим эътибор қаратиш лозимдир. Сўнгги йилларда ишлаб чиқаришнинг технологик омилларига анча кенг кириб бориш зарурияти кўпгина ривожланаётган давлатлар учун ҳаётини муҳим жараён бўлиб ҳисобланмоқда. Бу билан ривожланаётган давлатларнинг халқаро иқтисодий муносабат-лардаги силжишлари, уларнинг шакл ва механизмдаги эволюцияси хўжалик ривожланишининг муҳим бўғинига айланмоқда. Бутун дунёда халқаро капитал ҳаракати, аввало, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳаракати кенгайиб бормоқда. Бозор муносабатлари шароитида саноатлаштиришни янада жадаллаштириш ҳамда саноат корхоналари фаолиятини яхшилашда хорижий инвестицияларни жалб этиш аҳамияти тобора ошиб бормоқда,

натижада саноатнинг етакчи тармоқларидаги корхоналарни замонавий техника билан қайта жиҳозлаш имконияти пайдо бўлмоқда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг давлат мулкани хусусийлаштиришда хорижий сармояларни жалб қилишни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори қабул қилинган, хорижий инвестициялар киритиш учун янада кенг имкониятлар яратилди.

Инвестиция сиёсатини амалга оширишнинг энг асосий устунлиги бўлиб экспорт потенциални мустақамлаш, импорт ўрнини босишни ташкил этиш, базавий тармоқларни фаолият юритиши учун қўллаб-қувватлаш, илмталаб ва юқори технологияли ишлаб чиқаришни ривожлантириш ҳисобланади. Сўнгги йилларда хорижий инвесторлар иштирокида йирик инвестиция лойиҳаларини амалга оширилиши натижасида кўпгина саноат тармоқларида капитал қўйилмаларнинг улуши икки мартадан кўпроққа кўпайди. Ҳалқаро молия институтларининг қарз маблағлари ҳисобига молиялаштирилган импорт шартномаларини рўйхатдан ўтказиш жараёнларининг соддалаштирилиши, нефть-газ соҳасидаги лойиҳалар бўйича “маҳсулотларни ҳамкор-ликда тақсимлаш” механизмининг жорий этилиши, саноат корхоналарини модернизация қилиш ва техник қайта қуроллантириш дастурларини амалга оширилиши хорижий инвестициялар ҳажми ўсишининг асосий омилларидан бўлди. Мамлакатимизда ҳукм сураётган тинчлик ва осойишталик, меҳр-оқибат, миллатлараро тотувлик муҳити барча соҳалардаги ислоҳотларнинг муваффақиятли амалга оширилишида муҳим аҳамият касб этмоқда. Юртбошимиз таъкидлаганидек: “Ўзбекистонимиз мустақил тараққиёт йўлида қандай улкан ютуқ ва марраларга эришган бўлса, буларнинг барчасининг негизи — юртимизда тинч ва осуда ҳаёт, миллатлар ва фуқаролараро тотувлик, ўзаро меҳр-оқибат ва ҳамжиҳатликни асраб-авайлаб келаётганимизда”.

Иқтисодиётнинг глобаллашуви шароитида ва бозор муносабатлари талабларидан келиб чиқиб, жаҳонда инвестициялар учун қатъий рақобатли кураш изчил давом этмоқда. Ташқи иқтисодий фаолиятни эркинлаштириш, мамлакатимиз иқтисодиётига бевосита хорижий инвестицияларнинг жалб қилинишини таъминлайдиган ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа шарт-шароитларни такомиллаштириш, хорижий инвестицияларга нисбатан очик эшиклар сиёсатини ўтказиш, маблағларни мамлакатнинг иқтисодий мустақиллигини таъминловчи устувор йўналишларда ҳамда рақобатдош маҳсулотлар ишлаб чиқариш билан боғлиқ йўналишларда мужассам қилиш республикада ўтказилаётган инвестиция сиёсатининг асосий тамойилидир.

Мамлакатимизда иқтисодиётни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилаш бўйича кенг қўламли ислоҳотларни амалга оширишда биринчи навбатда ички имкониятлардан фойдаланишга ҳаракат қилинмоқда. Хусусан, иқтисодиётни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилаш бўйича амалга оширилаётган йирик ва стратегик инвестицион лойиҳаларни молиялаштиришда давлат бюджетининг ҳам аҳамияти юқори бўлмоқда.

INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION METODIKASI

Yoqubjonova Diyora Uchqunovna

Toshkent Davlat Texnika Universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o'qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. Maqolada umumiy ingliz tili o'qituvchisining innovatsion metodlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *maktab, innovatsiya, pedagog-texnolog, metod, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, kreativ, tasnif, innovatsiya, obyektiv.*

Pedagogikaning rivojlangan tajribalari hamda ta'limda erishilgan yutuqlarni amaliyotga olib kirish bugungi kunning muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirda o'qituvchi o'z faoliyati davomida foydalana olishi mumkin bo'lgan ulkan tajribalar bazasi shakllangan va u kundankunga yanada boyib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, o'qituvchilar va bo'lg'usi kasb egalari tomonidan ana shu tajribalarni o'zlashtirib olishlari birmuncha mushkullik bilan amalga oshmoqda.

Pedagogning mavqeyi ilg'or tajribalarni vujudga keltirishda va ularni kasbdoshlari o'rtasida ommalashtirishda, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ta'lim beruvchi yangi ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etishda uning qimmatini hamda qay darajada samarali ekanligiga e'tibor berishi kerak. O'qituvchi amaliy faoliyatining innovatsiyaga yo'nalganligi nazariy pedagogik tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatini beradi. Aynan mana shunday tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish uchun ularni keng jamoatchilikka tanishtirish talab etiladi. Bunday yangiliklarni soha mutaxassislari tomonidan tezkor maslahatlar berish, maxsus seminar hamda treninglar o'tkazish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo'lg'usi pedagoglarga esa turkum ma'ruzalar havola etish orqali boshqa pedagogika vakillariga yetkazish mumkin.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: «Ilg'or pedagogik g'oyalar va texnologiyalarni keng jamoatchilik vakillariga etkazuvchilari hamda targ'ibotchilari kimlar?». Alohida pedagog yoki ta'lim muassasi tajribasini o'rganib chiqish, ommalashtirishda oliy ta'lim muassasalarining professor o'qituvchilari, umuta'lim dargohlarida faoliyat olib boradigan yetuk pedagoglar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin:

- innovatsiya muallifi muayyan pedagogik g'oya yoki yangilikning istiqboli to'g'risida kerakli va aniq bahoni bera olmaydi;
- ilg'or pedagoglar har doim ham o'z g'oyalarini ommalashtirish haqida o'ylayvermaydilar. Sababi yangilik pedagogning qo'shimcha vaqti, mehnatini talab qiladi;
- g'oya har doim ham uning yaratuvchisi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaydi;

- mualliflar o'zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga joriy etish yo'llarini bayon qilishda o'zlari va kasbdoshlarining individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarga ro'baro' keladilar;

- nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ'ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida pedagoglar qaoliyatiga tuzatishlar kiritish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasi ham ijodiy guruh zimmasiga yuklanadi;

- innovatsiyalarni tizimli tanlash, monitoring o'tkazish, innovatsion g'oyalar, texnologiyalarga baho berish, oliy o'quv yurtlari ish tajribalarini boyitish vazifalari ham ijodiy guruh a'zolari zimmasidadir.

Innovatsion g'oya muallifi amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyatni boshqarishda ishtirok etmaydi. Bu tarzda yondashuv innovatsion pedagogning imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo'naltirishga zamin yaratadi. Innovatsion pedagogika asoschisi va ommalashtiruvchining quvvatlari shu tariqa bir nuqtaga jamlanib, ma'lum bir maqsadga yo'naltiriladi. Pedagogik innovatsiyalar o'zining muayyan o'lchovlariga ega. Pedagogik innovatsiyalar bo'lg'usi o'qituvchining kreativ faoliyatini shakllantiradigan quyidagi o'lchovlardan iborat hisoblanadi:

innovatsion usullarning naqadar yangi ekanligi; uning optimalligi; qanchalik samara berishi;

ommaviy tajribada qo'llash imkoniyati va shu kabilar. Innovatsion usullarning asosiy o'lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tengligidadir. Shu sababdan ham innovatsion jarayonda faoliyat olib borish istagida bo'lgan o'qituvchilar uchun yangilikning asl mohiyati nimadan iborat ekanligini tushunish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'tkazilayotgan tajriba ma'lum bir o'qituvchi uchun yangilik bo'lsa, boshqasi uchun esa bu usul yangi bo'lmasligi mumkin. Qolaversa, bo'lajak pedagoglar uchun ayni bir usulning yangilik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Shularni e'tiborga olgan holda bo'lajak pedagoglar ham, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar ham innovatsion ijodiy faoliyatga o'zlarining ehtiyojidan kelib chiqqan holda yondashishlari lozim bo'ladi.

Bo'lg'usi pedagoglarning kreativ funksiyalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi innovatsion usullar yangiligi darajasiga ko'ra bir qancha shakllarda namoyon bo'ladi:

absolyut daraja;

lokal-absolyut daraja;

shartli daraja;

sub'ektiv daraja.

Innovatsion pedagogik yangiliklarni ommaviy tarzda amaliyotda qo'llash ularni baholashning me'zoni sifatida talqin etiladi. Bu asosan o'quv jarayonining texnik ta'minoti va o'qituvchi faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Ommaviy pedagogik tajribalarda pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba-sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion

usullardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq

bo'ladi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan tashxislash metodlari ham rang-barangdir. Tashxislash metodlaridan foydalanish o'qituvchi faoliyatining kuchli jihatlarini namoyon qiladi [20]. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni tashxislashning zamonaviy metodikalari bilan qurollantirish davr talabidir. Bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy ehtiyoj va xohishlarini hisobga olgan holda ularda kasbiy-pedagogik etikani shakllantirish va uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan to'laqonli maqsadli faoliyatni amalga oshirish lozim.

Pedagogik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishda har bir pedagog tajribasida ijobiy, rivojlantiruvchi holatlar bilan bir qatorda salbiy ko'rinishlar ham mavjudligini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. Yosh pedagog ta'lim dargohida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning ish tajribasida mavjud bo'lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni tashxislash asosida yaqqol ko'rsatish talab etiladi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish maqsadida qo'llaniladigan tashxislash metodlari quyidagilardan iborat ekanligini bo'lajak o'qituvchilar ongiga aniq etkazish lozim.

- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni tizimli tarzda o'rganish, bunda o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash;

- ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalarni izlab topish va oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonidagi o'ziga xoslik va ularning turli-tuman ko'rinishlarini aniqlash, bunda namoyish qilish, tasvirlash, ochiq darslar o'tkazish, yangi manbalar ustida ishlash, ma'ruzalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish singari ish turlaridan keng foydalanish kabilar. Pedagogik innovatsiyalarni tashxislash asosida o'rganishga yo'naltirilgan amaliy ishlarni ham bir necha bosqichlarda o'tkazish tavsiya etiladi.

Bo'lajak o'qituvchilardan dastlabki bosqichda anketa so'rovlari, anketa savollariga olingan javoblarni ekspertizadan o'tkazish, individual suhbatlar tashkil etish va anketa savollariga olingan javoblardagi ma'lumotlarni tasdiqlash, tashxis natijalari asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish. Mazkur bosqichda birinchi bosqich natijalari asosida bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik malakasini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar rejalashtiriladi hamda ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatiladi. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan ishlar yakunlanib, takroriy tashxislash o'tkaziladi. Mazkur jarayonda bo'lajak o'qituvchining oraliq hamda yakuniy natijalarni olishga yo'naltiriladi. Guruhdagi talabalar faoliyatida ro'y bergan o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarning hosil qilgan kasbiy ko'nikma, malakalari va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash metodlari bilan qurollantirish hamda kasbiy pedagogik ta'lim jarayonini innovatsion g'oyalar asosida qayta qurish talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi. O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati inson ongi, xulqini shakllantirishga, eng muhimi barkamol insonlar avlodini yaratishga bo'ysundirilgan vazifalarni



ijobiy hal qilish jarayonidir. Shuningdek, loyihalashtirilgan o‘quv maqsadi engil amalga oshadi hamda kutilayotgan natijaga tezroq erishiladi. Ya’ni;

- innovatsion ta’lim texnologiyasi tizimida o‘qituvchining o‘rni va vazifalari aniq belgilanishi zarur;

- o‘qituvchi yangi kasbiy lavozim - «o‘qituvchi-texnolog», - «pedagog-texnolog» darajasiga ko‘tarilishi kerak;

- «o‘qituvchi-texnolog» maxsus bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi kerak;

- «o‘qituvchi-texnolog»ning pedagogik jamoa o‘rtasida nufuzi, salohiyatining ortishi, ma’naviy, moddiy manfaatdorligining ta’minlanishi bo‘yicha aniq tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lishi zarur. Ta’lim sifatini rivojlantirishda mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishlari, albatta, samarali natijalarni beradi.

АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ УЧЕБНЫХ ИГР И СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ ВРАЧЕЙ

Парпиева Одинахан Рахмановна

старший преподаватель

Ферганского медицинского института общественного здоровья,

Хайриллов Холдорбек Ихтиёржонович

студент 1-курса

Ферганского медицинского института общественного здоровья.

Аннотация: В статье методы и критерии активной подготовки, обеспечивающие подготовку специалистов в медицинских вузах с использованием инновационных технологий, преимущества симуляционного обучения, группы симуляционных технологий в медицинском образовании, моделирование клинической работы врача с использованием симуляционных технологий, симуляционное обучения на современном этапе развития медицины обсуждаются преимущества занятий.

Ключевые слова и фразы: симуляция, медицинское образование, моделирование, визуальное, тактильное, реактивное, компетентность, манипуляция.

Annotatsiya: Maqolada innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tibbiyot oliygoxlarida mutaxassislarini tayyorlashni ta'minlovchi faol o'qitish usullari va mezonlari, simulyatsiya mashg'ulotlarining afzalliklari, tibbiyotni o'qitishda simulyatsiya texnologiyalarining guruhlari, simulyatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda shifokorning klinik ishini modellashtirish, tibbiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida simulyatsiya mashg'ulotlarining afzalliklari, to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: simulyatsiya, tibbiy ta'lim, modellashtirish, visual, taktil, reaktiv, kompetentsiya, manipulyatsiy

Abstract.: In the article, the methods and criteria of active training that ensure the training of specialists in medical universities using innovative technologies, the advantages of simulation training, groups of simulation technologies in medical education, modeling the clinical work of a doctor using simulation technologies, simulation training at the current stage of medical development the benefits of the classes are discussed.

Key words and phrases: simulation, medical education, modeling, visual, tactile, reactive, competence, manipulation.

Введение

Одним из методов повышения качества практической подготовки будущих врачей, медицинских сестёр, акушерок является использование учебных игр и симуляционных технологий.

Симуляция в медицинском образовании – современная технология Игры, имитация, моделирование, симуляция – это подмена любой части действительности

(объекта, субъекта) ее моделью, оценки практических навыков, умений и знаний, основанная на реалистичном моделировании, имитации клинической ситуации или отдельно взятой физиологической системы, для чего могут использоваться биологические, механические, электронные и виртуальные (компьютерные) модели.

Поэтому ключевой задачей современного среднего, высшего и последипломного медицинского образования является создание условий для развития у обучающихся широкого спектра компетенций и прочно закрепленных практических навыков без риска нанесения вреда пациенту.

Сюда относится развитие способности быстрого принятия решений медицинским работником и безупречного выполнения ряда манипуляций или вмешательств, особенно при неотложных состояниях. Симуляция в медицинском образовании – современная технология обучения и оценки практических навыков, умений и знаний, основанная на реалистичном моделировании, имитации клинической ситуации или отдельно взятой физиологической системы, для чего могут использоваться биологические, механические, электронные и виртуальные (компьютерные) модели.

Методология. В настоящее время по уровню реалистичности выделяют семь групп симуляционных технологий для обучения медицине. Преимущества симуляционного тренинга на современном этапе развития медицины не вызывают сомнений.

1. Визуальный: классические учебные пособия, электронные учебники, обучающие компьютерные игры;

2. Тактильный: тренажеры для отработки практических навыков, реалистичные фантомы органов;

3. Реактивный: манекены низшего класса реалистичности;

4. Автоматизированный: манекены среднего класса реалистичности, видеооборудование;

5. Аппаратный: симулятор среднего класса в палате, оснащенной медицинской мебелью и аппаратурой, тренажер, укомплектованный реальным медицинским оборудованием.

Создание полноценного, оснащенного виртуальными симуляторами симуляционного центра в медицинском институте в виде электронных учебников, обучающих компьютерных игр, тренажеров практических навыков, реалистичных фантомов органов, манекенов сердечно-лёгочной реанимации, отработки методик аускультации.

1. Визуальный – знакомит с практическими действиями, их последовательностью и техникой выполнения манипуляции. Студентами отрабатывается понимание последовательности действий выполнения манипуляции, однако никакой собственно практической отработки манипуляции не происходит. Но, данный уровень позволяет перейти к следующему этапу – к собственно практической отработке манипуляции. Примером может служить электронное пособие и видеофильмы.

2. **Тактильный** – на данном уровне происходит воспроизведение и отработка практических навыков, т.е. последовательность скоординированных движений в ходе выполнения той или иной манипуляции и как результат – приобретение практического навыка. Пример – отработка манипуляций на фантоме, муляже и стандартизированном пациенте, роль которого выполняет студент.

3. **Реактивный** – воспроизводятся простейшие активные реакции фантома на типовые действия студента.

Итоговое выполнение манипуляций с применением вышеперечисленного симуляционного оборудования возможно с использованием системы объективной оценки в баллах.

В медицинском образовании появились и широко внедряются различные фантомы, модели, муляжи, тренажеры, виртуальные симуляторы и другие технические средства обучения, позволяющие с той или иной степенью достоверности моделировать процессы, клинические ситуации и другие аспекты профессиональной деятельности медицинских работников

Целью обучения с использованием симуляционных сценариев и игр является приобретение и усвоение навыков (технических, когнитивных, поведенческих), что составляет компетентность будущего специалиста. Все чаще симуляционные технологии помогают проработать практические навыки во внутренней медицине, хирургии, акушерстве, гинекологии, педиатрии, интенсивной терапии и неотложной медицине, неотложной кардиологии, офтальмологии, оториноларингологии и многих других. Большое значение симуляционное обучение имеет для отработки навыков при редких или критических состояниях.

Безусловно, симуляционные технологии не смогут заменить опыт, приобретенный у постели больного, однако симуляционный тренинг предоставляет целый ряд преимуществ:

- отсутствие риска для пациента благодаря клиническому опыту, приобретенному в виртуальной среде;
- объективизация оценки достигнутого уровня мастерства;
- неограниченное количество повторов для отработки навыков;
- отработка действий при редких патологиях и таких, которые угрожают жизни;
- часть функций преподавателя берет на себя виртуальный тренажер, повышает доступность образования;
- снижение стресса во время первых самостоятельных манипуляций;
- тренинг происходит независимо от расписания работы клиники и образовательного учреждения;
- развитие индивидуальных умений и навыков;
- развитие клинического мышления;
- развитие логического мышления;
- развитие мышления, основанного на принципах доказательной медицины.

Объективная оценка с помощью имитационных методик дает преподавателям широкие возможности для проведения экзаменов и аккредитации. Отработка навыков и умений должна быть основана на принципах андрагогики и проводиться с использованием приемов «осознанной практики». Необходимо оснастить высшие медицинские учебные заведения многопрофильным симуляционным центром, который создан как модель мини-клиники и включает в себя: кабинет приема больных, процедурную, перевязочную, палату интенсивной терапии, кабинет женской консультации, родовой зал, кабинет здорового ребенка, клизменную, кабинет забора анализов.

Выводы

Симуляционное обучение позволяет без вовлечения в учебный процесс пациентов на доклиническом этапе предварительно освоить практические манипуляции и нетехнические навыки, в дальнейшем обеспечивает более эффективное обучение в клинике, без стресса и с меньшим количеством ошибок. Кроме того, симуляционное обучение с использованием компьютеризированных сценариев клинических случаев может быть эффективным для проведения последиplomного этапа обучения (повышение квалификации без отрыва от повседневной деятельности, обмен опытом между клиниками, между врачами, независимость от получения обучающих материалов во время конференции, непрерывность повышения квалификации).

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Симуляционное обучение в России: проблемы и их решение, М.Д.Горшков, А.В.Фёдоров, А.Ю.Мамаев конференция «Медицинское образование», Москва, 05.-презентация.
2. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktanjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 pages.
3. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Odinaxon Odilovna Djalalidinova //Tibbiy ta'limda interfaol usullardan foydalanish// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г 565-569 стр.
4. Eleonora Topvoldieva Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.
5. Parpieva O.R, Hojkarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале «Экономика и социум». Вып №6(85) 2021. 157-161стр.

6. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Oripova Nodirahon Qodirjon qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 89-94 pages.

7. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 betlar

8. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Ro‘zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi //TA’LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O‘ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 – SON. 226-230 betlar

9. Парпиева Одинахон Рахмановна, Раззоқов Бахтиёр Хабибуллаевич //ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5(100), часть 2. Декабрь, 2022. 204-210 стр.

10. Odinakhan Rakhmanovna Parpieva, Odinakhan Odilovna Djalalidinova //Reproductive Health Issues// Texas Journal of Medical Science. 10-11-2022. 58-61 pages.

11. O.R.Parpiyeva, O.O.Dzhaloldinova //The role of Valeology in raising a healthy generation// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 04-10-2022. 1-3 pages.

12. O.P.Парпиева, X.Хайриллов, Д.Фофуржонов //ПСИХОГИГИЕНА ҲАҚИДА ТУШУНЧА// Международный научный журнал «Научный импульс» № 7 (100), часть 2. Февраль, 2023. 99-102 стр.

13. O.R.Parpiyeva, D.G'ofurjonov, X.Xayrilloev //БИОЭТИКА O'RGANADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR// Международный научный журнал «Научный импульс» № 7 (100), часть 2. Февраль, 2023. 95-98 стр.

14. Парпиева Одинахан Рахмановна, Хайриллов Холдорбек Ихтиёржонович // ЗНАЧЕНИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ПРОГРЕССИВНОЙ МОДЕЛИ В РАБОТЕ С МАТЕРЯМИ И ДЕТЬМИ В СИСТЕМЕ ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА// SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH: a collection scientific works of the International scientific online conference. Poland, Warsaw: 30 th May, 2023. Part 10. 148-152 pages.

15. Roziqova Gulbahor Zaylobiddinova, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //CREATING AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 284-288 стр.

16. Abdullaeva Umidahon Oktamjon qizi, Melikuzieva Zulhumor Sherqo‘zi qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //THE VALUE OF USE OF INNOVATIVE IDEAS FOR INTENSIFICATION OF MENTAL ACTIVITY OF STUDENTS// American scientific journal. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Date of Publication: 06-06-2022 Volume 9. 80-83 pages.

ЁШ ВА БАРКАМОЛ АВЛОДНИНГ ТАРБИЯСИДА ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ЎРНИ

А.Нурмухамеджанов

ФарДУ Санъатшунослик факультети доценти.

Аннотация: *Ушбу мақолада ёшларнинг маънавий дунёқарашини шакллантириш, баркамол инсон этиб тарбиялашда мусиқий тарбияга урғу берилган. Халқ мусиқа ижодиёти ҳар бир халқнинг улкан маънавий бойлиги ҳисобланади. Унинг таркибидаги энг оммавий, тарбиявий - таъсирчан халқ қўшиқлари ўзининг гоявий-бадий мазмуни, халқ ҳаётининг барча қирраларини ифода этиши каби хусусиятлари билан ёш авлодни маънавий-ахлоқий, маърифий ва эстетик дунёқарашини шакллантиришда муҳим восита ҳисобланади.*

Таянч сўз ва иборалар: *Мусиқий таълим, қадриятлар, урф-одатлар, анъаналар, фольклор, гоявий мазмун, тарбиявий таъсирчанлик, мусиқий эстетик тарбиянинг долзарблиги.*

Ўсиб келаётган ёш авлоднинг маънавий дунёқарашини шакллантириш ва уларни баркамол инсон қилиб тарбиялашда ўзбек миллий мусиқий маданиятининг аҳамияти ниҳоятда каттадир. Мусиқий таълим ва тарбиянинг бош мақсадларидан бири ёш авлодни халқ қўшиқларимизга ворислик қила оладиган ҳамда умумбашарий мусиқий қадриятларни теран англай оладиган маданиятли инсон даражасида вояга етказишдан иборатдир. Шунинг учун ҳам таълим-тарбияни халқ қўшиқлари мероси негизида шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, "... ёшларимизни ҳақиқий санъатни англашга ўргатиш, уларнинг эстетик оламини соғлом асосда шакллантириш бўйича олдимизда жуда муҳим вазифалар турибди"³⁴.

Кўпгина илмий тадқиқотларда ҳам халқ қўшиқлари таркибидаги фольклор, мумтоз ва мақом куй-қўшиқларини юксак тарбиявий-таъсирчанликка эга эканлиги, уларни ёшлар маънавий оламига чуқурроқ сингдириш, бадий-эстетик тарбиясида тўғри ва мақсадли фойдаланиш орқали юқори самарадорликка эришиши мумкинлиги асослаб берилган. Масалан, фольклор йўналишидаги халқ қўшиқлари ўз мазмунида халқ ҳаётининг энг муҳим, ўзига хос турли кўринишлари ва қирраларини акс эттирадики, мусиқа дарсларида уларни ўрганиш ўқувчи-ёшларни миллий ўзлигини англашларида беқиёс аҳамият касб этади.

Халқ мусиқа ижодиёти ҳар бир халқнинг улкан маънавий бойлиги ҳисобланади. Унинг таркибидаги энг оммавий, тарбиявий-таъсирчан халқ қўшиқлари ўзининг гоявий-бадий мазмуни, халқ ҳаётининг барча қирраларини ифода этиши каби

1 ³⁴ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т.: Ўзбекистан. 2018. Б- 196

хусусиятлари билан ёш авлодни маънавий-ахлоқий, маърифий ва эстетик дунёқарашилини шакллантиришда муҳим восита ҳисобланади. "Ҳар қандай халқ ёки миллатнинг маънавиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одатлари, анъаналари, ҳаётий кадриятларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада табиийки маънавий мерос, маданий бойликлар, кўҳна тарихий ёдгорликлар энг муҳим омиллардан бўлиб хизмат қилади"³⁵.

Таъкидлаб ўтилган маънавий мерос, маданий бойликлар, миллий кадриятлар тизимида халқ қўушиқчилиги ижодиёти алоҳида мавқега эга бўлиб, улар халқимизнинг миллий урф-одатлари, анъаналари, байрам маросимлари, тарихий, диний, фалсафий қарашлари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ўзида маънавий-маърифий ғояларни мужассам этади. Чунки, бадиий етук, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган жуда кўплаб халқ ижодиётига мансуб куй-қўшиқлар, мумтоз ва мақом ашулалари бевосита халқнинг яратувчанлиги қудратини маҳсули бўлиб, уларнинг тарбиявий таъсир кучи энг аввало улар мазмунидаги гўзаллик, улуғворлик, жўшқинлик, тушқунлик, ғамгинлик, маъюслик ҳис-туйғуларини уйғотувчи хусусиятларга эга эканлигидадир. Шунинг унутмаслигимиз керакки, халқ қўшиқларидан тарбиявий мақсадларда фойдаланишда уларни бадиий етуклиги, ғоявий мазмунига кўра тарбиявий-таъсирчанликка эга намуналарига эътибор бериш, ўқувчи-ёшларни

турли ёш даврларига, овоз диапозони, куйлаш имкониятларига мос келишига кўра танлаш энг муҳим педагогик талаблардандир. Аксинча, енгил-елпи, бадиий саёз қўшиқлар эса бола қалбини ҳис этиш туйғусини, эстетик дидини ногирон қилиб қўйиши мумкин. Шунинг учун илк мактаб ёшлариданоқ чинакам санъат асари бўлган халқ ижодига хос қўшиқлар билан енгил-елпи, "бир эшитгулик" қўшиқларни фарқлаш, унга нисбатан ўз муносабатларини билдира олишдек кўникма ва малакаларини шакллантириб бориш мусиқий-эстетик тарбиянинг долзарб вазифаларидандир.

Халқ қўшиқларининг ҳаётбахш жозибаси, қудратли таъсир кучи, айниқса баркамол авлодни тарбиялашдаги бунёдкорлик кучи ҳақидаги фикрларимизни Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг қуйидаги сўзлари ҳам яққол тасдиқлайди: "... агар инсоннинг қулоғи енгил-елпи, тўмтақроқ оҳангларга ўрганиб қолса, бора-бора унинг бадиий диди, мусиқа маданияти пасайиб кетиши, унинг маънавий оламини сохта тушунчалар эгаллаб олиши ҳам ҳеч гап эмас. Охир-оқибатда бундай одам "Шашмақом" сингари миллий меросимизнинг ноёб дурдоналарини ҳам, Моцарт, Бетховен, Бах ва Чайковский каби дунё тан олган буюк композиторларнинг асарларини ҳам қабул қилиши қийин бўлади"³⁶.

Мусиқа инсон қалбини юмшатиши, унда иймонга далолат этувчи меҳр-муҳаббат ва раҳмдиллик туйғуларини уйғотиши мумкин. Шу билан бирга, мақомлар мазмунида буюк давлат мафқурасига мувофиқ бўлган тасаввуф таълимоти ғояларини бадиий

³⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият. 2008. Б- 30

³⁶ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият. 2008. Б- 143

ифода этиш вазифаси ҳам қўйилган. Табиийки, ушбу мураккаб илмий масалаларни тадқиқ этиш ҳар томонлама етук мусиқашунос олимлар зиммасига юклатилган.

Шарқ халқлари кўшиқлари ўзига хос миллий хусусиятларга эга бўлиб, Ўрта Осиёда ир (жир), терма, ўлан, лапар, ялла каби номлар билан аталади.

Булар негизида бастакорлар ижоди. XX асрда замонавий кўшиқ шакллари ривож топган. XX асрда кенг ривож топган оммавий кўшиқ, эстрада кўшиқлари ва профессионал кўшиқларнинг ривожланиш босқичларидир. Шоирлардан Ҳамза, Ҳабибий, Собир Абдулла, Миртемир, Чустий, Т.Тўла, П.Мўмин, Н.Нарзуллаев, Муҳаммад Юсуф, Эркин Воҳидов, Ж.Жабборов ва бошқаларнинг кўшиқ шеърляти ривождаги хизматлари катта.

"Ўзбек кўшиқларида биринчи банди одатда тўрт шеърлий мисра ва уларни куйлашга асос бўлган нисбий тугал оҳанг тузилмалари уйғунлигидан ташкил топади. Куй тузилмалари сони 2-4 бўлиб, уларнинг ўзаро нисбатлари эса асосий жумлани такрорлаш, ўзгартириш ёки маълум даражада ривожланган янги жумла билан яқунлаш каби воситалардан иборат. Кўшиқларда махсус (алоҳида) нақаротлар деярли қўлланмасада, баъзан кичик нақарот вазифасини касб этувчи такрор сўзлар келиши, шунингдек, "жон", "ёр", "дод-эй" каби ундов-ундалама иборалар ишлатилиши кузатилади." XX аср ўзбек бастакорлари ва айниқса, композиторлари ижодига мансуб кўшиқлар жанр нуқтаи назаридан ўзида бошқа жанрлар лапар, ялла, ашула, терма хусусиятларини мужассам қилиб, маълум ўзгаришларга юз тутган. Жумладан, уларда банд-нақарот тузилмалари, жўрнавоз чолғулар, рақс унсурларини ҳам кўриш мумкин. Ўзбек бастакорларидан Ю.Ражабий, К.Жабборов, Фахриддин Содиқов, Т.Жалилов, Ғ.Тошматов, Н.Хасанов, М.Мирзаев, Б.Алиев, Р.Турсуновлар; композиторлардан Т.Содиқов, М.Бурхонов, М.Левиев, С.Юдаков, А.Отажонов, Ф.Назаров, А.Назаров, Ф.Алимов, К.Комилов, болалар учун А.Мухаммедов, Е.Шварц, Ил.Акбаров, Н.Норхўжаев, Анвар Эргашев, А.Мансуров, эстрада йўналишида Ш.Рамазонов, Ик.Акбаров, Э.Солихов, Д.Омонуллаева, А.Расуловлар кўшиқ жанрида салмоқли ижод қилганлар.

Туризм тармоқларидаги бандлик (юридик шахслардаги ишловчилар сони) ³⁹

Туризм тармоқлари	2019	2020
1. Ташриф буюрувчиларни жойлаштириш бўйича хизматлар	54536	49805
2. Умумий овқатланиш корхоналари хизматлари	66646	54101
3. Темир йўл йўловчи транспорти хизматлари	5273	4149
4. Куруқликдаги йўловчи транспорти хизматлари	70919	50206
5. Ҳаво йўли йўловчи транспорти хизматлари	1040	552
6. Транспорт воситаларини ижарага бериш	1788	1225
7. Туризм агентликлари хизматлари ва брон қилиш бўйича бошқа хизматлар	3192	2525
8. Маданият соҳасидаги хизматлар	11042	11545
9. Спорт ва дам олиш бўйича хизматлари	16028	15666
Жами:	230464	189229

Ўзбекистон жуда катта туризм ва рекреация салоҳиятига эга, унда жами 7,4 минг маданий мерос объектлари мавжуд, улардан 209 таси тўртта музей шаҳарлар - "Хива шаҳридаги Ичан-қалъа", "Бухоро шаҳрининг тарихий маркази", "Шаҳрисабз шаҳрининг тарихий маркази", "Самарқанд шаҳри" ҳудудида жойлашган бўлиб, ЮНЕСКО бутунжаҳон мероси рўйхатида киритилган.

Сўнгги йилларда туризм инфратузилмасини ривожлантириш бўйича йирик инвестиция лойиҳалари амалга оширилди, шу жумладан Тошкент шаҳрида "Hyatt Regency Tashkent" ва "Lotte City Hotel Tashkent Palace" брендли меҳмонхоналар очилиши, Андижон, Урганч ва Тошкент шаҳрида маданий-кўнгилочар боғларнинг ташкил этилиши, "Ангрен-Поп" темир йўли очилиши, Бухоро, Қарши, Шаҳрисабз ва Хива шаҳарларига тезюар поездлар учун электрлаштирилган темир йўллари очилишини айтиб ўтиш жоиз.

Туризм соҳасида давлат сиёсати истиқболда ҳудудлар ва уларнинг инфратузилмасини комплекс жадал ривожлантиришда туризм соҳаси етакчилик қилиши, долзарб ижтимоий-иқтисодий вазифаларни ечиш, иш ўринларини кўпайтириш, ҳудудлар диверсификацияси ва ривожланишини таъминлаш, аҳолининг даромадлари, яшаш даражаси ва сифатини ошириш ҳамда мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлиги ва имиджини яхшилашга қаратилган.

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Жорий йил 29 март куни Президентимиз раислигида туризм салоҳиятини ошириш масалалари муҳокамаси юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишида 2022 йилда юртимизга ташриф буюрган хорижий сайёҳлар сони 2021 йилга нисбатан 3 баробар ошгани алоҳида таъкидлаб ўтилган. Бухоро вилоятида ҳам бу борада кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Президентимизнинг 2017 йил 19 майдаги “2017-2019 йилларда Бухоро шаҳри ва Бухоро вилоятининг туризм салоҳиятини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 28 сентябрдаги “2022-2026 йилларда Бухоро вилоятида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорларига асосан, 2026 йилга қадар Бухоро вилоятида туризм соҳасини ривожлантиришнинг мақсадли кўрсаткичлари алоҳида белгилаб қўйилган.

Хусусан, туристларга янада қулай шароитлар яратиш ва хизматлар экспортини кўпайтириш мақсадида меҳмонхоналар, музейлар, кафе-ресторан, савдо шохобчалари ва бошқа объектларда 67 та валюта айирбошлаш шохобчаси, 35 та автоматлаштирилган валюта айирбошлаш банкомати ўрнатилди. Хорижий ва маҳаллий сармоядорлар билан олиб борилган музокаралар натижасида Бухоро шаҳрида ўн йилдан ортиқ вақт давомида ишламай турган 3 та йирик “Бухоро-палас”, собиқ “Зарафшон” ва собиқ “Варахша” меҳмонхоналари инвесторларга берилди. Айни пайтда ушбу меҳмонхоналар ўз фаолиятини бошлади.

Ҳозирги кунда собиқ “Бухоро Палас” меҳмонхонаси “Wide Tent System” МЧЖ томонидан тўлиқ реконструкция қилиниб, дунёнинг топ 10 талик рўйхатига кирувчи машҳур бренд “Wyndham” билан шартнома имзоланди. Бундан ташқари, Етти пир зиёратгоҳларига туташ ҳудудларда 7 та меҳмонхона қуриш учун икки гектарга яқин ер участкалари ажратилди ва ҳозирда қурилиш-ободонлаштириш ишлари яқунланиб, фойдаланишга топширилган.

Экотуризм, гастрономик туризм, агротуризм, қишлоқ туризми, маданий туризм каби янги туристик маршрутлар ва хизматлар тури ўзлаштирилди.

Бухоро шаҳрининг Арабон кўчасида жойлашган XVI асрга оид қадимий объект негизда “Уста-шоғирд” миниатюра маркази ташкил этилди.

Хорижлик ва маҳаллий сайёҳларни ўзига оҳанрабодек тортаётган кўҳна ва боқий Бухоро йилдан-йилга янги қиёфа касб этмоқда. Кўп қаватли бинолар, турли ижтимоий соҳа объектларининг қурилиши шаҳар кўркига кўрк бағишламоқда. Албатта, аҳолига қулайлик яратиш мақсадида савдо ва маиший хизмат кўрсатиш объектларининг иш бошлаши, ўз навбатида, тадбиркорлик ривожини учун ҳам кенг йўл очаетир.

Вилоятга хорижий ва маҳаллий сайёҳлар оқимини кўпайтириш мақсадида 2026 йилга қадар жами меҳмонхоналар сонини 679 тага етказиш, ташриф буюрувчи хорижий ва маҳаллий туристлар сонини 5,1 миллион нафарга етказиш ҳамда 60 та янги туристик йўналиш ташкил этиш кўзда тутилган. Туризм салоҳияти юқори бўлган шаҳар ва туманларда эса “Туризм маҳалласи”, “Туризм қишлоғи”, “Туризм кўчаси” ташкил этиш борасидаги ишлар ҳам жадаллаштирилмоқда. Сайёҳлар сонини ошириш

мақсадида 30 га яқин авиақатнов, 24 та хорижий йўналишни ташкил этиш режалаштирилган.

Албатта, бугун Бухоро шаҳрида истиқомат қилаётган юртдошларимиз мазкур ишлар натижасини ўз ҳаётида яққол ҳис қилмоқда. Бўлаётган ўзгаришлар барчани бирдек яратувчанликка, янги лойиҳаларни амалиётга татбиқ қилишга чорламоқда. Бухоро вилоятидаги 829 та моддий-маданий мерос объекти давлат муҳофазасига олинган. Улар таркибида 287 та археология ёдгорлиги, 31 та мадраса, 105 та масжид, 14 та мақбара, 133 та архитектура ансамбли, 15 та карвонсарой, 4 та тим ва тоқ, 18 та диққатга сазовор жойлар, 122 та қадимий уй-жой, 83 та архитектура ёдгорлиги, 17 та монументал ёдгорлик қайд этилган.

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда хусусан Бухоро вилоятида ҳам бир қатор ўзгаришлар олиб борилмоқда, хусусан меҳмонхоналар сонининг ошиши ҳамда уларда аҳоли бандлигини та’минлаши ҳам ижобий ҳолат ҳисобланади (1-жадвал).

1-жадвал

Бухоро вилоятидаги меҳмонхоналар сони⁴⁰

	Мехмонхона ва шунга ўхшаш жойлаш воситаларини сони, (бирлик)	Улардаги объектлар (бирлик)	Тунаб қолишлар сони, (бирлик)	Шу жумладан, фуқаролар			
				Ўзбекистон	МДХ мамлакатлардан	Узоқ хорижий мамлакатлардан	
14	20	80	82	198895	63352	19066	116477
15	20	92	94	184381	71917	17859	94605
16	20	102	104	233888	98873	23212	111803
17	20	124	125	279142	105530	33233	140379
18	20	138	140	384057	122378	50258	211421
19	20	170	173	409000	106317	50425	252258
20	20	163	160	11526	9826	1315	385

Юқоридаги жадвал маълумотларини таҳлил қиладиган бўлсак, йиллар кесимида меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситаларини сони ҳам уларда тунаб қолувчи фуқаролар сони ҳам ўсиш тенденциясига эга, бу ўз-ўзидан бу соҳада олиб борилаётган ишларнинг ижобий самарасини кўрсатганидан далолат беради. Фақатгина 2020-йилдаги пасайишни пандемия орқали изоҳлаш мумкин.

Бухоро вилоятида бир кунда икки янги меҳмонхона очилиш маросими боълиб оътди, яъни Когон туманида "Пойкент Бухара" ва Бухоро шаҳрида "Гарден Плаза" меҳмонхонаси фойдаланишга топширилди.

⁴⁰Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Очилиш маросимида Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирининг биринчи о'ринбосари Улуг'бек Азамов, Бухоро вилояти ҳокими Ботир Зарипов, вилоятдаги корхона ва ташкилотлар раҳбарлари, кенг жамоатчилик иштирок этишди.

Вазирлик хабарига кўра, масъуллар со'нгги йилларда туризм соҳасини ривожлантириш натижасида мамлакатимизга хусусан, Бухорога келаётган сайёҳлар ва зиёратчилар сони йилдан-йилга кескин кўпайиб бораётганини мамнуният билан таъкидлашган.

Қайд этилишича, биргина 2019 йилда вилоятга ташриф буюрган сайёҳлар сони 3,6 миллион нафар, хорижий туристлар сони 600 минг нафардан ортиб, аввалги йилларга нисбатан 2,5-3 бараварга кўпайган.

Маълумотга кўра, Баҳоуддин Нақшбанд зиёратгоҳининг ро'ьпарасида қад ростлаган "Пойкент Бухара" шу номли меҳмонхоналар тармоғининг 4-меҳмонхонаси ҳисобланади. Ҳам миллийлик, ҳам замонавий элементларни ўзида уйғунлаштирган ушбу меҳмонхонада эндиликда сайёҳлар учун қўшимча 104 та хона ва 250 ўрин яратилган. Шунинг баробарида 50 дан ортиқ йигит-қиз муқим иш билан таъминланди.

Бухоро шаҳридаги "Гарден Плаза" меҳмонхонасининг очилиш маросимида иштирокчилар томонидан давлатимиз раҳбари ҳамда ҳукуратимиз томонидан туризм соҳасидаги инвесторларга янги қурилган 3 юлдузли тоифага ва 50 хонадан кам бўлмаган хоналар фондига эга меҳмонхонанинг ҳар бир хонасига 40 млн. сўм ҳамда 4 юлдузли тоифага ва 100 та хонадан кам бўлмаган хоналар фондига эга меҳмонхонанинг ҳар бир хонасига 65 млн. сўмдан субсидия ажратилиши тадбиркорлар учун имкониятлар эшигини очиб бераётгани қайд этилган.

Маълумот учун ушбу меҳмонхонада ётоқ хизматидан ташқари 300 кишига мўлжалланган 2 та замонавий ресторан, 60 кишига мўлжалланган очиқ ҳаводаги ресторан, сузиш ҳавзаси, сауна, конференция ва музокаралар зали, биллиард, стол тенниси, фитнес зали хизматлари ҳам йўлга қўйилган. Лойиҳа қиймати 25 млрд. сўмга тенг меҳмонхона очилиши натижасида сайёҳлар учун қўшимча 72 та хона, 150 та ўрин, шунингдек, 50 нафар туризм соҳаси мутахассислари учун янги иш о'рни яратилган.

Маданият вазирлиги, Маданий мерос агентлиги ва Бухоро вилояти ҳокимлиги ҳамкорликда Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича Ислом ташкилоти (ICESKO) рўйхатида Бухородаги 7 та объект: Исмоил Сомоний мақбараси, Чор Бақр, Баҳоуддин Нақшбанд мажмуалари, Мағоки Аттор масжиди, Пойи Калон ансамбли, Қадимги Пойкент шаҳри қолдиқлари ва Тошсарой мадрасаси киритилди.

Хитойнинг Фужоу шаҳрида ўтказилган ЮНЕСКО Умумжаҳон мероси қўмитасининг 44-сессиясида Жаҳон мероси рўйхатида киритиш учун таклиф қилинган объектлар бўйича янгиланган рўйхатга Бухоро вилоятидан 7 та маданий мерос объекти: Пойкент, Варахша, Вардонзе, Чор Бақр ва Баҳоуддин Нақшбанд мажмуалари, Вобкент минораси, Чашмаи Айюб ҳазираси киритилди.

Маҳаллий бюджет ҳисобидан ўтган йили Бухоро шаҳрида учта, Гиждувон туманида учта, Вобкент туманида битта, Бухоро туманида битта, Қоровулбозорда

битта, вилоят бўйича жами 9 та маданий мерос объектлари таъмирлаш ишлари бошлаб юборилган эди.

Бухоро шахрининг тарихий марказида жойлашган Чор Минор, Раҳмонкул мадрасалари, Самарқанд дарвозаси, Зиндон, Кулита карвонсаройи ва бошқа шу ҳудудлардаги маданий мерос объектларини ёмғир сувлари таъсиридан асраш зарурлигини инобатга олиб, мазкур кўчаларнинг йўлакларини таъмирлаб, ёмғир сувларини маданий мерос объектларидан узоқлаштириш чоралари кўрилди.

Бир қатор халқаро фестивал ва анжуманларнинг Бухоро шаҳрида ўтказилиши ҳам вилоятга сайёҳлар оқимини оширишда муҳим аҳамият касб этапти. Президентимиз ташаббуси билан Бухоро шаҳрида ўтказилаётган “Халқаро зардўзлик ва заргарлик” ҳамда “Каштадўзлик санъати” халқаро фестиваллари ҳам муҳим истиқболли тадбирлар ҳисобланади. Ўтган йили ўтказилган ушбу тадбирларда 58 давлатдан 220 дан зиёд хорижий меҳмон, 38 давлатдан 130 дан ортиқ чет эллик уста-ҳунарманд ҳамда мамлакатимизнинг барча ҳудудларидан 300 дан зиёд зардўз, каштадўз, заргар ва ҳунарманд қатнашди.

Эътиборли томони, хорижий сайёҳлар томонидан уларнинг декларацияларига асосланиб айтадиган бўлсак, 15,6 килограмм кумуш ва 4,8 килограмм миқдорда олтиндан ясалган тақинчоқлар харид қилинган. Бу ўртача 284,5 минг АҚШ доллари ёки 3,2 миллиард сўмни ташкил этади.

Ўтган йилнинг май ойида Бухорода “Зардўзлик, заргарлик ва миллий каштачилик санъати” фестивалининг ташкил этилгани, “Бухоро – дунё ҳунармандлари пойтахти” деб эълон қилингани таҳсинга сазовор.

Сирасини айтганда, мамлакатимизда “инсон – жамият – давлат” тамойили устуворлик касб этаётган бугунги кунда кўҳна ва ҳамиша навқирон Бухорода ҳам ушбу тамойил асосидаги бунёдкорлик ишлари кенг қулоқ ёймоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 13-августдаги ПФ-5781-сон “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

2. Абдували Исаджанов, Илём Гулмуратов, Ўзбекистонда Туризмни ривожлантириш: замонавий тенденциялар ва миллий устуворликлар, Тхе Лигхт оф Ислам, 1-сон 2020 йил.

3. Vanegas, M.; Gartner, W.; Senauer, B. Tourism and Poverty Reduction: An Economic Sector Analysis for Costa Rica and Nicaragua. Tour. Econ. 2015, 21, 159-182.

4. Худайбердиева О. К. ФОРМИРОВАНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 430-432.



5. Худайбердиева О. К. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕФОРМЫ СФЕРЫ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. - 2021. - С. 216-220.

6. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING XOTIN-QIZLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Nazokat Ismoilova Shuhratjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi va bu strategiyaning 4- bo‘limi xotin-qizlar huquqlari va gender tengligi masalalariga qaratilgan bo‘lib, unga ko‘ra ayollar huquqlariva ularning erkinliklarini kafolatlovchi hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy,siyosiy sohada faolligini oshirishga oid olib borilgan ishlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, tenglikni ta‘minlash, ayollarning parlamentdagi o‘rni, bandlik, texnik ko‘nikmalar, ayollarning “tabiiy taqdiri”*

Abstract: *In this article, the adoption of the New Uzbekistan development strategy and the 4th section of this strategy focused on the issues of women's rights and gender equality, according to which the work carried out to guarantee women's rights and their freedoms and increase their activity in the socio - economic, political sphere was analyzed.*

Keywords: *gender equality, women's rights, ensuring equality, women's place in Parliament, Employment, Technical Skills, “natural fate” of women*

Yer yuzida ongli hayot paydo bo‘libdiki, odamzod muqaddas Ona siymosini, ayol zotini ulug‘lab, sharaflab keladi. Onalarimiz sharofati bilan Vatanimiz tuprog‘i Jannat bog‘laridek go‘zal va mo‘tabardir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor. Ma‘lumki, muqaddas Qur‘oni karimning eng katta suralaridan biri - “Niso”, ya‘ni “Ayollar” deb ataladi.[1] Alloh taola ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo‘lishga da‘vat etadi va bu ilohiy so‘zlar zamirida, albatta, teran hikmat mujassam.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalini himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. [2]

Hozirda O‘zbekiston qonunlarida ayollarning huquqiy tengligiga to‘liq erishilgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqorolik kodeksi, Mehnat kodeksi va ularda ayollarning huquq va manfaatlarini belgilab berilgan. O‘zbekistonning gender tenglikni ta‘minlash borasidagi davlat siyosati butun dunyo miqyosida e‘tirof etilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2020-yil 23-sentabrdagi 75-sessiyasida shunday degan edi: “Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O‘zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi.

Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi".[3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi ham "xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash"[4], shuningdek «... xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish...» kabi vazifalar nazarda tutilgan. Shu bilan birga, strategiyada ta'kidlab o'tilganidek, BMT ning Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar qabul qilingan. Bu yo'nalishdagi beshinchi maqsad gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishdir. Bu esa, o'z navbatida, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, har bir fuqaro mas'uldir.

2020-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida mamlakatimizda "davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rnini va mavqeyini mustahkamlash islohotlarning eng ustuvor yo'nalishi" ekanini ta'kidlab, ayollarning davlat boshqaruvidagi o'rnining so'ngi yillardagi ijobiy o'sish natijalarini tahlil qilib o'tdi. Prezident o'z nutqida davlatimiz oldida turgan "endigi vazifa ayollarning jamiyatdagi nufuzini oshirishdan iborat" ekanligini bildiradi hamda ayollarga yanada keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha navbatdagi qadam sifatida ayollar muammolarini yaxshi biladigan, tashabbuskor ayollardan iborat "Respublika xotin-qizlar jamoat kengashi"ni tashkil etishni taklif qildi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda mamlakatimizda ayollar sog'liqni saqlash, ta'lim tizimida, davlat boshqaruvining turli yo'nalishlarida, tadbirkorlik faoliyatida faollik ko'rsatmoqdalar. Yurtimizda tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha kafolatlar berildi. Shuningdek, mamlakatimizda mavjud bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining 20 foizidan ortig'iga xotin-qizlar rahbarlik qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini rivojlantirish to'g'risida"gi PF-5325 sonli Farmoni
2. Abdulaziz Mansur "Quroni Karim" ma'nolarining tarjimasini. "Niso" surasi.;T- 2001-y
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiya"asari.;T. O'zbekiston-2022. B.233
- 4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonliklardan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3-son qarori.

INGILIZ TILIDA KO'P FOYDALANILADIGAN IBORALAR , ULARNING O'ZBEK TILLARIDAGI TARJIMASI VA MUQOBIL VARIANTI

Avvalbekova Dildora Hoshimjon qizi
*Farg'ona davlat universiteti. Xorijiy til va
adabiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

Anatatsiya : *Ushbu maqola o'zbek tilidagi iboralar va ularning ma'nolari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan bir qatorda ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan iboralar va ularning o'zbek tilidagi tarjimasini haqidadir. Qo'shimcha tarzida ingliz tilida mavjud bo'lgan iboralarning kelib chiqish tarixi haqida ham to'xtalib o'tilgan . Quyida biz ikki tilda ham mavjud bo'lgan iboralarning ma'noarini bir biri bilan taqqoslab o'tamiz va misollar yordamida yanada chuqurroq tanishtirib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *Iboralar,termin,ekvivalenti,tarjima, frozeologik iboralar,frazeologik butunlik,chatishma,leksik ma'no,mifalogiya.*

Har bir til o'zining frazeologik birliklari bilan boy va rang barangdir. Ona tilimizni bo'lmish - o'zbek tili ham boshqa tillar singari iboralarga juda boy tillardan birdir. Quyida biz ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar va ular o'rtasidagi bog'liqliklar haqida gaplashamiz. Frozeologik iboralar bugungi kunda tilshunoslikning muhim yo'nalishlarida biri bo'lib kelmoqda. Iboralar nafaqat malum bir tilning qanchalik boyligini va shu bilan birga o'sha xalqning yashash tarzi, kundalik hayoti va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Iboralar (arab.) – 1) biror tushuncha yoki fikrni ifoda etuvchi til birliklarining birikmasi. Ingliz tilidagi iboralarni osongina yodlab olish uchun biz ularni o'zimizning tilimizda qanday ma'no anglatayotganini tushunishimiz kerak. Ingliz tilidan iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'p xollarda o'z natijasini beravermaydi. Ulardan ba'zilarini hatto tarjima qilib bo'lmaydi, ammo o'zbek tillaridagi ekvivalenti orqali biz ularni tushinishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, bizning iboralarimiz ham ingliz tiliga noodatiy tarjima qilinishi mumkin. Chunki ibora tarkibidagi so'zlar bir yaxlitlikda tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi iboralarning ba'zilarini o'zining kelib chiqish tarixiga ega quyida shu iboralar haqida so'z .

Iboralar turlari:

Frazemalar ikki turga bo'lib o'rganiladi:

1.frazeologik butunlik;

2.frazeologik chatishma;

I. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ma'no ifodalaydigan frazemalarga frazeologik butunliklar deyiladi. Masalan: 1. Bilib qoying. Ish ogir. Belni mahkam bog'lamasangiz, qiyin boladi (O.Yoqubov). 2. Ayol kishiga qo'l ko'tarish erkakning ishi emas. (R.Fayziy). 3. Bu maydon yog' tushsa yalagudek ozoda (A.Muxtor).

II. Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga frazeologik chatishmalar deyiladi. Masalan; 1. Qishki sessiyani yaxshi yakunladik, ammo bu hali-xamir uchidan patir (P.Qodirov). 2. Odamlar qo'ltig'dan

tarvuzlari tushib, qishloqqa qaytishdi. (M.Ismoiliy). 3.Butun gavdasi qizlik latofati bilan yashnagan chog'da boyvachcha uni ko'z tagiga olib qo'ygan edi. (Oybek).(1:1)

Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda mavjud boladi. Demak, frazeologizmlar til hodisasi hisoblanadi: , (1:2)

Turn the blind eye -ko'z yummoq , panja ortidan qaramoq degan ma'nolarni anglatib keladi .Hammaga aniq ravshan ko'rinib turgan haqiqatni rad etish .Misol uchun „Management often turn a blind eye to bullying in the workplace".Bu ibora Britaniyalik bir ko'zi ko'r admiral Horatiyo Nelson nomi bilan bog'liq.1801-yilda admiral sir Parker bilan Kopenhagendagi jangda qanashadi.Ikki admiral qachonki bayou ko'tarilsa chekinishga kelishib olishadi. Lekin Nelson bu jangda g'alaba qozonishiga juda ishonardi ,shu sababdan u bir hiyla ishlatadi .Ya'ni bayroq ko'tarib chekinishga ishora borishganida admiral Nelson teleskopni ko'rmaydigan ko'ziga tutadi va natija chekinish ishorasini ko'rmaslikka oladi natijada ushbu ibora vujudga keladi.

Feeling under the weather-kasal his qilmoq ,o'zini yomon his qilgan paytda ishlatiladi. „My son was sick yesterday ,and now I'm feeling a bit under the weather .Bu iboraning kelib chiqish dengizchilarga borib taqaladi.Dengizchilar o'zlarini kasal his qilishganida kemanding old bo'lmasiga kelib nafas olishgan .Bu esa ularni kemadagi noxush holatdan qurilishlariga yordam bergan. Ya'ni bu ibora so'zma so'z qilib aytilganda „under the bad weather that could further sicken him",„yomon havo najidasi kasal bo'lmoq"deganidir.Dengizchilar esa o'zlarining kasal bo'lganliklarini esa qisqa qilib ushbu ibora orqali tasvirlashgan,„under the weather ".

An arm and a leg-qimmatga tushmoq.Ushbu ibora tarixi 20-asr boshlariga borib taqaladi .Jahon urushlariga safarbar etilgan askarlar oyoq oyoq qo'llaridan ayrilish holatlari ko'p yuz bergan .Shu boisdan ushbu ibora majoziy ma'noda juda qimmat narsalar uchun ishlatiladi.Example: I want to buy a house by the beach, but it may cost me an arm and a leg.(1:3).

Straight from the horse's mouth -ishonchli manbadan ma'lumot olish ,ya'ni ishonchli odamdan biror narsani bilish deganidir. Aytishlaricha bu ibora 1900-yillarda paydo bo'lgan. Ya'ni o'sha paytdagi ot sotib olmoqchi bo'lgan haridorlar otning yoshini bilish maqsadida uning tishlarining ko'zdan kechirishgan.Example in use: “I don't believe it that she did it. I'm going to go to ask her and hear it straight from the horse's mouth.”

To kill two birds with one stone-bir harakat orqali ikkita ishni bitirmoq .Bu iboraning o'zbek tilidagi muqobil varianti „Bir o'q bilan ikki quyoni urmoq".Example:Cycling to work kills two birds with one stone. It saves money and gives you some exercise. Ushbu ibora birinchi marotaba 1656-yilda Tomas Hobbes tomonidan yozilgan „Chance"asarida ishlatilgan.Yana bir boshqa manbalarda esa Greek mifalogiyasida ishlatilgani aytib o'tilgan .Bunga ko'ra buyuk greek kashfiyotchisi Daydelus qushning qanotlarini kesib olish uchun bir tosh bilan ikkita qushni o'ldiradi. Bu mashhur mifalogik hikoyaning eng qiziq voqeasi keyinchalik sodir bo'ladi.Bunga ko'ra Ikarius bu qushlarning qanotlari yordamida quyoshga uchib bormoqchi bo'ladi.Lekin quyoshning nurlari bu qanotlarini kuydirib yuboradi.

Cheap as chips-juda ham arzon .Ya'ni o'zbek tilidagi „Suv tekin" iborasiga to'g'ri keladi .Example:“We couldn't believe it. We ordered so much food and drink but the final bill was as

cheap as chips!”.Britaniyada chipslar juda oddiy va juda arzon mahsulotlardan biri .Shu sababdan „Suv tekin"arzon demoqchi bo'lsa Britaniyaliklar „cheap as chips"deyishar ekan

The apple my eyes -(yagona, yakka farzandlarga nisbatan ishlatiladi) yakka-yu yagona va qadr qiymati beqiyos yuksak.O‘zbek tilidagi „Ko‘zimning oq-u qorasi "iborasiga mos keladi.Example : Ben always the apple of his mother's eye.Ben onasining yakkayu yolg‘izi,ya'ni ko'zlarining oq-u qorasi.Dastlab bu termin 9-asrda Alfred buyukga tegishli asarning qadimgi ingliz tilidagi tarjimasida ishlatilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak iboralar ingliz tilida ham o'zbek tilida ham muhim ahamiyatga egadir. Iboralarni bir tildan boshqa tilga so‘zma -so‘z tarjima qila olmaymiz. Biz yuqorida aytilganidek ko‘chma ma‘nolaridan foydalanib tarjima qilishmizi kerak ekan.Bu bizga tarjima qilgan iboramizni jo'yali chiqishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.Narzullayeva .M.Ona tili darslarida iboralar va tasviriy vositalardan foydalanish.-Jizzah 2012,
- 2.Narzullayeva.M.Ona tili darslarida iboralar va tasviriy vositalardan foydalanish. Jizzah 2012.
- 3.Elmurodova .S.Ingliz tilidagi iboralar tarixi va ularning o'zbek tilidagi muqobillari.Toshkent 2023.
- 4.zaylobidinovna, r. G. (2023). “ayol” konsepti bilan bog ‘liq ingliz xalqi geortonimlari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali,
- 5.sarvinoz, a., & maftuna, a. (2023). Linguocultural peculiarities of the uzbek geortonym navruz. Ijodkor o'qituvchi.
- 6.toirova, n. (2022). Linguocultural analysis of phraseologicfal units in eastern culture. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 3(5), 75-84
- 7.aliyeva, s. A. Q. (2021). Linguocultural properties of phraseological units. Current research journal of philological sciences, 2(11), 135-140.
- 8.<https://www.britannica.com/list/7-everyday-english-idioms-and-where-they-come-from>.
- 9.<https://polylanguages.edu/cost-an-arm-and-a-leg/>.
- 10.<https://www.britannica.com/list/7-everyday-english-idioms-and-where-they-come-from>.
- 11.<https://writingprompts.com/english-idioms-origins/>.



LINGOPOETIC ISSUES IN CREATING THE IMAGE OF THE SERVANT WOMAN IN ENGLISH LITERATURE

Tursunova Sarvinoz Obidjon kizi

The second year student of master's degree, Fergana state university

Abstract: *Poetic units are considered an important part of modern linguistics. In this article, lingopoetic issues in creating the image of the servant woman in English literature.*

Key words: *linguopoetic analysis, punishment, financial independence, feminism, Victorian novels, syntactic means, general philological level, manifestation, sensational writer.*

It is known that speech has an oral and written form. Oral speech exists only during the time of speaking, and when this process ends, the speech ends. Speech is done quickly and cannot be edited. In oral speech, it is necessary to develop ideas while keeping in mind what was said. In oral speech, usually only the most necessary things are said for communication. On the one hand, it is related to the economy of time, and on the other hand, it is related to saving the power of speech. The main concept of the course of linguopoetic analysis of the text is to evaluate the text as a linguopoetic whole based on the definition of the artistic meaning and artistic content of the artistic text. The linguistic analysis of the literary text should be carried out on the basis of special principles. Poetic actualization in the literary text takes place in its own way in each of the phonographic, lexical, morphological and syntactic means. The nature of the artistic text as a linguistic-aesthetic whole arises due to the existence of integrative relations that have both formal and semantic essence.

The goal of the science of linguopoetic analysis of the text is to raise and strengthen the general philological level of students. To teach students to have an idea of linguistic analysis, to be aware of the layers of linguistic analysis (phonetic, lexical, morphological and syntactic), to teach the language of the artistic works of our classical and modern poets and writers. It is to raise the knowledge of linguistics and literary studies of students to a new scientific and methodological level, to understand the beauty and aesthetic brilliance of the Uzbek language, to improve the culture of speech and to create the ability to interpret the desired artistic text.

The tasks of the science of linguopoetic analysis of the text teach students about the text and its types, the means of connecting the artistic text and its parts, the style of artistic speech and its manifestations, the phonetic-phonological, lexical-grammatical features of the artistic text, migrations and the principles of researching the artistic text. to introduce and test the theoretical knowledge acquired in this course in the analysis of selected texts from artistic works.

Although this work will focus primarily on Charlotte and Emily Bronte's contributions to the sensation novel, Anne Bronte's works have sensational elements as well. For example, Lyn Pykett notes that the latter 'had used many of the ingredients which were later associated with the sensation novel in *The Tenant of Wildfell Hall*, which, like many of Collins' novels, is a complexly layered narrative made up of a variety of texts and voices'. A later article on sensation novels would suggest that women are uniquely suited to such writing: 'A gossiping

letter is generally better written by a woman than by a man, because women observe trivial matters which men pass with indifference; and such novels as resemble gossiping letters on an extended scale, might reasonably be expected from feminine pens. She includes Becky Sharp from Thackeray's *Vanity Fair* in this category as well. Of course, as Sala points out in his 'Cant of Modern Criticism,' many authors, such as Sir Walter Scott, wrote works that were less than 'wholesome' but which are now considered canonical. In another essay, 'On the "Sensational" in Literature and Art,' Sala expands his definition of 'sensational writers' to include Tennyson, Shakespeare, George Eliot, and Dickens, and even cites Ruskin as a sensational critic and Darwin as a 'sensational philosopher'. As previously noted, other progenitors of sensation fiction (and targets of similar criticisms) include Gothic novels and New gate novels. Jane is a servant storyteller in the sense that she was a domestic employee during much of her narrative, but she is writing it retrospectively from her present position as Rochester's wife.

In this research, the images of women have been analyzed in *East Lynne* and *Great Expectations* using stereotypes. The main differences between the novels that have been found are the fate of the dominant women in the novels and how the Victorian ideal is depicted. While women with dominant traits in *Great Expectations* are victims of tragedy which causes them to submit, the dominant women of *East Lynne* usually continue as they are. Barbara is the only exception from *East Lynne* that suffers and afterwards loses her dominant traits, similarly to Estella from *Great Expectations*. Therefore, both novels can be interpreted to suggest that only submissive women are ideal for marriage as Barbara and Biddy are the only characters who are happily married. However, since Isabel's marriage failed despite her being submissive, submissive women equaling happy marriages is not supported in the same degree in *East Lynne* as in *Great Expectations*. In addition, while embodying the ideal as Biddy does in *Great Expectations* leads to happiness, it leads to tragedy for Isabel in *East Lynne*. Therefore, it is possible to argue that the ideal may not be seen as something positive in *East Lynne*. Furthermore, as stated in Biddy's analysis, she is not treated as an equal to Pip because she embodies the ideal, which further amplifies the idea that the Victorian ideal is not ideal for servant women.

REFERENCES:

1. Gaziyeva M. The pragmatics of the prosodic means// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. - 2021. Volume - 7. Issue - 5. May 30. P. 229-234
2. Gaziyeva M. The Scientific Paradigm Of Acoustic Phonetics// Academic Leadership (Online Journal) ISSN: 1533-7812, Vol-21-Issue-05-May-2020, 137-143 page
3. Gaziyeva M. On the Matters of the Phonosyntactics//Anglisticum- International Journal of Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume 7, Issue 5. - Kosovo (Macedonia), 2018



4. Gaziyeva M., Jonridova S. ON THE CONTENT STRUCTURE OF THE TEXT// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. - 2021. Volume - 104. Issue - 12. December 30. P. 487-490
5. Gaziyeva M., Burxanova M. About Innovative Methodology In Mother Tongue Lessons.//International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. - 2021. Volume - 104. Issue - 12. December 30. P. 501-504
6. Aindow, Rosy. 'Fashion and the Art of (Class) Deception.' Dress and Identity in British Literary Culture, 1870-1914. Burlington, VT: Ashgate, 2010. 89-118. Print.
7. Albright, Richard S. Writing the Past, Writing the Future: Time and Narrative in Sensation Fiction. Bethlehem, PA: Lehigh University Press, 2009. Print.
8. Alcott, Louisa May. 'Behind a Mask: or, A Woman's Power.' Behind a Mask: The Unknown Thrillers of Louisa May Alcott. 1866. Ed. Madeleine Stern. New York: William Morrow, 1995. Print.
9. 'How I Went Out to Service.' 1874. Rpt. in Alternative Alcott. Ed. Elaine Showalter. New Brunswick, NJ: Rutgers University Press, 1989. 350-63. Print.
10. Louisa May Alcott: Her Life, Letters, and Journals. Ed. Edna D. Cheney. Boston: Little, Brown, 1914. Print.
11. Altick, Richard D. Deadly Encounters: Two Victorian Sensations. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1986. Print.
12. Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.
13. Khakimov, M. K., & ugli Melikuziev, A. L. (2022). The History of Paralinguistic Researches. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 90-95.

QADRIYAT G'OYASI VA UNING FALSAFADAGI RIVOJI

Xoldorova Iroda Valijonova

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.(PhD), dotsent

Xomidjonova Guli Karimberdi qizi

Magistratura talabasi

Annotatsiya: *So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri- jamiyatdan millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshiriladi. Buyuk islohotlar, ulkan o'zgarishlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki o'z shaxsiy dunyoqarashiga ega bo'lgan, sog'lom fikrlay oladigan yoshlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, intiluvchan, izlanuvchan, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir.*

Kalit so'zlar: *Milliylik, millat, ma'daniyat, falsafa, dunyoqarash, qadriyat, milliy qadriyat, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy boylik.*

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos «Qadriyat» tushunchasi - juda keng tushuncha bo'lib, uning bir qismi - ma'naviy qadriyatlardir. Milliy-ma'naviy qadriyatlar «milliylik», «Ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

«Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlar milliy ma'naviy qadriyatlardir.

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bularasrlar davomida avloddanavlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklarning qadimiy piramidalar bilan, fransuzlar Parijdagi Luvr muzeyi bilan, o'zbeklar Samarqand-u Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

SAYYOHLARI KO'P DIYOR

Vatandoshlari tarqiyot bilan tanishib

Registon maydoni – Samarqand shahrida joylashgan me'moriy majmua. Mag'rib 147-1500-yillar oralig'ida barcha davlatlar mad'rasalari, "Shahrisabz" mad'rasasi va "Taqsim" mad'rasalaridan iborat.

Kalkinor – Kisa shahridagi minora. Qurilish 1855-yilda boshlangan. O'rta Osiyoda eng katta va baland minora qalbi qilib hisoblanadi. Buning 1855-yilda qurilgan uchi esa hali qurilish ishlari to'xtatildi.

Osh – Shahar shahrida joylashgan. Saroy 1300-1400-yillar davrida Amir Temur qurilgan. Saroy o'zining eng baland va chingiz binosidir bo'lgan. Afsuski, hozirda buning ayrim qismlariga saqlanib qolgan.

Murovay Kaban – Buxoro shahrida joylashgan. 117-yilda qurilgan. Balandligi 70 metr. Minora yuzasiga 104 taik aytilgan. Uning o'ngida chiqib, Uning o'ngida, namu saroy to'lganidan xabar berilgan.

1. Nima deb o'ylaysiz, nega odamlar bunday binolarni yasagan? Nima uchun?

2. Siz bu binolarning qay biri ko'rishni istaysiz? Nima uchun?

IBN BATTUTA SAYOHLARI

A) Dunyo tarixidagi eng mashhur sayohatlarim bir Ibn Battuta hodisalaridir. U asarida yashagan bu arabi sayohatining 28 yilni saforatlarida o'tkazgan. U kashfiyot, bog' so'qimchilik, shahar qashibalar va dengiz yo'ri bilan o'ziga 120 ming kilometr masofani bosib o'tgan.

B) Ibn Battuta Arabiston, Misr, Eron, Kichik Osiyo va Qrim orqali Movarounnahrni yashagan. Shing Afg'oniston orqali Hindistonga o'tib, u yerda bir necha yil yashagan. Keyin Indoneziya va Xitoyga safar qilgan.

C) Ibn Battuta "Tayofutulmasir" nomli asari bilan tarixda qolgan. Bu asarida katta davlatlar tarixi, mad'risalari va geografik haqida qimmat ma'lumotlar bor. Asarning Movarounnahr shaharlariga oid ushbu 12 ta davlatlar tarixi o'rganishda muhim ma'lumot beradi.

E) Sayohat 1333-yilda Xorazmga yetib ketadi. U Xorazmni tarixiy ekan, xorazmliklardan ko'ra o'zgarib, mehmonlar ko'li sakari hech yerda uchrayotganini ko'radi. Shuningdek, Xorazm qonuniga shunday ta'rif beradi: "Shahar ham, q'arabida ham Xorazm qonuniga teng bo'ladigan yo'ri. Bu (qonun) yashil fursat, go'z yashil, juda shirin. Bu qonunni ko'z ko'ngil qilib ko'rib, o'zida qurib, savatiga solib, Xorazmni Hindistonga olib borbis o'zida. Barcha sayohatlarim menga ko'ngimni teng keladigan yo'ri".

F) Xorazmni uchi hali fursat, Ibn Battuta Buxoro tomon yo'l o'zida va 18 kunda bu shaharga yetib ketadi. U Buxoroga "musulmon o'zbeklarining eng mashhur shaharlaridan biri" degan ta'rif beradi. Aynan

sayohat boshidagi mo'g'ullar shaharini veyron qilgan, masjid, mad'rasa va bozorlar xarabalar holatiga kelib qolganini yozib, aytib chikadi.

G) Sayohat Buxorodan chiqib, Samarqandga yo'l o'zadi. U Samarqand shahriga ta'rif berarkan, shunday deydi: "Shahar daryo qirg'og'ida joylashgan. Charxapaqlar bog'larini sug'orish uchun daryodan yuzingiz bor chiqarib beradi. Daryo qirg'og'ida shahar uylan saroylar va binolar qad ko'z ko'rib turadiki, ular Samarqand shaharining yuksak mahorati sohibi ekanidan dalolat beradi".

H) Ibn Battuta Samarqanddan Termizga ketadi. Sayohat shaharini "Cheroviy morandaz va bozorlari bo'lgan yirik shahar" deb ta'riflaydi. U bozordan ezoq anbarlar ko'rib o'tib, bog'lar ham juda ko'p. Ayniqse, ularni bilan behni juda shirin", – deb ta'riflaydi.

"Bular anisikopendiyas"dan o'zindi

1. Ibn Battutaning qaysi asari mashhur? Ushbu asarlar haqida yozilgan?

2. Ibn Battuta qaysi mamlakatlarda bo'lgan? Bu davlatlar haqida ma'lumot berilgan?

3. Arab sayohati Xorazm, Buxoro va Samarqand haqida yozilgan, shaharlarning qanday o'ziga xos jihatlariga ko'rsatib?

4. Nima deb o'ylaysiz, tarixda yashagan sayohatchilarning kuzatib qanday? Ular buga nima beradi, nima o'zgaradi?

4. Ma'nodan joyini ifodalaydigan so'zlar va joylarga atab qo'yilgan nomlarni aniqlash, ular ustuniga ajratib yozing.

5. Berilgan birikmani ko'ngil bilan birga o'qing. Aytib-chi, nega har xil so'zlar berilgan? Ushbu gap orqali qanday ma'lumot berilgan?

Ibn Battuta 18 kunda Buxoroga yetib ketdi.			
Ibn Battuta	18 kunda	Buxoroga	yetib ketdi
18 kunda	Buxoroga	yetib ketdi	18 kunda
Buxoroga	yetib ketdi	18 kunda	yetib ketdi
yetib ketdi	18 kunda	yetib ketdi	18 kunda

3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi davomida berilgan bu mavzular davomida o'quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki, vatanparvarlik hissi ham orta boshlaydi.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy g'oyani obyektiv anglashda qadriyatlar va ma'naviyat olamini bilish va uni amaliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Qadriyat turlari

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.
2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar.
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalariva ko'nikmalari, bilimva tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.
4. Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, hayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.
5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'lik bo'lgan qadriyatlar.

Qadriyatlarni xilma-xil shakl va turlarga ajratib o'rganish mumkin:

1. Umuminsoniy
2. Mintaqaviy
3. Milliy
4. Diniy

Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning uzviy bog'liqligi. Milliy ma'naviy qadriyatlar – ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'zifodasini topadi:

1. Milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi.
2. Milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi.
3. Milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtayi nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezoni bo'lib maydonga chiqadi. Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya – jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Shaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

Demak, qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy va ma'naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar jamiyat hayotining sohaları bo'yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar haqiqiy qadriyatlarning namoyon bo'lish vositalaridir (masalan, hayotda kerak bo'ladiganturli buyumlar). Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o'zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun'iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma'naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi qadriyatlardir. Milliy g'oyaga asoslangan qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunday o'ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning milliy g'oya bilan bog'liq qadriyatlar olamini bilishga bog'liq. Hozirgi zamonda ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tubo'zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham anashu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Odamlar ongida milliy g'oyaga asoslangan mustaqillik, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, xalqning milliy ruhini uyg'otish va tiklash jamiyat barqaror rivojlanishining muhimsharti va kafolatidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikkatahdid, barqarorlikshartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida milliy g'oya bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishixususida

batafsil ma'lumotlar bergan. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan.

Qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli sohalarda foydalaniladi. Qadriyatlar to'g'risidagi fan bu aksiologiyadir. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E. Gertman va fransuz olimi P. Lapi tomonidan olib kirilgan. G'arbda bu atama grekcha «qadriyat» va «fan», «ta'limot» tushunchalariga asoslanadi qadriyatni aksiologik nuqtayi-nazardan talqin qilish, uning kategoriya sifatidagi mazmuni, obyektiv asosi va subyektiv jihatlari, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganishga imkon yaratadi.

Qadriyatlar qachonki, insonda qadriyatli ong, qadriyatli munosabat va ustanovkalar shakllantirilgan sharoitdagina, uning faoliyati va xulq-atvorini mo'ljalga olishga imkon beradi. Qadriyatga yo'nalganlik yaxlitlikda shaxsning faoliyat va xulq-atvordagi aniq qadriyatlarga yo'nalganligini aks ettiradi, har bir aniq vaziyatlarda esa shaxs qadriyatli ong va qadriyatli munosabatlarga rahbarlik qiladi. Qadriyatga yo'nalganlik shaxs yo'nalganligining mazmuni tomonini, uning borliqqa munosabatini aks ettiradi. Shu bilan birga, qadriyatli yo'nalganlik subyekt uchun shaxsiy ahamiyatga ega ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqlikda atrof-borliqqa subyektning bahosi sifatida ko'riladi. Qadriyatga yo'nalganlik maqsadni ochib beradi, qiziqish, ehtiyoj, shaxsning e'tiqodini tavsiflovchi idealarni aks ettiradi. Qadriyatli yondashuv qiyosiy jihatdan avtonom (alohida)dir, sababi qadriyatlar haqidagi tasavvur dunyoqarashlarga tayanadi. Biroq, shakllangandan so'ng, ular o'z ta'sirini ko'rsatadi: qiziqish, ehtiyoj, faoliyat maqsadi, shaxs hayotiy faoliyati va ijtimoiy tuzilmalarning har tomonlama rivojlanishi. Ushbu mexanizm jamiyat hayoti va ta'limning ijtimoiy fenomen sifatida insonparvarlashishini shart qilib qo'yadi. Qadriyatli yondashuvda faqatgina shaxsning tajribasigagina emas, balki birinchi navbatda, odamzot tomonidan to'plangan tarixiy tajribalarga suyaniladi. Bu esa, ma'lum bir me'yor va mezonlar tizimi bo'lib, har bir shaxs foydalanishi mumkin bo'lgan madaniy faoliyat chegaralarini belgilab beradi. Qadriyatli yondashuvlar axloqiy ideallarda o'z aksini topadi, bular esa shaxs faoliyatida maqsadli ravishda oliy ko'rinish paydo qiladi. Ideallar o'zida belgilangan maqsadlarni namoyish etib, bu dunyoqarashlar tizimining oliy qadriyatidir. Ular ko'p pog'onali haqiqatni ideallashtirish jarayonini nihoyasiga yetkazadi. Qadriyatli yondashuvlarni axloqiy ideallar sifatida tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik o'rtasidagi ziddiyatni rivojlantiradi. Yuzaga kelgan ziddiyatda o'z navbatida, biri boshqasining o'rniga qurbon bo'ladi. Biroq insonparvar kishi axloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi. Axloqiy ideallar, o'z navbatida, shaxs rivojlanish darajasini yutuqlarini shartlaydiki, bu esa aynan insonparvar kishining o'zligiga to'g'ri keladi. Ular insonparvarlik qadriyatlarining birligini o'zida aks ettiradi, aynan, jamiyat rivojlanishi ehtiyojining rivojlanayotgan shaxs ehtiyojlariga mos kelishidadir. Ularda shaxsning va jamiyatning ilg'or qiziqishlari birligi uyg'un ravishda namoyon bo'ladi, sababi ular birgalikda insonparvarlik dunyoqarashining ijtimoiy funksiyasini namoyon etishadi. Axloqiy ideallar butun umrga aniq bir etalon sifatida berib qo'yilmagan.

Ular takomillashadi, namuna sifatida rivojlanadi, shaxs rivojlanishi istiqbollari aniq qadriyatli. Rivojlanish insonparvar axloqiy ideallar sifatida xarakterlanib namoyon bo'ladi, shuning uchun

ham ular shaxs takomillashishi motivi sifatida namoyon bo'lishadi. Ideallarni tarixiy davr va avlod bog'lab turadi, eng yaxshi insonparvarlik an'analarini vorislik bilan egallab olinadi va birinchi navbatda bu ta'lim orqali amalga oshadi. Axloqiy ideallar shaxs motivatsion-qadriyatli munosabatining oliy mezon sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni jamiyat oldidagi burchi, ma'suliyatini anglab etishi bilan tavsiflanadi. Shaxs munosabati insonning atrof-muhitdagi narsa-hodisa va boshqa insonlar obyektiv aloqasiga yo'naltiradi va shaxsning subyektiv pozitsiyasini u yoki bu subyektga nisbatan nisbiy, shu bilan birga uning ahamiyatligini baholaydi. Shu ma'noda "munosabat" bir vaqtning o'zida ikki holatda namoyon bo'ladi: protsessual tavsif sifatida (baholash aktini qo'shadi) va barqaror shaxs ta'limi, bu esa shaxsni insonparvarlik qadriyatlarini (qadriyatli yondashuv) tashuvchisi sifatida namoyon qiladi. Shaxs bu holda borliq haqiqati bilan aloqador faol faoliyat ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'ladi, u tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan va uning asosida o'zining rivojlanadigan faoliyati tabiatini yo'naltiruvchisidir. Munosabatlar muhit va shaxsning o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi va mazmun jihatdan shaxs yo'nalganligini aniqlaydi, subyektivlikning asosiy fenomeni (qarashlar, motiv, ehtiyoj, baholash, hissiyot, ko'nikish, qadriyatli munosabat)ni o'zaro bog'laydi va muvofiqlashtiradi. Biroq, shaxs munosabatlarida uning faqatgina subyektivligi emas, balki obyektiv berilgan mazmun ham aks etadi, sababi unda obyektiv maqsadlar taqdim etiladi. Shaxs munosabatlarining obyektiv lahzalari sifatida uning ijtimoiy mavqei yuzaga chiqadi, u esa o'zida aloqalarning majmuaviylikini namoyon etadi, bular esa shaxslararo munosabatlarning referent tizimida va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatda yuzaga keladi. Shaxs munosabati mazmuni motivlarning objekti va predmeti (qadriyatlari) bo'la oladi, ular esa uning ongida o'ziga xos ijtimoiy mavqeda namoyon bo'ladi. Jamiyat me'yor, talab, ideal, madaniy qadriyatlar shaxs tomonidan yakka va tanlangan holda qabul qilinadi va o'zlashtiriladi. Shaxs qadriyatli munosabati shuning uchun ham har doim ham jamiyat tomonidan qabul qilingan va e'tirof etiladigan qadriyatlarga mos kelmaydi. Jamiyat qadriyatlari qachon stimuly va faoliyat ko'rsatishga uyg'otuvchi kuch bo'ladi, qachonki, inson tomonidan ongli ravishda qabul qilinsa va o'zlashtirilsa hamda uning shaxsiy qadriyati, da'vati, ideali, maqsadiga mos kelsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi insonparvarlik qadriyatlari tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi, u esa o'zida insonparvarlik madaniyati asoslarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalasi o'zida katta ijtimoiy ahamiyatni ifoda etadi. Uning muvaffaqiyatli echimi ko'p hollarda ta'limning insonparvarlashishiga bog'liqdir. Uning mazmuni shundan iboratki, shaxs tomonidan ongli ravishda madaniy qadriyatlar tanlovini ta'minlash va uning negizida mustaxkam, inkor etmaydigan, insonparvar qadriyatli munosabatlar individual tizimini shakllantirishdir. Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori mo'ljalgaga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining konseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, imperativ xulq-atvor - me'yor sifatida, qadriyatli munosabat - u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday ko'rinishda dunyoni bilish

aksi va qadriyatli munosabat ma'naviy boshqarilishi ham yo'naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi.

Shuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko'rilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga uyg'otishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib etishi xali kamdir. Qadriyat faoliyat motivini uyg'otuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizatsiyalansa, ichki mavjudlikni zarur lahzalarini taqdim etsa, inson o'z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma'nosini ko'ra olsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, to'g'ri va o'z vaqtidagi nazorat, o'z xatti-harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyinteriyoki bu qadriyat qachonki tashkillashtirilgan obyekt tanlash va sharoit yaratish, maqsadli faoliyat amalga oshirilsa va u esa shaxs tomonidan baholash va o'zlashtirish zaruriyatini uyg'otsagina, shaxs ehtiyoj obyektiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: «O'zbekiston», 1998. - 48 bet.
 2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: «Sharq matbaa-nashriyoti konserni», 1997. -20-29 betlar.
 3. Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” nomli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent, 2017
 4. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, 2017
 5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent “Ma'naviyat”. 2008 y 173 bet.
 - II. Ilmiy, ilmiy-metodik, badiiy- publisistik adabiyotlar.
 6. Al-Buxoriy, abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil, Al-adab-al Mufrad (Adab durdonalari): Tarjima, muqad va izohlar muallif Sh.Boboxonov-T.: «O'zbekiston»,1990. -199 bet.
 7. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y. 163 bet.
 8. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta'lim nazariyasi) Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet
 9. Avloniy A.Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: «O'qituvchi» 1992. -160 bet.
 10. Barkamol avlod - Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh. 1998, 7-bet
 11. Falsafa. Qomusiy lug'at. -T.: «Sharq», 2004. -467 bet.
 12. HasanboyevJ., To'raqulovX.A.,Haydarov M. Hasanboyeva O., Usmonov N. “Pedagogika fanidan izohli lug'at” T.: “Fan va texnologiya”. 2009 yil.
- Isomiddinova M. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda pedagogning faoliyati va o'рни. Samarqand davlat chet tililar instituti.

INGLIZ TILIDA MEHNAT BILAN BOG 'LIQ BAYRAM NOMLARI

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrası
tayanch doktoranti. Ingliz tili va adabiyot kafedrası.*

Mahmudova Barnoxon Karimberdi qizi

Xorijiy til va adabiyot yo 'nalishi 20.117B guruh talabasi

Annotatsiya: *Britaniyaliklar uchun bayram, birinchi navbatda, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega. Ular an'analariga amal qilishadi va ko'pincha muhim sanalarning afsonaviy o'tmishiga ishonishadi. Angliyada bayramlarni shartli ravishda ajratish mumkin: milliy, rasmiy va norasmiy. Angliyada bahor nishonlanadi: 26 mart - Onalar kuni Shu kuni buvilaringizga va onangizga sovg'alar, gullar yoki yangi tuxumlar berish, shuningdek, uy ishlarida yordam berish odat tusiga kiradi*

Kalit so'zlar : *milliy ,an'anaviy, diniy,bayram, sovg'alar, sayohat, bank bayramlari, raqs, taniqli ,mashhur.*

Britaniyaliklar har yili o'zlarining milliy, an'anaviy va diniy bayramlarini nishonlaydilar. Ularning aksariyati ancha eski, muhim va taniqli. Buyuk Britaniyadagi bayramlarning aksariyati bank bayramlari deb nomlanadi, chunki bu kunlarda banklar yopiq. Ular: Yangi yil kuni, Yaxshi juma, Pasxa dushanbasi, Shrove seshanbasi (yoki pancake kuni), may kuni, bahor bank bayrami (mayda), yozgi bank bayrami (avgustda), Rojdestvo kuni (25 dekabr) va Boks kuni (26 dekabr Rojdestvo sovg'alarini almashish kuni). Aslida, Shotlandiyada ular Pasxa dushanbasini nishonlamaydilar. 1-may kuni odamlar yovuz ruhlardan qutulish uchun oq ro'mollarini silkitib, kun bo'yi raqsga tushishadi. Bahor va yozgi bank bayramlari Buyuk Britaniyada haqiqatan ham mashhur. Britaniyaliklar mamlakatga yoki dengiz qirg'og'iga qisqa muddatli sayohatlar qiladi va o'z oilalari va do'stlari bilan ko'p vaqt o'tkazishadi. Bundan tashqari, ba'zi milliy bayramlar mavjud, ular mahalliy, alohida joylarda nishonlanadi. Masalan, Shotlandiya xalqida Xogmanay (yoki Yangi yil kechasi - 31 dekabr), Berns kechasi (25 yanvar) va Sankt-Peterburg bayramlari bor. Endryu kuni (30-noyabr). Shimoliy Irlandiyaliklar apelsinchilar kunini (12 iyul) va Sankt-Peterburgni nishonlaydilar. Patrik kuni (17 mart). Angliyada milliy bayram - St. Jorj kuni (23 aprel) va Uelsda - St. Dovud kuni (1-mart). Shimoliy Irlandiya xalqi Orangemenlar kunini 1690-yildagi Boyn jangini xotirlash uchun paradlar va marshlar bilan nishonlaydi. Berns kechasi dunyoga mashhur shoir Robert Bernsning hayoti va ijodi hamda uning Shotlandiya madaniyatiga qo'shgan hissasini nishonlaydi.

Britaniyaliklar ham Sankt-Peterburgni nishonlaydilar. Sevishganlar kuni, Xellouin, Gay Foks kechasi (yoki gulxan kechasi), Xotira yakshanbasi (noyabrda), onalar yakshanbasi (martda), Otalar yakshanbasi (iyun) va ahmoq kuni. 5-noyabr oqshomida (Gay Foks kechasi) britaniyaliklar 1605-yilda parlament uyini vayron qilishga uringan Gay Foksning qo'g'irchog'ini yoqib yuborishadi. Qo'g'irchoq somon va eski kiyimlardan yasalgan va gulxanga qo'yilgan. Xotira kunida (yoki sulh kuni) odamlar ikki jahon urushida halok bo'lgan barcha britaniyalik askarlarni xotirlash uchun cho'ntaklariga qizil ko'knori kiyishadi. Tarjima Britaniya xalqi har yili

milliy, an'anaviy va diniy bayramlarni nishonlaydi. Ularning aksariyati juda qadimgi, muhim va taniqli. Buyuk Britaniyadagi aksariyat davlat bayramlari bank bayramlari deb nomlanadi, chunki bu kunlarda banklar yopiq. Bular: Yangi yil kuni, yaxshi juma, Pasxa dushanbasi, Shrove seshanbasi (yoki pancake kuni), may kuni, bahor bayrami (may oyida), yozgi bank bayrami (avgustda), Rojdestvo kuni (25 dekabr) va boks kuni (26 dekabr - sovg'alar almashinuvi kuni). Aytgancha, Shotlandiyada ular Pasxa dushanba kunini nishonlamaydilar. Birinchi May kuni odamlar kun bo'yi raqsga tushishadi, oq ro'molchalarni silkitib, yovuz ruhlardan qo'rqishadi. Bahor va yozgi bank ta'tillari Buyuk Britaniyada juda mashhur. Inglizlar tabiat qo'yniga yoki dengiz qirg'og'iga borib, oila va do'stlar bilan dam olishadi.... Qolaversa, milliy bayramlar ham borki, ular faqat joylarda, ma'lum joylarda nishonlanadi. Masalan, shotlandlar Xogmanay (Yangi yil kechasi, 31 dekabr), Berns kechasi (25 yanvar) va Sankt-Peterburgni nishonlashadi. Endryu (30-noyabr). Shimoliy Irlandiyaliklar protestantlar kunini (12 iyul) va Sankt-Peterburgni nishonlaydilar. Patrik (17 mart). Angliyada milliy bayram - St. Jorj (23 aprel) va Uels - St. Dovud (1 mart). Shimoliy Irlandiya xalqi Protestantlar kunini 1690-yildagi Boyn jangini xotirlash uchun parad va marshlar bilan nishonlaydi. Berns kechasi dunyoga mashhur shoir Robert Bernsning hayoti va ijodi hamda uning Shotlandiya madaniyatiga qo'shgan hissasini nishonlaydi. Britaniyaliklar ham Sankt-Peterburgni nishonlaydilar. Valentin, Xellouin, Gay Foks kechasi (yoki gulxan kechasi), Xotira yakshanbasi (noyabr), Onalar yakshanbasi (mart), Otalar yakshanbasi (iyun) va aprel ahmoqlari kuni. 5-noyabr oqshomida (Guy Foks kechasi) inglizlar 1605-yilda parlament uyini vayron qilishga uringan Gay Foksning haykaliga o't qo'yishdi. Bu tasvir somon va eski kiyimlardan tayyorlanadi va olovga qo'yiladi. Xotira kunida (yoki sulh kuni) odamlar ikki jahon urushida halok bo'lgan barcha britaniyalik askarlarning xotirasi uchun cho'ntaklarida qizil ko'knori ko'tarib yurishadi. bahor bayramlari Britaniyaliklar uchun bayram, birinchi navbatda, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega. Ular an'analarga amal qilishadi va ko'pincha muhim sanalarning afsonaviy o'tmishiga ishonishadi. Angliyada bayramlarni shartli ravishda ajratish mumkin: milliy, rasmiy va norasmiy. Angliyada bahor nishonlanadi: 26 mart - Onalar kuni Shu kuni buvilaringizga va onangizga sovg'alar, gullar yoki yangi tuxumlar berish, shuningdek, uy ishlarida yordam berish odat tusiga kiradi. 1-aprel ahmoqlar kuni Shu kuni britaniyaliklar hajviy liboslarda kiyinib, tanishlari, do'stlari yoki o'tkinchilarga nayrang o'ynashadi. 23 aprel - Avliyo Georgiy kuni Bayramning tarixi o'rta asrlarga borib taqaladi. Jasur va jasur Jorj ingliz aholisini yo'q qiladigan dahshatli ajdahoni o'ldirganida. Shu kuni Angliyada ular "Avliyo Xoch" deb nomlanuvchi bayroqni ko'taradilar. Jorj" va inglizlar qizil atirgul bilan yurishadi - mamlakat gerbi. Bayramda an'anaviy ingliz taomlari tayyorlanadi: qovurilgan mol go'shti, puding, xamirda kolbasa. Ovqat quvnoq musiq va sho'x qo'shiqlar bilan birga keladi. Muborak Juma Pasxa (Pasxa) yoki Muqaddas yakshanba (Pasxa kuni).

Bayram sanasi har yili o'zgarib turadi. Bu oy va quyosh taqvimlarining nisbatiga bog'liq. Pasxa barcha xristianlar uchun diniy bayramdir. Bu kechki xizmat bilan boshlanadi, keyin an'anaviy ravishda Buyuk Lentning tugashi bilan tabriklanadi va bayram bilan tugaydi. 12 havoriyning ramzi bo'lgan marzipanlar bilan bezatilgan pirog (Pasxa Simnel keki) bo'lgan asosiy taom. Shokoladli Pasxa tuxumlari bayramning yana bir atributidir. Inglizlar ularni bir-birlariga farovonlik belgisi sifatida berishadi. va mashhur Easter Bunny mo'l-ko'llik va unumdorlikni

anglatadi. 21 aprel - Qirolchanning tug'ilgan kuni (qirolchanning tug'ilgan kuni) Britaniyaliklar o'z qirolchalarini yaxshi ko'radilar va uning kunini butun mamlakat bo'ylab nishonlaydilar, ammo bu rasmiy bayram emas. Rasmiy bayram iyun oyining 2-shanbasiga to'g'ri keladi - bu Qirolcha / Qirolning rasmiy tug'ilgan kuni. Bu 1948 yildan beri nishonlanadi. Shu kuni qo'shinlarning katta paradi bo'lib o'tadi va bayram katta to'p bilan yakunlanadi. olijanob odamlar yig'iladi. 1-maydan 4-maygacha - Bahor kuni (1-may) May oyining birinchi kunlarida har bir qiz go'zal bo'lish uchun o'zini ertalabki shudring bilan yuvishga harakat qiladi. Yoshlar esa kamondan otish bilan shug'ullanadilar, bu ularning kuchi va jasorati bilan ajralib turadi. Bayram raqs va qo'shiqlar bilan o'tadi. Shaharlarda uylar gullar bilan bezatilgan va libosli yurishlar o'tkaziladi. Ushbu bayram Angliya milliy qahramoni - Robin Gud bilan bog'liq.

Angliyada yozgi ta'tillar ayniqsa odamlar tomonidan seviladi va hurmat qilinadi. Avgust oyining oxirgi dushanbasida nishonlanadigan avgust bank bayrami va avgust oyining oxirgi yakshanbasida nishonlanadigan Notting Hill karnavali alohida e'tiborga loyiqdir. Avgust kuni odatda tabiatda oila davrasida o'tkaziladi. Karnaval ikki kun davom etadigan ko'cha festivalidir. Inglizlar chiroyli kiyimlarini kiyib, yarmarkaga boradilar. O'yin-kulgi, musiqa va turli tanlovlar mavjud. kuzgi bayramlar Vaqt o'tishi bilan ko'plab bayramlar eskirgan va ularning tarixi tubdan o'zgargan bo'lsa-da, ammo shunga qaramay, ulug'vor Angliyaning ruhi saqlanib qoldi. Angliyadagi ta'tillar afsonalar bilan qoplangan va eng qizig'i, inglizlar ularga ishonishadi, garchi ular umuman ishonarli bo'lmasa ham. 31 oktyabr - Xellou bayrami (Hallows oqshomi) Bayramni barcha inglizlar juda yaxshi ko'radilar. Kecha ular ishonganidek, ruhlari, jodugarlar va turli yovuz ruhlari bizning dunyomizga qurbon izlab kelishadi. Qadim zamonlarda ular bu kunda ko'chaga chiqmagan va barcha deraza va eshiklarni qulflagan. Va uying ostonasida ular o'lik ruhlarga sovg'a sifatida bir tovoq meva olib kelishdi. Endi bu ko'proq shovqinli karnaval ijrosi. Ramz yovuz ruhlarni qo'rqitish uchun derazaga qo'yilgan qovoqdan yasalgan Jek chiroq yoki Jek-o'-fanarning yorqin boshi hisoblanadi. Va jodugarlar va ruhlarning liboslarini kiyib, bolalar va kattalar uyma-uy yurib, shirinliklar so'rashadi.

5 noyabr - Gay Foks kuni Bayramning ildizlari 1605 yilga borib taqaladi. Shu kuni mavjud hukumatdan norozi bo'lgan Gay Foks boshchiligidagi katoliklar to'dasi qirol Jeyms Ini portlatmoqchi bo'ldi. Ammo fitnachilardan biri parlamentda bo'lishi kerak bo'lgan do'sti Lord Monteaglni ogohlantirdi. portlash. Natijada, fitna fosh bo'ldi va qaroqchilar qo'lga olindi. Ushbu bayram arafasida bolalar eski kiyimlar va somondan to'ldirilgan Guy Foks yasaydilar. Ular uni ko'chalarda olib yurishib, pulga sotishadi va: "Yigit uchun tiyin!" Kechqurun esa haykal katta olovda yoqib yuboriladi. Ko'pchilik hovlida to'plangan axlatni ham kuydiradi - kuz bilan xayrlashish uchun. Hammasi otashinlar va qiziqarli qo'shiqlar bilan tugaydi. Qishki ta'tillar Angliyadagi bayramlar tarixi avloddan-avlodga o'tadi. Britaniyaliklar o'z madaniyatini hurmat qilishadi va an'analariga rioya qilishadi. Kattalar ham, kichik bolalar ham barcha bayramlarda bevosita ishtirok etib, ko'plab his-tuyg'ularni va yaxshi kayfiyatni olishadi. 1 dekabrda 24 dekabrgacha - Rojdestvoga tayyorgarlik (Advent) U quvnoq, uy yumushlari bilan mashhur. Ushbu tayyorgarlikning asosiy an'anasi 5 ta sham bilan gulchambar to'qishdir. Namoz paytida har yakshanba kuni uyda navbatma-navbat to'rtta qizil sham yoqiladi. Oq sham - Rojdestvo oldidan kechqurun. Bu Iso Masihning kelishini anglatadi

24-25 dekabr - Katoliklarning Rojdestvo bayrami yoki Rojdestvo arafasi Rojdestvo va Santa Klausning kelishi nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham kutmoqda. Angliyada sovg'alarni paypoqqa solib qo'yish odat tusiga kiradi. Afsonaga ko'ra: Buyuk Qorbobo uyga mo'ridan tushib, kamin ustida eshkaklangan va quritilgan paypoqqa bir oz tanga tashladi. Va ertalab bolalar tangalarni topdilar va ulardan juda xursand bo'lishdi. Bu an'ananing davomi bo'lib xizmat qildi. Bayram arafasida bolalar Qorboboga ezgu tilaklar bilan xat yozadilar va ularni olovga tashlaydilar. Uylar novdalar va rezavorlar bilan bezatilgan. Mistletoe - omad ramzi. Omela novdasi ostida uchrashgan erkak va ayol, albatta, o'pishlari kerak. Archani bezash odati Germaniyadan keladi. Nemislarni nasroniylikka qabul qilgan avliyo Boniface mamlakat bo'ylab sayohat qilib, butparastlar bolani eman daraxtiga qurbon qilmoqchi bo'lganlarini ko'rdi. Uning jahli chiqib, bir belanchak bilan daraxtni kesib tashladi, uning o'rnida archa o'sdi. Bu belgi ekanligiga qaror qilib, ular Rojdestvo uchun archa olib kelishni boshladilar. Angliyada bu an'ana 1841 yilda shahzoda Albert tomonidan kiritilgan. U Vindzor qasrida xotini va bolalari uchun Rojdestvo archasini bezashni buyurdi. Dastlab, u shamlar va uydagi har qanday narsalar bilan bezatilgan. Va keyin ular gulchambarlar va rangli o'yinchoqlarni ixtiro qildilar. Shu kuni bolalar Rojdestvo daraxti yonida Santa Klaus uchun go'shtli pirog va konyak, kiyik uchun sabzi qoldiradilar. Bayramona kechki ovqat uchun Rojdestvo krakerlari o'rtada kutilmagan sovg'a bilan xizmat qiladi. Odatda u erda qog'oz toj, o'yinchoq yoki bayram hazillari yashiringan. Sovg'alar odatda erta tongda butun oila bilan ochiladi. Stolda har doim kurka, tushlik uchun esa - mashhur Rojdestvo ingliz pudingi beriladi.

26 dekabr - Boks kuni Muqaddas shahid Stiven sharafiga shu kuni cherkovlarda xayr-ehson qutilarini ochish va ularni kambag'al va muhtojlarga tarqatish odatiy holdir. Uzoq o'tmishda, bayram paytida, hatto xizmatkorlarga ham o'z oilalari bilan birga bo'lish uchun uyga borishga ruxsat berilgan. Bu Rojdestvoning davomi va bayramdan keyin dam olish uchun yana bir sababga o'xshaydi. 31 dekabr - 1 yanvar Yangi yil Yangi yilni nishonlayotgan britaniyaliklar bayramlar va qo'shiqlar bilan shovqinli kechalarni o'tkazishni yaxshi ko'radilar. Yarim tundan bir necha daqiqa oldin oila boshlig'i yoki qora sochli mehmon uydan orqa eshikdan chiqib ketadigan an'ana bor. U o'zi bilan bir bo'lak ko'mir, bir bo'lak non va kichik o'ramga o'ralgan tangani oladi. Shunday qilib, u "eski yil" ni olib tashlab, "yangi" ni olib keladi. Yilning farovon boshlanishining xabarchisi, albatta, qora sochli va hech qanday holatda adolatli bo'lishi kerak, chunki yorqin odam omadsizlik keltiradi, deb ishoniladi. Yangi yil boshlanganidan so'ng, eshikni baland ovoz bilan yopib, bir kishi kiradi. Shu bilan birga, butun oila uni kulgi, tabriklar, hayqiriqlar va o'pishlar bilan kutib oladi. O'tgan yilgi to'plam tashlanadi, yangisi esa yil oxirigacha saqlanadi. Bu kelgusi yil davomida uyda issiqlik, oziq-ovqat va farovonlikni anglatadi. 14 fevral - Sevishganlar kuni Bayram romantika, sevgi, yaxshi tilaklar va his-tuyg'ularga to'la. Ushbu kunda berish odatiy holdir: gullar, shirinliklar va kichik otkritkalar - valentinlar. Rivoyatlarda aytilishicha, Rim imperatori Klavdiy II davrida armiya ruhiyatiga putur yetkazmaslik uchun nikoh va turmush qurishni taqiqlovchi farmon chiqarilgan. Va ruhoniylar shifokor Valentin, sevishganlarga hamdard bo'lib, ularga yashirincha turmushga chiqdi, buning uchun u 14 fevral kuni qatl qilindi. Ushbu bayram uning sharafiga nishonlandi.

Barcha millatlarning o'ziga xos milliy bayramlari, o'z madaniyatiga xos an'ana va urf-odatlar bor. Bayram tadbirlari har bir mamlakat aholisi tomonidan yaxshi ko'riladi, ular ularga

tayyorgarlik ko'radilar, ularni intiqlik bilan kutadilar, ularni zavq bilan nishonlaydilar va keyingi yilgacha afsus bilan ajralib turadilar. Ingliz bayramlari ingliz tilida so'zlashuvchi dunyo madaniyatining ajralmas qismi, o'zini ifoda etish usuli, odatlar va xatti-harakatlarning manbai. Ko'pincha, ma'lum bir mamlakat aholisining ruhi va xarakterini tushunish uchun ularning urf-odatlarini va an'analari bilan tanishish kerak. Keling, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar aholisi tomonidan nishonlanadigan eng mashhur bayramlarni ko'rib chiqaylik. Angliyada dam olish kunlari Yangi yil, 1 yanvar. Inglizlar tomonidan doimo hurmat qilinadigan ushbu qish bayramining eng muhim odati birinchi mehmonning an'anasidir. Agar qora sochli odam yarim tundan keyin uyga kirsam, kelgusi yil bu oila uchun muvaffaqiyatli bo'ladi. Mehmon o'zi bilan ko'mir olib kelishi va hech qanday so'z aytmadan, kaminaga tashlashi kerak va shundan keyingina mezbonlarni tabriklashi kerak. Bu odat uyda tinchlik va farovonlik hukmronlik qilishini anglatadi. Butun qudrati bilan nishonlanadigan inglizlarning sevimli bayramlaridan biri. Sovg'alarining yashirin taqdimoti, lotlar yordamida juftlik qilish, shirinliklar va yumshoq o'yinchoqlar almashinuvi - barcha sevishganlarning bu kuni kutilmagan hodisalardan iborat. Va, albatta, yuraklarning xilma-xilligi. Onalar kuni, 22-mart. Bizning 8 mart kunimizning analogi. Bu bayram o'z ildizlarini Viktoriya davridan oladi, o'shanda bolalar yoshligidanoq uydun uzoqda bo'lib, mashaqqatli mehnat bilan pul topishlari kerak edi. Va ular yiliga faqat bir kunni oilasi bilan o'tkazishlari mumkin edi. Endi bu Angliyada bayram bo'lib, bolalar onalariga gullar va ta'sirchan sovg'alar berishadi. Valpurgis kechasi, 30 aprel. Jodugarlarning shanbasi yoki unumdorlik festivali. Afsonaga ko'ra, bu vaqtda barcha jodugarlar yig'iladi va elflar mamlakatiga eshiklar ochiladi. Angliya ko'chalari barcha yoshdagi jodugarlar bilan to'lib-toshgan - albatta, haqiqiy emas, balki karnaval liboslarida shahar aholisi. Bu bayram ham yozning yaqinlashib kelayotganini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: «O'zbekiston», 1998. - 48 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: «Sharq matbaa-nashriyoti konserni», 1997. -20-29 betlar.
3. Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” nomli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent, 2017
4. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent, 2017
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent “Ma'naviyat”. 2008 y 173 bet.
- II. Ilmiy, ilmiy-metodik, badiiy- publisistik adabiyotlar.
6. Al-Buxoriy, abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil, Al-adab-al Mufrad (Adab durdonalari): Tarjima, muqad va izohlar muallif Sh.Boboxonov-T.: «O'zbekiston»,1990. -199 bet.



7. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y. 163 bet.
 8. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta'lim nazariyasi) Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet
 9. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: «O'qituvchi» 1992. -160 bet.
 10. Barkamol avlod - Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh. 1998, 7-bet
 11. Falsafa. Qomusiy lug'at. -T.: «Sharq», 2004. -467 bet.
 12. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Haydarov M. Hasanboyeva O., Usmonov N. "Pedagogika fanidan izohli lug'at" T.: "Fan va texnologiya". 2009 yil.
- Isomiddinova M. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda pedagogning faoliyati va o'rni. Samarqand davlat chet tililar instituti.

ҲУҚУҚИЙ ТАРҒИБОТ

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 313-гуруҳ курсанти

Умурзоқова Хусния Абдурашид қизи

Бугунги кунда тез суратларда ривожланиб бораётган давлатимизда фақатгина ижтимоий иқтисодий соҳалар ривожлантирилиб қолмай фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини янада оширишга, қонунийликни мустаҳкамлашга қаратилган кенг кўламли ҳуқуқий тарғибот

ва маънавий-маърифий тадбирлар тизимли равишда амалга ошириб келинмоқда. Шунингдек, давлат ва ҳуқуқ масалалари уларни амалга оширишдаги муаммолар бу борада ҳали қилиниши лозим бўлган ишлар кўплигини кўрсатиб олдимизга аниқ мақсадга йўналтирилган тадбирларни амалга оширишимизни талаб этади.

Давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёевнинг Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишида, ижтимоий-маънавий муҳитни илмий асосда таҳлил қилишни даврнинг ўзи талаб этаётганлигини, жамиятимизда маънавий-маърифий ишлар етарли даражада йўлга қўйилмаганлини учун ҳам қутилган натижани бермаётганлигини таъкидлаб ўтди.

Мамлакатимизнинг бугунги кундаги ривожланиш тамойиллари ҳақида аниқ мақсадга қаратилган тарғибот ишларини мунтазам равишда олиб бориш, аҳолининг кенг қатламлари, авваламбор ёшлар ҳамда уюшмаган ёшлар ўртасида Ватанга муҳаббат ва садоқат, инсонпарварлик фазилатларини тарбиялаш, миллий урф-одат, анъана ва қадриятларга хурмат муносабатини шакиллантириш уларнинг ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамиятини ҳар томонлама очиб беришга йўналтирилган суҳбат ва учрашувлар, манавий-маърифий тадбирлар ўтказиш тарғибот ишларини миллий ва умумбашарий қадриятлар уйғунлиги ва замонавий билимларга таянган ҳолда ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Бу ишларни амалга ошириш мақсадида қатор соҳаларда тарғибот ва ташвиқот ишлари олиб борилмоқда.

Жумладан: Ҳуқуқий тарғибот бўйича бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан амалга оширилаётган ишлар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ўтган давр мобайнида 520 минга яқин ҳуқуқий тарғибот тадбирлари ўтказилган, барча аҳоли қатламларини бепул ҳуқуқий маслаҳат билан таъминлашни назарда тутувчи 5 та ҳуқуқий портал (advice.uz, huquqiportal.uz, bolahuquqlari.uz, test.adliya.uz, hudud24.uz) ишлаб чиқилган. Шунинг алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки Адлия вазирлиги томонидан аёлларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олиш мақсадида “Гендер-мадад” ҳуқуқий маслаҳат портали ишлаб чиқилганлиги юртимиздаги хотин қизларимизнинг ҳуқуқ ва манфаатларини химоя қилишга доир муҳим ишлардан бири бўлди десак муболаға бўлмайди.

Ҳуқуқий тарғиботни амалга оширишнинг усул ва услубларини ҳамда механизмларини бугунги кун талабларидан келиб чиққан ҳолда такомиллаштириш

талаб этилмоқда. Шу асосида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5618-сон Фармонида белгиланган “Юксак ҳуқуқий маданият — мамлакат тараққиёти кафолати” деган концептуал ғоя асосида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 29 август 466-I-сон қарори билан тасдиқланган “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури”ни тараққий этган хорижий давлатлар тажрибасидан ўрганган ҳолда қайта кўриб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тўғрисида”ги Қонун ва бир қатор нарматив ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилинаётганлиги юртимизда ҳуқуқий маданиятни оширишга доир ишлар қай тарзда амалга оширилаётганидан далолат беради.

Шу ўринда, «тарғибот», «ташвиқот», «ҳуқуқий тарғибот», «қонунчилик тарғиботи» тушунчаларига ойдинлик киритиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. «Тарғибот» сўзининг ўзаги «тарғиб» бўлиб, ўзбек тилининг изоҳли луғатида «тарғиб» хоҳишни, қизиқишни кучайтириш, шунингдек тарғиб қилмоқ – чуқур тушунтириш йўли билан бирор ғоя, таълимот ва шу кабиларни ёймоқ, кишиларнинг онгига сингдирмоқ, шунингдек тушунтириш йўли билан бирор ишга чақирмоқ, даъват этмоқ маъноларини англатса, «тарғибот» эса бирор ғоя, таълимот ва шу кабиларни ёйишга, кишилар онгига сингдиришга қаратилган ишлар, тарғиб ишлари маъносини англатади. Мазкур изоҳли луғатда «ташвиқ» сўзига «қизиқиш, хоҳишни кучайтириш. Бирор нарсага йўллаш, йўналтириш, чақириниш мақсадидаги гап-сўз, хатти-ҳаракат ва шу кабилар» деб, «ташвиқот»га эса «оммага сиёсий ёки бошқа жиҳатдан таъсир кўрсатиш мақсадида ёзма ва оғзаки равишда қилинадиган ишлар, тадбирлар» тариқасида изоҳ берилган. Кўриниб турибдики, «тарғиб» ва «ташвиқ» тушунчалари муайян жараён ва ундан кўзланган мақсадни ўзида ифодаласа, «тарғибот» ва «ташвиқот» эса жараёнлар йиғиндиси, бошқача айтганда, комплекс тадбирлар мажмуасидан иборат эканлиги намоён бўлади. Эътиборли томони шундаки, мазкур тушунчалар мазмун жиҳатдан бир-бирига жуда яқин бўлиб, бошқаларда қизиқиш, хоҳишни кучайтириш орқали улар онгига тушунча, ғоя ёки таълимотни сингдиришга қаратилгандир. Бу тушунчаларнинг бири иккинчисини тўлдиради ва айнан шунинг учун ҳам ижтимоий ҳаётда «тарғибот-ташвиқот» бир-бирига жуда ҳам яқин тушунчалар тариқасида қўлланилиб келинади «Ҳуқуқий тарғибот» умумий тарғиботнинг бир йўналиши бўлиб, унда асосан аҳолининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, қонуний манфаатлари билан боғлиқ масалаларнинг мазмун ва моҳиятини аҳолига етказиш, шу асосда фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ошириш мақсад қилиб қўйилади. Сўнгги пайтларда ҳуқуқий адабиётларда «ҳуқуқий тарғибот» билан бирга «қонунчилик тарғиботи» тушунчаси ҳам қўлланилмоқда. «Ҳуқуқий тарғибот» тушунчаси «қонунчилик тарғиботи»га нисбатан кенгроқ тушунча бўлиб, кенг қамровли ижтимоий-ҳуқуқий муносабатлар доирасидаги масалаларни тарғиб қилишни назарда. Мисол учун, муайян турдаги ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган

шарт-шароитлар, уларни содир этишнинг усул, шакл ва воситалари, виктимлик ҳолатлари, ҳуқуқбузарликлардан ҳимояланиш чора-тадбирлари кабилар билан боғлиқ масалаларга урғу берилса, «қонунчилик тарғиботи» эса фақат қабул қилинган қонунлар ва қонуности ҳужжатларнинг мазмуни ва моҳиятини ёритишга қаратилади. Энг эътиборли томони, ҳуқуқий тарғибот керак бўлса қонунчилик тарғиботини ҳам ўз ичига қамраб олади. Маълумки, аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг муҳим йўналишларидан биридир. Шу боисдан, мустақиллик йилларида мамлакатимизда халқаро андозаларга мос миллий қонунчилик асосларини яратиш билан бирга уларнинг мазмун-моҳиятини аҳолига етказиш ишларига жиддий эътибор қаратилди. Аҳолининг ҳуқуқий онгини ва маданиятини ошириш учун оммавий ахборот воситаларининг имкониятларидан кенг фойдаланиш, таълим муассасалари ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамкорлигида ҳуқуқий тадбирлар ташкил этиш, бир сўз билан айтганда қонунчилик тарғиботини кучайтириш муҳим аҳамиятга эга

Ҳуқуқий тарғибот қўйидаги уч шаклда амалга оширилади: - оғзаки; - ёзма; - кўргазмали. Ҳуқуқий тарғиботнинг оғзаки шаклига, ижтимоий-ҳуқуқий муносабатлар, уларнинг белгиланган шартлари, тартиби, қонун ва қонуности ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятига бағишлаб аҳоли ўртасида маъруза қилиш, радиоёшиттиришлар қилиш, викторина, давра суҳбати, семинар-тренинг, учрашувлар ўтказиш кабиларни киритиш мумкин. Ҳуқуқий тарғиботнинг ёзма шаклига эса ижтимоий-ҳуқуқий муносабатлар, уларнинг белгиланган шартлари, тартиби, қонун ва қонуности ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятига бағишлаб мақолалар, китоб ва қўлланмалар ёзиш ва чоп эттириш, аҳолининг муайян қатламига мўлжаллаб буклетлар тайёрлаб, тарқатиш кабиларни мисол қилиб келтириш мумкин. Ҳуқуқий тарғиботнинг кўргазмали шаклига аҳоли гавжум жойларда ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир плакатлар, эълонлар жойлаштириш, видео роликлар намойиш қилиш, кинофильмларнинг муайян эпизодларида акс эттириш, телевидениеларда «Бир жиноят изидан», «Жиноят ва жазо» каби кўрсатувларни эфирга узатиш, плакатлар тайёрлаб аҳоли кўп тўпланадиган ва гавжум бўлган жойларда, ички ишлар органларининг маъмурий бино (МТП)ларида кўргазмали эълонлар осииш кабиларни мисол қилиб келтириш мумкин. Ҳуқуқий тарғиботни амалга оширишга қўйидаги талаблар қўйилади: Ҳуқуқий тарғибот субъектларига қўйиладиган талаблар – бу борада авваламбор, кимлар ҳуқуқий тарғибот субъекти бўлиши мумкинлигига оидинлик киритиш талаб этилади. Мазкур субъектларга ҳуқуқий тарғибот ташкилотчилари, яъни тарғибот ўтказадиган орган, муассаса, ташкилот ва жамоат тузулмалари бўлиши мумкин. Тарғибот ўтказадиган орган ва муассасалар тарғибот ўтказишдан олдин қўйидаги масалаларга оидинлик киритиши талаб этилади:

-ҳуқуқий ёки қонунчилик тарғиботи ўтказилиши кераклигига;

-ҳуқуқий ёки қонунчилик тарғиботи қайси шаклда, яъни маъруза қилиш, учрашув ўтказиш, давра суҳбати, телекўрсатув, радиоёшиттириш кабиларда ўтказилишига;

Юридик табиатига кўра, ҳуқуқий тарғибот ҳуқуқий тарғиботнинг асосий усулларидан бири бўлиб, кенг омма орасида ҳуқуқий билимларни тарқатиш, давлатнинг ҳуқуқий сиёсати ва ҳуқуқий мафкура асосларини аҳоли ижтимоий онгига сингдириш, унда ҳуқуқий ғоялар, талаблар, қарашлар, кадриятлар ва ҳуқуқий эътиқодни қарор топтириш, шунингдек ижобий ҳуқуқий хулқ-атвор моделини мустаҳкамлаш мақсадида амалга ошириладиган фаолиятдир. Ҳуқуқий тарғибот жамият миқёсида ҳуқуқий билимларни тарқатиш, реципиентларга(қабул қилувчи) ҳуқуқий ахборотни мунтазам етказиш учун ташкил этиладиган, мақсадга мувофиқ бошқариладиган жараёндир. Ушбу жараён қуйидаги элементлардан иборат тарзда кечади: а) ҳуқуқий ахборотни тарқатувчи (етказувчи, тарғиб қилувчи) субъект – коммуникатор; б) ҳуқуқий билимларни, ахборотни қабул қилувчи объект – коммуникант; в) ҳуқуқий ахборот – коммюнике; г) ҳуқуқий коммуникациянинг(алоқа) амал қилиш майдони – ҳуқуқий таъсир ўтказиш вазияти. Ҳуқуқий тарғибот субъектлари (давлат органлари, жамоат бирлашмалари, сиёсий партиялар, оммавий ахборот воситалари, таълим муассасалари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг мутасадди ходимлари, ҳуқуқшунос мутахассислар ва олимлар) фуқароларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, ҳуқуқий маданиятини шакллантириш мақсадида қонунчиликка оид ва бошқа ҳуқуқий ахборотни аҳоли кенг қатламларига, айниқса ёшларга етказадилар. Ҳуқуқий тарғибот талаба ёшлар ва ўқувчиларнинг хулқ-атвори шаклланишида муҳим вазифани ўташи масаласида ёзиб М.Г.Лаварсланова – ҳуқуқий давлатни қуриш жараёнида ушбу масаланинг ўта муаммоли эканлигини таъкидлайди. Унинг эътирофига кўра, ушбу жараёнда ўсиб келаётган ёш авлоднинг дунёқараши шаклланишида ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий ижтимоийлашувни юқори даражага кўтариш биринчи галдаги вазифалардан биридир. Мавжуд танқидий баҳоларга қарамасдан, ҳуқуқий тарғибот қўйилган тарғиботвий мақсад ва вазифаларга муайян даражада мос келувчи тадбирлар мажмуасидан иборат бўлади. Ҳуқуқий тарғибот ҳуқуқий тарғибот доирасида муносиб даражада йўлга қўйилиши мумкинлигини инобатга оладиган бўлсак, ўз навбатида, ҳуқуқий билимларни аҳоли ва кенг жамоатчилик ўртасида радио, телевидение ва бошқа оммавий ахборот воситалари орқали кенг тарғиб этиш мазкур жараёнда ҳал қилувчи аҳамият касб этиши шубҳасиздир. Дарҳақиқат, ҳуқуқий тарғибот жараёнида ҳуқуқий тарғибот субъектларининг фаоллигини ошириш улар фаолиятининг самарадорлигини таъминлаш имконини яратади. Шу боисдан бугунги кунда мамлакатимизда ҳуқуқий тарғибот масаласига жиддий эътибор қаратилиб, унинг сифат самарадорлигини ошириш борасида жиддий чора-тадбирлар кўрилмоқда.

Ҳуқуқий тарғибот воситалари тушунчаси борасида олимлар ўртасида яқдиллик йўқ. Шу сабабли ҳам юридик адабиётларда тарғибот воситаларига тор ва кенг маънода қаралади. Тор маънода, ҳуқуқий тарғибот воситалари бўлиб, тарғибот жараёнида фойдаланиладиган китоблар, кинофильмлар, санъат асарлари ҳисобланса, кенг маънода эса, бу таълим, ижтимоийфойдали меҳнат, ташаббускорлик кабиларни ўзида намоён

этади. Адабиётларда, шунингдек, тарғибот воситалари тушунчасига нисбатан бошқа нуқтаи назар ҳам мавжуд, унга кўра, воситаларга ҳуқуқий тарғибот жараёнида фойдаланиладиган техник воситалар ва мосламалар ҳам киритилади. Воситаларни бундай тушуниш уларни тарғибот шаклларида фарқлашга имкон беради, бироқ, тарғиботнинг барча техник ва моддий воситаларини қамраб ололмайди. Ҳуқуқий тарғибот жараёнида фойдаланиладиган моддий воситалар сирасига радиоэшиттириш ва телевидение, кинотеатрлар, клублар, саройлар ва бошқа бинолар ҳамда техник воситалар, нашриётлар, газета ва журналлар, китоблар, киноленталар, плакатлар, стендлар, кўргазмали ташвиқотлар киради. Ҳуқуқий тарғибот воситаларига айрим муаллифлар тарғиботланувчига маънавий, яъни рационал ва ҳиссий таъсир этиш воситаларини ҳам киритганлар. Бундай таъсир ўз ичига материални узатиш методикасини, тадбирлар амалга ошириладиган муҳитни қамраб олади. Ҳуқуқий тарғибот тизимининг таркибий қисмларини тарғиботнинг объекти ва субъектлари фаолиятини таҳлил этиш асосида ойдинлаштириш мумкин. Чунки, бу борада ҳуқуқий тарғибот субъектлари ва объектларининг ҳолатини таҳлил этмасдан, улар ўртасидаги алоқадорлик тўғрисида аниқ маълумотларга эга бўлмасдан ва умуман уларнинг ҳуқуқ тўғрисидаги қарашлари, фикрлари, ғоя ҳамда тасаввурлари хусусида муайян хулосаларни чиқармай туриб, ҳуқуқий тарғиботнинг замонавий усул ва воситаларни қўллаб бўлмайди. Шундан келиб чиқиб, О.Ф.Скакун ҳуқуқий тарғибот таркибий қисмлари сифатида субъект, объект ва ҳуқуқий тарғибот тадбирларининг мажмуини тушунади. Олимнинг эътирофи этишича, ҳуқуқий тарғибот жараёни яхлит тизими сифатида қуйидагиларда намоён бўлади: □ Ҳуқуқий тарғибот – муайян ҳуқуқий ғоя ва кадриятларни тарқатиш бўлиб, бунда ҳуқуққа риоя қилиш ва қандай ҳолларда ташвиқот олиб бориш масаласига аниқлик киритилади. □ Ҳуқуқий таълим – энг таъсирчан ва кенг тарқалган усул ҳисоблансада, ҳар доим ҳам жамиятнинг ҳар бир аъзосига мукамал даражада етиб бормайди. □ Юридик амалиёт – ҳуқуқий тарғибот ва ташвиқот ишлари қанчалик фаол тарзда олиб борилмасин, агар ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар фаолияти ижобий таъсир этмаса, жамиятда ҳуқуққа нисбатан ишонч ва ҳурмат ҳамда фуқароларда қонунга риоя этиш ҳиссини шакллантириб бўлмайди. □ Ўзини ўзи тарғиботлаш – тарғиботнинг энг таъсирчан тури бўлиб, айнан у орқали шахсда ҳуқуқ тўғрисида онгли ва ихтиёрий тасаввурлар шаклланишига шароит яратилади. Мазкур масалага муносабат билдирган мамлакатимиз ҳуқуқшунослари ҳуқуқий тарғибот механизмини бир оз кенгроқ ифода этадилар. Уларнинг фикрича, ҳуқуқий тарғибот механизмининг таркибий қисмлари қуйидагиларда акс этади: биринчидан, ҳуқуқий тарғибот субъектлари (давлат идоралари, жамоат бирлашмалари, меҳнат жамоалари, мансабдор шахслар ва бошлиқлар); иккинчидан, ҳуқуқий тарғибот объектлари (фуқаролар, ёшлар мансабдор шахслар, жумладан, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлари ходимлари ва бошқ.); учинчидан, ҳуқуқий тарғибот мазмуни (ҳуқуқий таълим, ҳуқуқий тарғибот, ҳуқуқий ташвиқот); тўртинчидан, ҳуқуқий тарғибот шакллари (маърузалар, семинарлар, суҳбатлар, викториналар); бешинчидан,

ҳуқуқий тарғибот методлари (ишонтириш, рағбатлантириш, мажбурлаш); олтинчидан, ҳуқуқий тарғибот воситалари (матбуот, радио, телевидения, адабиёт ва санъат асарлари, кўргазмали ташвиқот ва тарғибот воситалари). Кўриниб турибдики, ҳуқуқшуносларимизнинг мазкур масаладаги, тўғрироғи ҳуқуқий тарғибот механизми таркибий қисмлари хусусидаги ёндашувлари бир оз кенг қамровли аҳамият касб этган. Шу боисдан бизнинг назаримизда, ҳуқуқий тарғибот жуда кенг қамровли ва мураккаб жараён бўлганлиги учун у бир вақтнинг ўзида таълимни, ўқитишни, хулқ-атвор, ижтимоий-ҳуқуқий фаоллик эътиқодлари, одатлари ва малакаларини шакллантиришни ўз ичига олади. Биз мана ёндашувни қўллаб-қувватлаймиз. Ҳуқуқий тарғибот механизмида унинг методлари алоҳида таҳлил этилиши лозим. Тарғиботвий жараён олдида қўйилган мақсад ва вазифаларни амалга ошириш учун методлар ва воситаларнинг турли бирикмаларидан фойдаланиш мумкин. Ҳуқуқий тарғибот воситалари ва шакллари билан бир қаторда тарғибот методларини, шунингдек, уларни қўллашнинг илмий асослантирилган тавсияларини тадқиқ этиш ҳуқуқий тарғибот назариясини ишлаб чиқишда катта аҳамиятга эга. Айни пайтда, масалага бундай ёндашув ҳуқуқий тарғибот жараёнининг самарадорлигини янада оширишга муносиб хизмат қилади. Т.Н.Леонтьеванинг фикрича, ҳуқуқий тарғибот методи – бу уни амалга ошириш усуллари ва йўлларининг йиғиндисидир. Л.М.Корниенко ҳуқуқий тарғибот методи деганда, индивидда ҳуқуқий онгни шакллантиришга қаратилган ҳуқуқий фаолият усулларини тушунади. В.Н.Зенин эса ҳуқуқий тарғибот методини, одамларни қонунларни ҳурмат қилиш, уларга қатъий риоя этиш, ҳуқуқий онгнинг юқори даражада бўлиши, уларга ҳуқуқий хулқатвор кўникмаларини сингдириш ва уларнинг ижтимоий-ҳуқуқий фаоллигини ошириш руҳида тарғиботлаш мақсадида инсон онги ва хулқатворида таъсир этиш усуллари ва йўлларининг йиғиндиси, – деб таърифлайди. Барча таърифларда ҳеч бир истисносиз ҳуқуқий тарғибот методи деганда, энг аввало, шахс онги ва хулқ-атворида таъсир этиш усуллари, шунингдек, таъсир этиш принципларининг йиғиндиси тушунилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида фармон
2. Лех.уз
3. “Гендер-мадад” ҳуқуқий маслаҳат портали

ORALIQ EKIN: TUPROQ UNUMDORLIGI VA
IQTISODIY SAMARADORLIK

Sh.I. Mamatojiev

dotsent, q.x.f.n.,

Yursunova Sh. E.

kafedra o'qituvchisi

*“Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish va
dorivor o'simliklar” kafedrası
Farg'ona davlat universiteti.*

Annotatsiya: *Tuproq unumdorligi deganda, o'simlikning butun o'suv davri davomida suv va oziq moddalar bilan yaxshi ta'minlanib, gektar hisobiga yuqori hosil olinishi tushuniladi. Tuproq unumdorligi uning doimiy va xech o'zgarmaydigan sifati emas. Inson yerga to'g'ri oqilona ta'sir etganda tuproqning unumdorligi uzluksiz oshib, ekinlardan muttasil yuqori hosil olish ta'minlanadi. Unumdorlik sharoiti tuproqning tabiiy hususiyatiga bog'liq bo'libgina qolmasdan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish vositalari ta'sirida, yani tuproqni madaniylashtirish natijasida xosil bo'ladi. Unumdorlik sharoiti yaxshi, yani madaniy tuproqlarda o'simlikning tuproqdagi unumdor elementlar bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Tuproqning unumdorlik darajasi undagi chirindi va mikroorganizmlar miqdori, tuproq muxiti, donadorligi, qattiq yoki yumshoqligi, tuzilish, haydalma qatlam qalinligi va boshqa ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi. Tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy sifat belgisi deb ta'riflangan chirindi yoki gumus miqdorini ko'paytirishda va mikroorganizmlar faoliyatini yaxshilashda oraliq ekinlarning ham ahamiyati katta. Oraliq ekin ya'ni birinchi asosiy ekilgan ekinning hosili yig'ishtirib olingandan so'ng ikkinchi asosiy ekinni ekkunga qadar o'stiriladigan ekinlarga aytiladi.*

Kalit so'zlar: *Mehnat unumdorligi, tuproqning unumdorlik darajasi, dehqonchilik madaniyati, yuqori hosil, tuproq unumdorligining kamayishi, hosilning pasayishi, agronomik va melioratsiya tadbirlari, mikroorganizmlar miqdori, tuproq muxiti, donadorligi, qattiq yoki yumshoqligi, tuzilish, haydalma qatlam qalinligi, oraliq ekin, ismaloq (shpinat), aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish.*

Аннотация: *Плодородие почвы означает, что растение хорошо снабжается водой и питательными веществами в течение всего вегетационного периода, что приводит к высокому урожаю с гектара. Плодородие почвы не является ее постоянным и неизменным качеством. Когда человек правильно рационально воздействует на землю, плодородие почвы непрерывно увеличивается, обеспечивая неизменно высокие урожаи сельскохозяйственных культур. Условия плодородия не только зависят от естественного характера почвы, но и формируются под воздействием средств сельскохозяйственного производства, то есть в результате окультуривания почвы. Условия плодородия хорошие, то есть на культурных почвах улучшается снабжение растения плодородными элементами в почве. Уровень плодородия почвы зависит от количества гумуса и микроорганизмов в ней, почвенной*

среды, зернистости, твердости или рыхлости, структуры, толщины пахотного слоя и других показателей. Определяется как основной признак качества, определяющий плодородие почвы при увеличении количества перегноя и активности микроорганизмов в улучшении также велика роль промежуточных культур. Промежуточной культурой называют те культуры, которые выращиваются до посева второй основной культуры после уборки урожая первой основной посевной культуры.

Ключевые слова: Производительность труда, уровень плодородия почвы, культура земледелия, высокая урожайность, снижение плодородия почвы, снижение урожайности, агрономические и мелиоративные мероприятия, количество микроорганизмов, почвенная среда, зернистость, твердость или рыхлость, структура, толщина пахотного слоя, промежуточные культуры, шпинат, занятость населения, увеличить уровень доходов.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyali narxlarni vujudga keltiradi. Chegaralangan narxlarda davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi, ular shu doirada o'zgarishi mumkin. Bunday narxlar yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi. Dotatsiyalangan narx - bu davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlardir. Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx. Bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadiki, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir kismidan kechib yuboriladi. Sotish hajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar nufuzli narxdan

foydalanadi. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopoliya vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami harid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi. Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala xovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, oxirgi nusxadagi kiyimlar kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish – martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi.

Erkin bozor narxlari - bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narxlar jamiyat va bozor munosabatlari barcha sub'ektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik katga bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Bozor ko'lami hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar mavjud bo'ladi. Hududiy narx faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi. Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir. Milliy narx mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafliligini, Uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. Jahon bozori narxi muayyan tovarga ketgan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi. Narx xilma-xil turlardan iborat bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot nazariyasida narx nisbati degan tushuncha bor, u narx pariteti, deb ham yuritiladi. Iqtisodiyot va undagi jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari. Toshkent. 2019-y. 170-179 betlar.
2. Journal "Economic review" Uz.
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Price>

O‘ZBEKISTONDA “YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI”NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATALARI

G.Xolmurodov

O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi

S.Eshdavlatova

O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida “Yoshlarga oid davlat siyosati” tushunchasining mazmun-mohiyati, yoshlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, yoshlar muommolari, yoshlarga oid davlat siyosati, Xalqaro Yoshlar yili, BMT, “O‘zaro muloqot va bir – birlarini tushunish”.*

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan yoshlar va ularning kelajagi haqida g‘amxo‘rlik qilish masalalariga ustuvor darajada e‘tibor qaratila boshlandi. Jamiyatimizni demokratlashtirish fuqarolik jamiyatini qaror toptirish maqsadlari zaminida aslida inson manfaatlarini, yurtimizning, taraqqiyotimizning tayanchi va suyanchi bo‘lgan yoshlar turar edi.

1991 yilning noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan edi. Ushbu qonun mamlakatimiz yoshlarining jamiyat siyosiy-ijtimoiy, ma‘naviy sohasidagi keng qamrovli huquqlarini kafolatlab berish bilan birga, barkamol avlod tarbiyasi uchun dastlabki va hal qiluvchi huquqiy asoslarni belgilab berdi. Jumladan, qonunning birinchi moddasida “Yoshlarga oid siyosati O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanish va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlarini yo‘lida imkon boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir”, degan qoidalar belgilab qo‘yilgan.

Yoshlar masalalarida o‘ta dolzarb bo‘lgan o‘z davrining muhim muammolarini yechishga qaratilgan sa‘y-harakatlar jamiyat hayotining turli murakkab jarayonlari bilan hamohang tarzda yuzaga keldi va ular yechimi qidirildi. Mamlakatning yangi qonunchiligida yoshlarning jamiyat taraqqiyoti istiqboli asosi sifatida e‘tirof etilishi, shuningdek, yoshlar tashkilotlari rivoji uchun imkoniyatlarning yaratilishi, yoshlarning zamonaviy kadrlar silsilasini yaratish maqsadi, yoshlar intellektual salohiyatining jahon hamjamiyatiga kirib borishini ta‘minlash, yoshlar ichidan yangi mulkdorlar qatlamining vujudga kelishi kabi dolzarb yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab boshqa ijtimoiy-siyosiy masalalar kabi davlatning yoshlar siyosati tamoyillari ham mustaqillik yillarida demokratik rivojlanish yo‘lini tanlagan respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy-nazariy ishlab berildi hamda uning rahbarligida amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlar manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan sa‘y-harakatlar mazmuni quyidagi yo‘nalishlarda rivojlandi:

- mustaqil davlatchilik siyosatini yaratishda insoniy qadriyatlar va milliy an‘analarga asoslangan ko‘p asrlik tajriba va amaliyotdan foydalanish;

- yoshlar muhofazasini yaratish faoliyatida ularning ijtimoiy himoyasi muammolarini ustun qo'yish, yoshlarning yangi demokratik jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonlarini qo'llab-quvvatlash;

- yoshlar siyosati masalalarini ishlab chiqishda umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligiga erishish, butun jahon tajribasida mavjud bo'lgan ilg'or g'oya va normalardan umumli foydalanish.

Yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir.

Quyida yoshlar siyosati tushunchasining nazariy-metodologik jihatlariga tarixiy e'tibor qaratmoqchimiz.

Umumiy ko'rinishda yoshlar siyosatini shunday izohlash mumkin

1. Yoshlarning xar xil guruhlariga, qatlamlar va ijtimoiy institutlarga, jamiyat qadriyatlariga bo'lgan munosabati;

2. Davlatning yoshlarga qaratilgan o'ziga xos faoliyati, asosan siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa sub'ektlarning ijtimoiy munosabatlarida yoshlarga o'ziga xos tarzda ta'sir etish va yoshlarni tobora ijtimoiylashtirish va uni rivojlantirish va ushbular orqali jamiyatning kelajagini ta'minlash;

Yoshlar siyosati tushunchani biz shunday qabul qilishimiz mumkin, demak “aniq faoliyat bilan yoshlarni ijtimoiylashtirish va ularning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish, shu tarzda kelajakdagi jamiyat hayotidagi faoliyatiga tayyorlash”[1].

Yoshlar siyosati sub'ekti bunday muammolarni to'g'ridan - to'g'ri hal qila olmaydi. Buning uchun bevosita davlat hokimiyatining aralashuvi, yordami orqali yoshlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarini amalga oshira olishlari mumkin bo'ladi.

Yoshlar siyosatining ikkinchi tomoni esa, g'oyalar tizimi, tadbirlar, tashkilotlar, kadrlarning jamiyatdagi u yoki bu sub'ektlari tomonidan ishlab chiqilib ijtimoiy siyosiy hayotga tadbir etiladi va siyosiy raqobat strategiyasi ishlab chiqiladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida ko'rish mumkin. Yoshlar har bir davlatning kelajagini belgilovchi kuch ekanini e'tiborga olsak, dunyoning deyarli barcha davlatlarida bejiz yoshlar siyosatini amalga oshirish bo'yicha milliy konsepsiyalar ishlab chiqilib, samarali faoliyat olib bormayotganining guvohi bo'lamiz.

Bugungi kunda dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning ikki xil strategiyasi amal qilmoqda. Bular: yoshlar siyosati sohasida davlatning yetakchi rolga asoslangan strategiya hamda yoshlar siyosati sohasida davlat va fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya.

Bugun kunda Germaniya va Fransiyani birinchi yo'nalishdagi siyosatni olib boradigan davlatlar sirasiga kiritish mumkin. Ushbu davlatlar o'z faoliyatini yoshlar siyosati sohasida umummilliy, mintaqaviy va hududiy darajalarga qarab ixtisoslashtirish asosida olib boradi. Bunda yoshlar siyosati oila, qariyalar, ayollar va yoshlar ishlari bo'yicha vazirlik tomonidan Kons-titutsiya va federal qonunlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, Fransiyada yoshlar

siyosati Yoshlar ishlari, sport va jamoat birlashmalari bo'yicha vazirlik tomonidan ishlab chiqiladi.

Yoshlar siyosati sohasida davlat hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya Buyuk Britaniya va Shvesiyaga xos bo'lib, bunda yoshlar siyosatining umumiy ko'rinishi, maqsad va yetakchi vazifalari davlat tomonidan belgilab berilsa, bu vazifalarning ijrosi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu davlatlarga xos bo'lgan xususiyat esa yoshlar siyosati va yoshlar ishlari bo'yicha maxsus davlat organlarining mavjud emasligida namoyon bo'ladi.

Yoshlar davlat siyosatining to'raligicha yoshlar siyosatiga aylanganligi bir qancha muhim shakl va dinamik jarayonni o'z ichiga olganligi va bugungi kunda ham shu tarzda namoyon bo'layotganligi barchaga ayon. Avvalgiday ushbu soha faoliyatida jamiyatda juda ko'p narsalar yoshlar bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga olishini e'tirof etish mumkin va ushbu muammolarni hal qilishda davlat tomonidan nazoratga olinishini talab qiladi. Ushbular esa yoshlarga jamiyatda istiqomat qiluvchi turli xil yoshdagi kishilarning bugungi kundagi madaniy an'analarini ya'ni qadriyat va me'yorlarini hurmat qilishga chaqirish orqali amalga oshiriladi.

Birinchi marta yoshlarga bo'lgan e'tibor Yevropa mamlakatlarida xristianlarning kambag'allarga yordam ko'rsatishidan boshlangan edi. Borgan sayin barcha murosasizliklarni bartaraf etishning birdan - bir yo'li yoshlarga bo'lgan g'amxo'rlikning davlat siyosatining ajralmas qismi ekanligi e'tirof etildi. Ushbular bilan bir qatorda yoshlar qattiq nazoratga olindi. Keyinchalik yoshlarga g'amxo'rlik qilish g'oyalari yoshlarga yordam ko'rsatish konsepsiyasida o'z aksini topdi va davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va qonun yo'li bilan boshqarila boshladi. Asosan huquqiy reglament voyaga yetmagan yoshlar orasida jinoyatni oldini olish va ishlab chiqarish jarayonida yoshlarning jismoniy zo'riqishlarini oldini olishga qaratildi. XX asr boshlarida qator davlatlarda voyaga yetmaganlar uchun maxsus sud bo'limlari shakllandi[2]. Qonunchilikda yoshlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun ishlab chiqildi, lekin qonun bilan ularning faoliyatini rivojlantirish masalalari esa e'tibordan chetda qoldi, tarbiyalash masalasi aynan keraksiz va dahlsiz deb qaraldi 1920 yillarda dunyoda mexanizmi va konsepsiyasi butunlay boshqa bo'lgan ikki xil sistemadagi (tizimdagi) yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirildi.

Ulardan biri Germaniyada shakllandi. Ushbu siyosat ijtimoiy pedagogik va huquqiy davlat g'oyalariga asoslandi. 1922 yili ushbu siyosat bilan bog'liq Vaymar Respublikasida yoshlar turmush tarzini yanada yaxshilash to'g'risidagi kompleks huquqiy qaror qabul qilindi. Ushbu qonunda davlat tomonidan yoshlarni ishga joylash va yana ijtimoiy masalalarda yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish ko'zda tutiladi.

XX asrning 60-80-yillarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan yoshlar qatlamiga bo'lgan munosabatning yangicha prinsiplarini belgilab beruvchi bir qator hujjatlar qabul qilindi va yoshlarning ijtimoiy muammo-lari tashkilot e'tibor markazidagi vazifaga aylandi. Boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ham yoshlar muammo-lari va yoshlar siyosatiga daxl-dor bir qancha hujjatlar ishlab chiqildi. Shuningdek, yosh-lar muammolarini bartaraf etishda Xalqaro mehnat tashkiloti, BMTning YUNISEF fondi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti alohida o'rin tuta boshladi. Mazkur sa'y-harakatlar xalqaro va alohida davlatlar miqyosida rasman yoshlarga oid davlat siyosati yuritila boshlanishiga turtki bo'ldi.

Yoshlarga oid davlat siyosati BMTning tadbir va qarorlarining predmetiga aylandi. 1985 yilda tashkilot tomonidan Xalqaro Yoshlar yili deb e'lon qilindi. 1995 yilda halqaro yoshlar yiliga bag'ishlangan tadbir yangi qaror va tartiblar ishlab chiqildi.

BMTning xalqaro yoshlar yili munosabati bilan "O'zaro muloqot va bir - birlarini tushunish" shiori ostidagi amalga oshirilgan ishlari o'ziga xosligi bilan boshqalardan farq qiladi. Bunda dunyoviy ideallar: inson huquqlari, obro'si, hurmati, o'zaro hamjihatligi, madaniyati, diniy sivilizatsiya kabi qadriyatlarga[3] alohida etibor qaratilgan edi.

2016 yilda Yangi tahrirdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda «yoshlarga oid davlat siyosati», «yoshlar (yosh fuqarolar)», «yosh oila», «yosh mutaxassis» kabi asosiy tushunchalarning mazmuni ochib berilgan, yoshlarning qonuniy manfaatlari, xususan, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash sohasidagi huquqiy kafolatlari belgilangan. Jumladan, yoshlar (yosh fuqarolar) deganda, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar nazarda tutilgan. Jumladan, yoshlar siyosati - «davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi»[4] deb ta'riflandi.

Bu qatlamga «yosh berish» masalasida ham farqlanish bor ekan. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi davlatlarida 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba'zan 35 yoshgacha) bo'lgan, MDH davlatlarining aksariyatida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan aholi vakillari yoshlar hisoblangani holda, Ukrainada 14-35, Qozog'istonda 14-29 yoshlilar yoshlar toifasiga kiritiladi[5].

Shuningdek, yosh oila tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, yosh oila deganda, 30 yoshdan oshmagan er-xotindan yoxud farzand (bola) parvarishlayotgan ota yoki onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan yolg'iz, beva er (xotin) tushuniladi.

Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlari hamda muassasalarning vakolatlari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, yoshlar nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi, shuningdek, ular faoliyatining kafolatlari belgilangan.

Shu bilan birga yoshlarni har tomonlama salohiyatli barkamol inson qilib voyaga yetkazishda, ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligi, ma'naviy ma'rifiy ishlarning doimiyligini ta'minlash lozim. Chunki mamlakat mustaqilligi, millatning ertangi kuni, uning taraqqiyot darajasi, ya'ni, iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, ma'naviy jihatdan yuksalish va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab borishi yoshlar zimmasidadir.

Islohotlarning taqdiri, samarali natijalar berishi va istiqboli aholining ayniqsa, yoshlarning faolligiga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga bog'liq. Chunki davlatning ijtimoiy-siyosiy salohiyatini belgilovchi omillardan biri mamlakat yoshlarining faolligi, aql-zakovati va fidoiyligidir.

Yoshlarga berilgan e'tiborni faqatgina "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" dasturlarida emas, balki o'z amaliy faoliyatlarida ham aks ettirsalar islohotlar ijobiy samara beradi. Buning uchun esa, faqat tanqid qilish bilan cheklanmasdan, yoshlar faoliyatiga amaliy jihatdan ko'maklashish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shaxsiy namuna va tashabbuslar ko'rsatish lozim. Zero, yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirmasdan turib, faol fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmasligi barchamizga ayon.

Mamlakat hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar yosh avlodning jamiyatdagi o'rnini masalasiga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, hozirda dolzarb vazifalardan biri, yoshlarni huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ta'lim-tarbiya berish jarayonida yangi usul va uslublarni yaratishdan iboratdir. Ularda tashabbuskorlik, intiluvchanlik, harakatchanlik shakllanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. См.: Луков Вал. А., Луков Вл.А.Тезаурус: Суб'ектная организация гуманитарного знания. М.: Изд-во Най. Ин-та бизнеса, 2008.
2. Государственная молодежная политика: российская и мировая практика реализации в обществе инновационного потенциала новых поколений. Научная монография. Под общей редакцией Вал. А. Лукова. - Москва, Издательство Московского гуманитарного университета, 2013. -С. 29.
3. См.: 12 августа под эгидой Генеральной Ассамблеи ООН стартует Международный Год молодёжи [эл.ресурс] // Организация Объединенных Наций в Российской Федерации. URL: <http://www.Unrussia.ru/ru/node/497>
4. Халқ сўзи // № 182 (6617) 2016 йил 15 сентябрь.
5. <http://huquqburch. Istiqbol egalari. Yoshlarga oid davlat siyosati va uning mazmun-mohiyati haqida mulohazalar>.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TEZ AYTISH VA TOPISHMOQLARNING O'RNI, ULARNI INNOVATSION O'RGATISH USULLARI

52-umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mamadaliyeva Xurshida Shaydullayevna

Annotatsiya: *Maqolada nutq o'stirish tushunchasi, o'quvchilar nutqini o'stirishning mavjud ahvoli, ona tili darslarida nutq o'stirishning shakl va vositalari, nutq o'stirishda noan'anaviy usullardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *nutq, nutq o'stirish, so'z, bog'lanishli nutq, tarqatma, didaktik material, ertak, hikoya.*

O'quvchilarni faqat o'qituvchi rahbarligidagina emas, balki o'zlarini mustaqil ravishda ishlashga ham o'rgatib boriladi. Darsning 8-10 minutini mustaqil ishlashga ajratish uni qiziqarli o'tkazishda didaktik materiallar katta yordam beradi. Savod o'rgatish davrida didaktik materiallardan foydalanish nutqni o'stirish ishining asosiy poydevori bo'lib xizmat etadi. Dastlabki mashg'ulotlarda tagiga bo'g'in va so'zlar yozilgan turli rasmlı kartochkalardan foydalaniladi, bolalarning hali o'qish-yozishni bilmasliklarini hisobga olib, bunday rasmlı kartochkalarni guruhlariga bo'lib, konvertlarga solinadi va har bir konvert ustiga shu narsaning nomini yozib, rasmlı yopishtiriladi. Bu konvertlar o'quvchilarga ulashiladi. Bolalar konvert ichidagi narsani konvert ustidagi rasimga qarab o'qish malakasini hosil qilgach esa konvert ustidagi yozuvni o'qish yo'li bilan ajratib, topshiriqni mustaqil bajaradilar.

O'qituvchi o'quvchilarning shu rasmlarda tasvirlangan narsalar bilan tanish yoki tanish emasligini kuzatadi, ularga shu rasmlar haqida qisqa va tushunarli savollar beradi va savollariga javob oladi. Masalan, konvertlar ichidan uy hayvonlarining rasmlarini olish va tagidagi so'zni o'qish vazifasi topshiriladi. Bolalar o'qituvchining bu topshirig'ini bajaradilar: rasmlarni olib, so'zlarni o'qiydilar. Agar so'zning bosh harfi yoki bir bo'g'ini tushirilgan bo'lsa, nuqtalar o'miga unga mos harf yoki bo'g'inni kesma alfavitdan topib to'ldiradilar.

Mustaqil ishlashda didaktik tarqatmalardan qancha ko'p foydalanilsa, o'zlashtirish shuncha yaxshi bo'ladi.

Har bir narsa uchun juda ko'p andazalar (applikatsiyalar) tayyorlash va didaktik ishlar jarayonida ulardan o'rinli foydalanish o'quvchini ijodkorlikka undaydi. Masalan, mevalarning rasm-andazasiga qarab ishlashda quyidagi topshiriqni berish mumkin:

- Bolalar, mana bu yerda olma, o'rik, shaftolilarning rasmlarini ko'rdik, yana qanday mevalar bo'ladi? Hammangiz o'z konvertingizdan qolgan meva rasmlarini olib, partaga teringchi.

O'quvchilar bu ishni zavq bilan bajaradilar. O'qituvchi o'quvchilar ishidan vazifaning qanchalik to'g'ri bajarilganligini ko'zdan kechiradi. Bu kabi ishlarni sabzavot, uy-ro'zgor asboblari, gullar rasmlı ustida ham o'tkazish mumkin. Uquvchilar mustaqil ishlarni juda qiziqib tez va yaxshi bajarishga, o'rtoqlari oldida o'z bilimini namoyish qilishga intiladilar.

Didaktik materiallar maktabga turli tayyorgarlikda kelgan bolalar bilan bir vaqtda, xilma-xil usullardan foydalanilgan holda ishlashga ham katta yordam beradi. O'qituvchi vazifani tez bajarishga ulgurayotgan bolalarga didaktik materiallarning murakkablaridan, uydan kelgan bolalarga esa soddaroqlaridan berib, unga mos vazifalar topshiradi.

O'qituvchi o'quvchilarga qizil, sariq, ko'k rangdagi narsalarni ko'rsatib qanday narsalar: meva, sabzavot o'yinchoqlar shunday rangda bo'lishini so'raydi. SHundan keyin bolalar olcha, anor, kulupnay, pomidor, bayroq kabi bir qator narsalarning qizil rangdaligini eslab, aytadilar. Bunday mustaqil fikrlash bolalarning aktivligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi, lug'atini boyitadi.

Turli xildagi o'yinlar: cho'plardan turli shakllar; burchak, to'rtburchak, narvoncha va ayrim xarf shakllarini yasash boshqa ishlar bilan navbatlashtirib olib boriladi. Bu ishlar uchun dars orasida 7-8 minut vaqt ajratiladi.

Didaktik materiallardan o'quvchilarning erkin ijodiy ishlarida ham foydalanish mumkin. Uqituvchininā ruxsati bilan o'quvchilar, rangli shakllardan foydalanib, turli qutichalar, gilamcha rasmlarini chizadilar. Bu mashgulotlardan bolalar burchak, tomon, o'ng, chap, ost, ust haqida konkret tasavvur hosil qiladilar, o'rtoqlari bilan hamjihat bo'lib ishlashga o'rganadilar.

Bolalar nutqini o'stirishda turli xil didaktik o'yinlarni tez-tez tashkil etish yo'li bilan berilayotgan bilimni tez o'zlashtirish imkoni tug'iladi. Agar o'yin bolalarga dinamik tarzda o'rgatilsa, ular o'yinni o'rganib olganlarini sezmay qoladilar, o'yin jarayonida o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga aslī qiynalmaydilar. "O'yinlar bolalarning to'g'ri o'sishida juda muhim rol o'ynaydi. Bola o'yinga butun borligi bilan kirishib ketadi. O'yin jarayonida uning nutqi tez rivojlanadi".

O'yinlar, xususan didaktik o'yinlar, bolalarning tabiiy ehtiyoji-harakatchanligiga juda mos keladi. Shuning uchun ham bolalar o'yinni juda sevadilar.

Maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi kichik bolalarning nutqini o'stirishda o'yin muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlarning qariyb hammasida, masalan, "Bo'g'inlarga ajrat", "Qaysi harfdan" kabi o'yinlarda harakat elementlari bolalarning jismoniy va aqliy o'sishlariga katta ta' sir etadi.

Bolalarda sezgirlikni va eshitish, ko'rish, harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishda, ayniqsa didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. Masalan, "Jimjitlik", "Nimani taqirlatyapti?", "Tuk-tuk", "Kim nimani eshityapti?" va boshqa shu kabi o'yinlarda bolalarning xotira va eshitish qobiliyati, shuningdek, diqqati o'sadi.

Ilmiy metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan didaktik o'yinlarni bolalarning zo'r quvonch bilan o'ynashi tajribada hamisha ko'zga yaqqol ko'rinib turadi. Har bir o'yin mobaynida bolalarning diqqati, zehni taraqqiy etib boradi. O'qish paytida bolalar bir-birlarining harakatlarini kuzatadilar, hech narsani ko'zdan qochirmaslikka, o'yin qoidalarini va berilgan vazifalarini esda saqlab qolishga tirishadilar. Bundan tashqari o'yin paytida o'quvchilar oldin o'rganilgan materiallarga asoslanib ish tutadilar, natijada bu material bolalar xotirasida yana ham mustahkam o'rnamshib qoladi.

Didaktik o'yinlar bolalarda har bir narsani bilishga intilish hissini uyg'otadi, ularning aqliy ish bilan aktiv shug'ullanishiga imkon beradi, kuzatuvchanlik, narsa va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, aniqlash qobiliyati hamda nutqi o'sa boradi.

Didaktik o'yinlar bolalarni ongli harakat qilishga o'rgatadi.

"Didaktik o'yinlar birinchi va ikkinchi signal sistemalari birligini, ko'rsatmalilik, so'z va harakat birligini mustahkamlaydi. Didaktik o'yinlarda o'quvchi o'qituvchining birorta gapini ham eshitmasdan qolmasligi kerak, aks holda, o'quvchi o'yin qoidasini yaxshi bilib ololmaydi, o'yin topshirig'ini o'z vaqtida bajara olmaydi, boshqalardan orqada qolib ketadi". Shu nuqtai nazardan bolaning xotirasini, diqqatini mustahkamlashda, so'z boyligi va nutqini normal o'stirishda didaktik o'yinlarning katta ahamiyati bor.

Bolalar o'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

"O'yin paytida bolalar psixikasining individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning paydo bo'lish tezligi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi".

Didaktik o'yinlarning eng soddalaridan biri "Davom ettir" o'yinidir. Bunda o'qituvchi bir so'zning boshlanishini, yani birinchi yoki birinchi va ikkinchi bo'g'inini aytadi, o'quvchilar esa uni davom ettiradilar. Bu o'yinda ishlatiladigan so'zlar ikki-uch

bo'g'indan oshmasligi kerak. Bunday so'zlarni bolalarning Gul-nor, Xol-mat, Jo'-ra, No-di-ra, A-za-mat kabi ismlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Keyin esa sha-mol, lay-lak, tul-ki, bo-la, uch-di, o'y-na-di kabi narsa va ish-harakat nomlari aytiladi. O'yin oxirida o'qituvchi bir-biriga o'xshash 3 - 4 so'z aytadi. Masalan: Nodira-Nazira, Normat-Xolmat, Non-don, suv-sut, choy-soy kabi. Keyin bolalarga shu singari so'zlarni o'ylab topishni aytadi.

Didaktik o'yinlardan topishmoq, tez aytish kabi o'yinlar ham talim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, bolalarga ruhiy oziq beradi.

Savod o'rgatishning so'nggi davrlarida o'qituvchi bolalarning kundalik hayoti, o'yinlari aks ettirilgan rasmlar solingan konvertlarni o'quvchilarga ulashadi va konvert ichidagi rasmlarning mazmuni bo'yicha kichik hikoya aytib beradi. Masalan, "Yoz kunlarining birida bolalar cho'milgani ko'lga bordilar. Lola bilan Salim qayiqda suzdilar. Boshqa bolalar maza qilib cho'mildilar" hikoyachasini aytgach, bolalarga shu hikoyachaga taalluqli rasmni topish vazifasini topshiradi. O'quvchilar uni topib, parta ustiga qo'yadilar.

O'qituvchi: "Endi, bolalar, rasmni tomosha qiling-da, men rasmdagilar haqida nimalarni aytmadim, toping-chi?" -dey-di. O'quvchilar rasmni kuzatib, uzoqda bolalar savatlarga meva to'ldirib, uylariga kaytayotganliklari haqida bilganlaricha gapirib beradilar. Konvertdagi boshqa rasmlar yuzasidan ham ish shunday o'tkaziladi. Rasm tanlashda bolaning yoshi, qiziqishi, rasmning mazmuni e'tiborga olinadi,

O'yin mashg'ulotlari bolalar nutqini o'stirishi bilan birga, ularning aqliy qobiliyatlarini, manaviy-axloqiy sifatlarini, kollektiv bilan muomala qila bilish odatlarini tarkib toptiradi, kuch-quvvatlarini orttiradi. Bularndan tashqari, o'yin vaktida bolalarda oddiy mehnat malakalari ham hosil bo'la boradi.

Alifbe davrida bolalar juda ko'p o'yinlar bilan tanishadilar, ular yordamida o'qish va yozishni o'rganadilar. Alifbe davridan so'ng esa ular "Ona tili va o'qish savodxonligi" kitobi orqali bilimlarini kengaytiradilar. Bu jarayonda didaktik o'yinlar ham o'z xususiyatiga ko'ra murakkablashib boradi.

Shuni eslatib o'tish joizki, ona tili va o'qish darslarida qo'llash uchun tavsiya qilinayotgan didaktik o'yinlar foydalanishga qafiy chegara mavjud bo'lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin.

I. Tinch o'yinlar

O'zim tekshiraman.

Bunday o'yinlarni o'tkazishda o'qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Boshlang'ich sinflarning har bir sinfida darsning boshlanishida qo'llash mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdaäi diktant yozdiradi. Barcha daktantni yozib bo'lgach, o'qituvchi doskaga diktantni yozib ko'rsatadi. O'quvchilar esa o'qituvchining yozganiga qarab, o'zlari yozgan diktantni tekshiradilar.

Diktant oldin doskada yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'qituvchi pardani ochadi. Bunday diktantlarni alifbe davrida ham qo'llash mumkin bo'lib, o'qituvchi avval faqat harflardan so'ngra (undosh harflar bilan tanishtirgach) bo'g'inlardan iborat diktant yozdirishi mumkin.

1-variant: Oo, Ii, Uu, Ff, OV.

2-variant: -Io, -no, -ta, -mi,-un.

3-variant: Bola, lola, ona, zo'r, par.

4-variant: Bugun havo issiq.

II. Harakatli o'yinlar.

1. U nima qilyapti? ("pantomimo")

O'quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib ovozsiz harakatlar qiladi. O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o'yin o'qishga ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o'tkaziladi.

III. Aralash turdagi o'yinlar.

1. Nima yo'qolib qoldi?

Stol ustida bir necha yoki aloxida buyumlar surati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo'yadi. O'quvchilar stol ustidan nima yo'qolib qolganini topishlari lozim. Bu o'yindan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarga foydalanish mumkin. Bu o'yin, ayniqsa, alifbe davrida harflarni o'rganish jarayonida juda qo'l keldi.

Bu xildagi o'yinlar bolalarning bilim hamda tasavvurlarining kengayishiga, eng muhimi, so'z boyliklarining oshishiga, shuningdek, nutqlarida tovush talaffuzining aniqlashishiga katta yordam beradi.

Muammoli o'qitish pedagogika fanining eng keyingi yutuqlaridan biri, talim jarayonida bolalarning topqirlik layoqatini taraqqiy ettirishning eng mahsuldor yo'li hisoblanadi. Muammoli o'qitish dastur materiallari asosida tuzilgan topshiriqlarni echish yo'li bilan tashkil etiladi. Maktabda muammoli o'qitishni tashkil etish uchun muammoli topshiriqlarning mohiyatini, turlarini bilish va ularni amalda qo'llash metodikasini egallash nihoyatda zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adizova N. "The role of ethnotoponym in the toponym of bukhara District"
International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-

ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 01 Volume: 81 Published: 30.01.2020 <http://T-Science.org>414-416

2. Adizova N. Nominal description of the bukhara district. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN:2277-3878 Volume-, Issue-3S, October 2019.

3. Adizova N. The Main Motives and Objectives of fun genre in folklore. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)ISSN: 2277-3878, Volume-8, Issue-3S, October 2019. -P.202-207.

4. Adizova N. Rhyme, rhythm in fun genre. International Scientific Journal Theoretical &Applied Sciencep-ISSN:2308-4944(print) e-ISSN: 2409-0085(online) Published:09.10.2019. - P. 65-67.

5. Adizova N, Adizova N The role of the fun genre in children's spiritual development. Middle european scientific bulletin ISSN 2694-9970 Published:09.09.2020. -P.38-40

6. Adizova N, Adizova N The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district . Middle european scientific bulletin ISSN 2694-9970. 09.09.2020.-P.41-43

7. Adizov Bakhtiyor Rakhmonovich, Adizova Nodira Bakhtiyorovna. Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara DistrictMiddle European Scientific Bulletin.2021.3.12

8. Adizova Nodira Bakhtiyorovna.Linguistic-etymological classification of the bukhara district.Scientific Bulletin of Namangan State University. 2020 -3

9. Адизова, Нодира Бахтиёровна, Топотопонимы, образованные от известных топонимических основ. Молодежь XXI век-2020 174-177 с

10. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna, The basis of researching the microtoponymy of Bukhara region. Scientific reports of Bukhara State University. 2018 92-95

11. Adizova nigora. funks that introduce children to the animals' world. Инновационные подходы в современной науке. 2019, 82-85

12. Адизова Нигора Бахтиёровна, Раимкулова Мохинур. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования. 2021 , -121

13. Adizova Nigora Bakhtiyorovna, Ozodova Madina. Technology Of Training, Aimed At Developing Creative Working Skills In The Training Of Primary School TeachersThe American Journal of Social Science and Education Innovations2021/3/31, 546-550

14. Adizova Nigora Bakhtiyorovna, Ergashova Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2021/3/31, 540-545

15. Qo'ldoshev A. R. G'aforovna Habiba Jumayeva.(2021). Forming Writing Skills in Left-Handed Students. Middle European Scientific Bulletin, 10 (1).

ЗНАЧЕНИЕ ЗНАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД

Султанов Хабибулло Матмусаевич

*Учитель русского языка школы № 54 Алтынсайского
района Сурхандарьинской области.*

Аннотация: *В этой статье я расскажу о том, сколько населения мира говорит по-русски и о потенциале преподавания русского языка в школах. Я привел примеры того, как русский язык широко пропагандируется как наука в детских садах, школах, колледжах и даже высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *роль русского языка в зарубежных странах, ценность человека в русских культурах, формирование русского языка в речи ребенка, русский язык в узбекских школах, культура Русского народа, самобытное мировоззрение, национальная культура в русском языке.*

Русский язык-национальный язык русского народа, считается формой русской национальной культуры. Русский язык-один из самых развитых языков в мире. Он обладает богатым словарным запасом и терминологией во всех областях науки и техники, выразительностью, краткостью и ясностью грамматических средств, способностью отражать многообразие вещей в мире. В июне 2005 года был принят Федеральный закон "О государственном языке Российской Федерации". В настоящее время русский язык занимает четвертое место в мире по распространенности. Первое место занимает английский язык в котором около 500 миллионов человек используют его в качестве родного или второго языка. На втором месте китайский язык, а на третьем-испанский язык, который широко используется во всем мире. Каждый может хоть раз в жизни хоть как-то задуматься о своем родном языке или других языках. В узбекских школах произведения русских поэтов проходят как учебники. Вы когда-нибудь думали, что учебники на узбекском языке и произведения узбекских писателей будут проходить в русских школах. Русский язык-это не только государственный язык Российской Федерации. Относится к числу мировых языков, то есть языков, служащих средством международного общения между народами разных государств. Из более чем двух с половиной тысяч языков, известных в мире, международное общение обеспечивает наиболее развитая мировая языковая группа, так называемый клуб мировых языков. Подъем языка к роли мирового языка, с общечеловеческим значением культуры, созданной на этом языке обозначается. Статус языка как мирового юридически определяется признанием его официальным или рабочим языком международных организаций или конференций (ООН, ЮНЕСКО и других организаций). Таким образом, наряду с русским, английским, арабским, испанским, китайским и французским языками

Признан одним из шести официальных языков ООН. Под языком понимаются социальные явления, существующие в человеческом обществе на протяжении всего его существования. Основное назначение языка-служить средством общения, общения. Язык неразрывно связан с мышлением, сознанием человека, служит средством формирования и выражения наших мыслей и чувств.

На планете насчитывается более 2000 языков. Среди них русский язык-один из самых распространенных. Несмотря на то, что языки отличаются друг от друга, в каждом из них существует "родство" между другими языками. Русский язык также принадлежит к восточнославянской семье украинского и белорусского языков. Русский язык существует и развивается до сих пор благодаря тому, что в свое время выполнял все универсальные функции, присущие любому языку.

С помощью языка люди общаются, передают друг другу мысли, чувства, знания об окружающем мире. Любое слово в нашем языке-это не просто набор звуков; оно имеет свое собственное значение. И мы думаем с теми же значениями. Поэтому язык тесно связан со знанием мышления. В развивающемся государстве русский язык не только является языком, но и выполняет еще три функции.

Во-первых, русский язык является национальным языком русского народа. Он создал замечательные памятники искусства и литературы, это язык науки и культуры. Структура слов, их значения и взаимосвязи передают знания о мире и людях другим.

Во-вторых, русский язык является государственным языком Российской Федерации. Во времена существования СССР такого языка в русском языке не существовало. Теперь это зависит не только от потребностей людей на работе, но и дома, от официального языка государства, науки, производства и т. д. язык, который также служит культуре выпуска и, конечно же.

В-третьих, русский язык-один из международных языков. Один из языков мира, объявленный ООН официальным и рабочим языком, разрешенным в международных отношениях.

Без языковой жизни человека, людей, общества невозможно развитие науки и техники, искусства. Значение языка (речи, слова) подчеркивается многими русскими пословицами. С середины XX века русский язык стал признанным мировым языком. Помимо русского, любой документ в ООН распространяется на следующих шести языках: английском, французском, испанском, китайском и арабском. Сегодня на русском языке говорят около 300 миллионов человек. Богатство русского языка и созданная на нем литература вызывают интерес к этому языку во всем мире. Его изучают не только студенты, школьники, но и взрослые. Для преподавания русского языка за пределами нашей страны в 1967 году в Париже была создана Международная ассоциация учителей русского языка и литературы. Ассоциация издает для учителей русского языка и литературы-иностранцев, методические пособия для международных олимпиад по русскому языку среди школьников разных стран.

В XVI и XVII веках европейцы выучили такие слова, как Кремль, кафтан, копейка, фисташка, квас. Миф о порабощении знаменитого греческого философа; "однажды Ксантус приказал Эзопу приготовить еду из худшего в мире. На следующий день Ксантус приказал приготовить еду из самого лучшего. Эзоп снова приготовил еду из языка. Ксантус спросил, почему он приготовил еду из языка, когда ему было приказано приготовить еду дважды. Тогда Эзоп ответил, что это язык, который говорит худшее слово в мире и говорит Лучшее."Из этого мы видим, что нужно не только хорошо изучать разные иностранные языки, но и уметь говорить вежливо и вежливо, на каком бы языке вы ни говорили.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Какой язык международный. Значение русского языка для мира и международного общения.
2. Роль русского языка в языках мира.
3. Выготский, Л С развитие устной речи. Марифат:1982
4. Павлов н д, Ушаков Т. Н.речь людей в общении.
5. Современный русский язык. Е.М. произведения Галкина-Федорчук ч.
6. Виноградов В. V., Русский язык. Грамматическое учение языке. 1972.
7. Аслонов, С., & Ruzimurodova, Z. (2020). THE USE OF ACRONYMS AND INITIALISMS IN BUSSINES ENGLISH. Студенческий вестник, (12-5), 34-35.
8. Ахмеджанова, Н., & Aslonov, SH. (2020). Семантические типы предикатов I пространственная членимость глагольного действия. Интернаука, (12-1), 27-29.
9. Аслонов, Ш. Ш. (2020). КОМПЬЮТЕРНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ФИЛОЛОГИЯ: ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЕ. Гуманитарный трактат, (84), 17-19.
- 10.Аслонов, С. S. (2020). АНАЛИЗ СЛОВ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ ГЕНДЕРНОЕ СОДЕРЖАНИЕ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ. Студенческий вестник, (16-10), 55-58.

ВНЕАУДИТОРНАЯ РАБОТА ПРИ ОБУЧЕНИИ РКН: ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Фёдорова Лариса Ивановна

Ташкентский университет информационных технологий имени
Мухаммада ал-Хоразмий,

Аннотация: В докладе приводятся основные требования и рекомендации для эффективного проведения внеаудиторной работы в процессе обучения русскому языку как неродному. По мнению автора, это способствует лучшему пониманию и усвоению языковых фактов и особенностей русской речи, обогащению культуры и мировоззрения будущих специалистов разного профиля.

Ключевые слова: внеаудиторная работа; обучение русскому языку как неродному; требования и рекомендации при проведении внеаудиторной работы.

Abstract: *The report provides the main requirements and recommendations for effective extracurricular work in the process of teaching Russian as a non-native language. According to the author, this contributes to a better understanding and assimilation of linguistic facts and features of Russian speech, enriching the culture and worldview of future specialists of various profiles.*

Keywords: *extracurricular work; teaching Russian as a non-native language; requirements and recommendations for conducting extracurricular work.*

Любое качественное обучение каким-либо дисциплинам частично или полностью невозможно без дополнительной самостоятельной подготовки, которая чаще всего рассматривается как внеаудиторная работа, т.е. планируемая учебная, учебно-исследовательская, научно-исследовательская работа учащихся, выполняемая во внеаудиторное время по заданию и при методическом руководстве преподавателя, но без его непосредственного участия [2, 268]. С самостоятельной подготовкой студент сталкивается непосредственно в процессе аудиторных занятий – на лекциях, практических и семинарских занятиях; в контакте с преподавателем вне рамок расписания – на консультациях по учебным вопросам, в ходе творческих контактов; в библиотеке, дома, на кафедре при выполнении учебных и творческих задач [3, 496]. Границы между этими видами работ (самостоятельной и внеаудиторной) не очень четкие, они часто пересекаются. То есть, самостоятельная работа студентов может быть как в аудитории, так и вне ее. Однако методисты, рассматривая вопросы самоподготовки студентов, обычно имеют в виду внеаудиторную работу [2, 267-268].

Языковая подготовка является основой профессиональной подготовки выпускника современного вуза, которая должна отражать готовность к саморазвитию, самообразованию и инновационной деятельности. К сожалению, на практике мы видим, что мотивация студентов в процессе изучения языка в неязыковом вузе ориентирована в большей степени на профессиональную деятельность и в меньшей

степени – на личностное самоопределение и саморазвитие. Потребности студентов в коммуникативно-языковой деятельности при изучении языка реализуются не в полной мере, что можно объяснить недостаточной реализацией в практике обучения в вузе технологий личностно-ориентированного образования. Чтобы научить языку как средству общения, необходимо создать обстановку реального общения, налаживать связь преподавания языка с жизнью, активно используя его в естественных ситуациях. Одним из способов решения данной проблемы, на наш взгляд, является развитие и расширение форм внеаудиторной работы. Это могут быть конкурсы на русском языке, обсуждение научной литературы, участие студентов в международных конференциях, различные клубы, кружки, открытые лекции на русском языке, где могут собираться студенты разных специальностей. Сегодня это вполне достижимо, учитывая возможности онлайн общения, участия в вебинарах и видеоконференциях.

Внеаудиторная работа является эффективным средством расширения и углубления знаний, умений и навыков, приобретенных учащимися на занятиях по русскому языку, естественным продолжением учебного процесса, им обусловленным и на него опирающимся. В Узбекистане, находясь в среде, где русский язык остается языком межнационального общения, студенты имеют богатые возможности внеаудиторного пополнения знаний и приобретения навыков коммуникации. К внеаудиторным занятиям учащиеся готовятся в процессе учебной работы, в то же время знания, навыки, полученные при внеаудиторной работе, обязательно используются на занятиях по русскому языку. Внеаудиторные занятия имеют свою специфику: они не являются обязательными, должны отличаться от учебных занятий, быть посильными для студентов, носить познавательный характер, оказывать эмоциональное воздействие. При выборе тематики, форм и видов внеаудиторной работы необходимо учитывать языковую подготовку студентов, их интересы.

Преподаватели русского языка, стремясь удовлетворить интересы учащихся к истории страны изучаемого языка, ее культуре, могут проводить встречи с интересными людьми, экскурсии в музеи, театры, на выставки и т.д. - с учетом сегодняшних онлайн реалий все это возможно. Увиденное и услышанное потом обсуждается на занятиях, т.е. факты культуры изучаются не только сами по себе, сколько преимущественно в своем отражении в фактах языка, в слове [1, 495]. При подготовке проведения экскурсий и встреч (в том числе и онлайн) предусматривается подготовительная работа. Интерес к русскому языку непосредственно связан и с интересом к художественной литературе, что должно учитываться и во внеаудиторной работе. Наиболее интересно проходят тематические вечера, посвященные творчеству того или иного поэта или писателя. Важным условием повышения эффективности такой работы является постоянно расширяющаяся связь преподавания языка с будущей профессией студента. Это учитывается при выборе художественных произведений и тематики мероприятий. Наибольшее эстетическое и эмоциональное

воздействие на учащихся оказывает художественное произведение, воплощенное на экране, а именно в кино- и видеофильмах.

Такая работа открывает большие возможности не только для развития, обогащения и совершенствования русской речи студентов, но и для формирования их нравственности и общечеловеческой культуры, воспитания студента как будущего гражданина и специалиста.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Федорова Л. И. Значение внеаудиторной работы в процессе обучения иностранному языку //Материалы международного научного форума «Образование. Наука. Культура». - 2020. - С. 495-495.

2. Федорова Л. И. К вопросу о специфике проведения внеаудиторной работы при обучении русскому языку студентов неязыковых вузов //Русский язык в глобальном научном и образовательном пространстве. - 2021. - С. 267-268.

3. Фёдорова Л. И. Особенности реализации и взаимодействия лингвокультурных и межкультурных аспектов в ходе проведения внеаудиторной работы при обучении русскому языку // Довузовский этап обучения в России и мире: язык, адаптация, социум, специальность. Актуальные вопросы реализации образовательных программ на подготовительных факультетах для иностранных граждан. - 2022. - С. 496-498.

4. Меденцева Н. П. Практико-методические функции применения ИКТ и технических средств обучения в вузах Узбекистана //Педагогика высшей школы. - 2015. - №. 1. - С. 41-42.

5. Меденцева Н. П. Влияние современных медиа на выбор методики обучения письменной речи //Проблемы и перспективы развития образования. - 2019. - С. 1-3.

6. Меденцева Н. П. ТЕХНОЛОГИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СПОСОБ ИНТЕГРАЦИИ УСИЛИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ И ОБУЧАЮЩЕГОСЯ //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. - 2022. - С. 57.

7. Меденцева Н. П. Осуществление преемственности образовательных этапов посредством музейного образования //Проблемы и перспективы развития образования. - 2016. - С. 198-200.

KRIMINAL JURNALISTIKA: JANR VA XUSUSIYATLAR

Xajiyeva Madinaxan Ravshanbekovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
1-kurs jurnalistika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kriminal jurnalistika va uning janrlik xususiyatlari, kriminal mavzularning yoritilishidagi alohida xususiyatlar haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar: *jinoiyat, kriminal jurnalistika, janr, xronologiya, kriminal mavzu*

Jurnalistikada jinoiyat haqida xabar berish, bo'lib o'tgan jinoyatlar haqida turli materiallarni tayyorlash tarixi uzoqqa borib taqaladi. Jinoyat o'zi nima? Jinoyat haqida ma'lumot berganda jurnalist nimalarga e'tibor qaratishi kerak maqolada shular haqida to'xtalamiz.

Jinoyat – jinoiyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni jinoiyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analariga muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi. Qilmish jinoiyat ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar nazarga olinadi:

- qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
- aybning mavjudligi;
- jazoga sazovorligi.

Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo'lishi shart, ulardan biri mavjud bo'lmasa, qilmishni jinoiyat emas, deb hisoblashga asos topiladi. (1)

Jinoyatlar haqida ma'lumot beruvchi jurnalistlar kriminal jurnalistlar deyiladi. Crime atamasi jinoiyat degan ma'noni anglatib horijda jinoiyat va turli huquqbuzarliklar haqida ommaga ma'lumot ulashuvchilar asosan shunday nomlanadi. Kriminal jurnalistika o'zi nima?

Surishtiruv jurnalistikasi – jurnalistlar jiddiy jinoyatlar, siyosiy korrupsiya yoki korporativ huquqbuzarliklar kabi birgina qiziq mavzuni chuqur o'rganadigan jurnalistikaning bir turi. Tergovchi jurnalist tadqiqot va reportaj tayyorlash uchun oylar yoki yillar sarflashi mumkin. Amaliyotchilar ba'zan „qo'riqchi reportaji“ yoki „hisobdorlik reportaji“ atamalaridan foydalanadilar. Jurnalistika tadqiqotining aksariyati an'anaviy ravishda gazetalar, online xizmatlar va mustaqil jurnalistlar tomonidan olib borilgan. Barcha nashrlarning asosiy daromadi Reklama orqali bo'lganligi uchun ko'plab an'anaviy yangiliklar xizmatlari ko'p vaqt va mehnat shu bilan birgalikda qimmat xarajat talab qiladigan tergov jurnalistikasini moliyalashtirishga qiynalmoqda. Balki shuning uchun jurnalist tekshiruvlari, hatto xalqaro miqyosda ham (Panama hujjatlari va Paradise Papers misolida bo'lgani kabi) birgalikda ishlaydigan axborot tashkilotlari yoki ProPublica kabi ilgari yangiliklar noshirlari sifatida ishlamagan va ularning yordamiga tayanadigan tashkilotlar tomonidan tobora ko'proq olib borilmoqda. 1980-yillardan beri AQShda media-konglomeratlarning o'sishi jurnalistik tadqiqotlar uchun byudjetlarning qisqarib borishi bilan bir paytda keldi. 2002-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra „Jurnalistika surishtiruvni mamlakat tijorat efiridan butunlay yo'qoldi“

degan xulosaga keldi. Buning empirik dalillari ommaviy axborot vositalari konglomeratlarining daromad manbalari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va xolis, befarq OAV mifologiyasi bilan mos keladi: reklama beruvchilar juda ko'p noqulay muammolarni xabar qilgan ommaviy axborot vositalariga qilayotgan xarajatlarini keskin kamaytirdi. Yirik media konglomeratlari tadqiqot jurnalistikasiga xos bo'lgan reklama beruvchilarni xafa qilishmaslik uchun xavfsiz o'z auditoriyasini saqlab qolish yo'llarini topdilar. (2)

Jurnalistikada janr tushunchasi va kriminal janrlar haqida bizga nima ma'lum. O'zbekiston tajribasida kriminal mavzular odatda alohida janrlarga ajratilib berilmaydi. Kriminal mavzular yoritiluvchi ko'rsatuvlarda sharx janriga murojaat qilinadi, intervyudan foydalaniladi. Chet el tajribasida esa quyidagi atamalar mavjud: Kriminal yangilik, kriminal reportaj, kriminal esse, kriminal intervyu. Janr o'zi aslida nima? Janr (fransuzcha genre – „ko'rinish“) – shakliy va tarkibiy xususiyatlar majmui bilan tavsiflanuvchi asar turi. Jurnalistika janrlari“ atamasi turli xil jurnalistika uslublari, sohalari yoki alohida janrlarni anglatadi, voqealarni yozishda. Gazeta hamda davriy nashrlarda ko'pincha jurnalistlar tomonidan yozilgan xususiyatlar (xususiyatlar uslubiga qarag) mavjud bo'lib, ularning aksariyati chuqur jurnalistik yozishning ushbu shakliga ixtisoslashgan. Badiiy maqolalar odatda yozishning uzunroq shakllaridir, to'g'ridan to'g'ri xabarlariga qaraganda uslubga ko'proq e'tibor beriladi. Ko'pincha ular fotosuratlar, chizmalar yoki boshqa „san'at“ bilan birlashtirilgan. Ular, shuningdek, tipografik effektlar yoki ranglar bilan ta'kidlanishi ham mumkin.

Yozish xususiyatlari to'g'ridan to'g'ri yangiliklar yozishdan ko'ra ko'proq talabchan bo'lishi ham mumkin, sababi esa jurnalist voqea faktlarini to'g'ri to'plash hamda xabar qilish uchun bir xil kuch sarflashi kerak bo'lsa-da, uni yozishning ijodiy va qiziqarli usulini ham topishi kerak. Yetakchi yoki munozarali lede (yoki hikoyaning birinchi ikki paragrafi; Yong'oq grafigiga qarag) o'quvchi e'tiborini jalb qilishi va shu bilan birga maqola g'oyalarini to'g'ri aks ettirishi kerak. XX asrning oxirgi yarmida to'g'ridan to'g'ri xabar berish bilan bir qatorda badiiy yozish o'rtasidagi chegara xiralashdi. Bugungi kunda jurnalistlar va nashrlar yozishga turlicha yondashuvlarni sinab ko'rmoqda. Tom Wolfe, Gey Talese, Hunter S. Tompson bu misollardan ba'zilar. Shahar va muqobil haftalik gazetalar farqi xiralashtirishda yanada uzoqroqqa boradi. Ko'plab jurnallar to'g'ridan to'g'ri yangiliklardan ko'ra ko'proq xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi teleko'rsatuvlar muqobil formatlar bilan tajriba o'tkazdi. Yangiliklar ko'rsatuv deb da'vo qilingan ko'plab teleko'rsatuvlar an'anaviy tanqidchilar tomonidan bunday deb hisoblanmadi, chunki ularning mazmuni va usullari qabul qilingan jurnalistik standartlarga mos kelmaydi. Boshqa tomondan, Milliy jamoat radiosi odatda yuqori sifat standartlariga javob beradigan to'g'ridan-to'g'ri xabarlar, xususiyatlar va ikkalasining kombinatsiyasini aralashtirishning yaxshi namunasi hisoblanadi. AQShning boshqa jamoat radiosi yangiliklar tashkilotlari ham xuddi shunday natijalarga erishdi. Gazetalarning aksariyati, televideniye va radio yangiliklari tashkilotlari kabi, yangiliklar va nashrlar o'rtasidagi aniq farqni saqlab kelmoqda. (3)

O'zbekiston media kontentida: Voqea joyi, jinoyat izi, bir jinoyat izidan, qilni qirq yorib kabi kriminal mavzular yoritiluvchi ko'rsatuvlar berilgan.

Chet el tajribasini kuzatsak kriminal ko'rsatuv va reportajlarda xronologiya masalasiga ko'zimiz tushadi.

Xronologiya (xrono... va ...logiyadan) – 1) tarixiy voqealarning davriy tadrijiyligi; 2) vaqt o'lchovi haqidagi fan. Jinoyat xronologiyasi bu sodir bo'lgan jinoyatning vaqti va davomiyligini aniqlashda muhim hisoblanadi.(4)

Kriminal mavzular yoritilishida jurnalist asosan faktlarga tayanib mavzu tanlaydi. Mavzular mushtariyni o'ziga tortadigan, voqeaga emotsiya uyg'otuvchi va asosan darak va so'roq gap formalaridan iborat tuzilgan bo'ladi. Kriminal mavzularga to'xtalsak: Kelinini zo'rlab o'ldirgan qaynota, Qo'shiqni deb o'lgan yigit, qabrdagi murda qayta tirildi, Zinapoyadagi qotillik, Nomus uchun o'ldirilgan o'gay ota, Jigarlarini o'ldirib molxonasida yoqib yubordi kabi. Mavzu tanlashda raqamlar va qotillik detallari nomidan foydalanib ham mavzular qo'yiladi. Masalan: Yosh bolakayning bolta bilan chopilgan murdasi topildi, 33 yoshli ayolning qabri qayta ochildi. Shuningdek mavzularda asosan jinoyatning qanday yo'l bilan sodir etilganligi, jabrlanuvchining murdasi qay holatda ekanligi mavzuga olib chiqiladi. Bu esa auditoriyada qiziqish uyg'otadi. Kriminal materillarni berishda jurnalist avvalo faktlarni to'liq o'rganishi, yetarlicha manbalardan ma'lumot olishi shuningdek etika normalariga rioya qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jinoyat>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tergov_jurnalistikasi
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jurnalistika_janrlari
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xronologiya>

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INFLUENCE OF THE INTERNET - COMMUNICATION ON THE SOCIAL BEHAVIOR OF THE YOUTH

Mirzaev Jamshid Turdalievich

Gulistan State University of the Republic of Uzbekistan

Lecturer at the Faculty of Psychology (Basic Doctoral Student)

Annotation: *The first developments of the Internet were made in 1969. in the USA. The Internet as we know it was born in 1992. In 2020, as of January, the number of Internet users in the world exceeded 4.5 billion, and now it will certainly be even more. This article is based on a methodological analysis of our scientific work on the topic "Psychological aspects of the influence of Internet communication on the social behavior of young people." Selected for our scientific research (questionnaire survey according to the author's methodology, Kimberly Young's test (adapted by V.A. Loskutova); based on a general scientific analysis of our methods. In the objects of research we have chosen, that is, in our respondents, we see the results of the study according to our author's methodology and "Kimberly-Young methodology" Research was conducted in the capital of the Republic of Uzbekistan and in the Syrdarya region, Jizzakh universities .*

Young people, as a special group of the population with specific age-specific behavioral patterns, are of the greatest interest for studying the relationship between Internet communication and social behavior .

Keywords: *influence of the Internet, communication, socialization, modern youth, Internet addiction, Kimberly-Young methodology*

Research relevance. In the modern world, the rapid development of social influences, the development of science and technology, the increase in the flow of information pose new challenges for the sciences related to the human factor. Especially socio-psychological stress, rapidly developing in developed countries, has an impact on the economic, political, spiritual and cultural life of developing countries.

Computer technologies, opening the door of wide opportunities for humanity, "disconnect" it from the real world. It is called " the inability to psychologically control the feeling of satiety with new information, namely the dependence on the computer . " It takes several years to develop traditional forms of addictive behavior, and Internet addiction in Internet addicts occurs 6 months after the start of using the Internet, this figure is 25%, in the next 6 months - 58%, after 1 year - 17%. . Such studies increase the possibility of preventing the formation of computer addiction.

The problem of Internet addiction in the global education system has been studied in psychology since 1994 . Today it is one of the "fashionable topics" in psychology. Many works are dedicated to him. Internet addiction has become a real problem of modern society. The causes of Internet addiction are often related to communication. Nowadays, the Internet is attracting more and more people, and therefore its influence is growing. In accordance with

these lines of research, special attention is paid to socio-psychological research to ensure the correct perception of the use of the Internet, information, promotions, behavior on various topics among students of higher educational institutions.

In our country, strategic tasks are being implemented aimed at increasing the effectiveness of youth policy. In particular, the Law of the Republic of Uzbekistan "On State Policy towards Youth" , the creation of the Agency for Youth Affairs ,. taking politics to the next level in the context of priorities such as "Information and Communication Technology and Youth". The tasks of protecting ideas have been developed. To ensure the fulfillment of tasks in these areas, psychologists are required to study the psychological aspects of the influence of Internet communication on the behavior of young people and are looking for opportunities to find new scientific solutions to protect against various information attacks .

No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan of January 28, 2022 " On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 ", No. PQ-4768 of June 30, 2020 "Youth of the Republic of Uzbekistan on organizing the activities of the agency of the Ministry of Education, Culture, Sports, Science and technologies", No. PZ-3160 of July 28, 2017 "On improving the efficiency of spiritual and educational work and developing the sphere to a new level" , In the third direction "5 important initiatives to raise the morale of young people and the meaningful organization of their leisure time", adopted President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev, "Society between the population and youth organizing the effective use of computer technologies and the Internet", "Improving the mechanisms of spiritual and educational propaganda in the formation of innovative thinking of young people and strengthening the spirit of loyalty to the national idea", Resolutions of May 3, 2019 No. PQ-4307 "On additional measures to improve the efficiency of spiritual and educational work" and the tasks defined in other legal documents related to this activity, this dissertation to a certain extent serves to ensure its implementation.

The level of knowledge of the problem. Among the urgent socio-psychological problems are the formation of information and psychological security in the world community and the attitude to this process, the role of electronic media and the Internet in the process of globalization, their influence on the processes of moral and aesthetic education.

Among foreign studies, among scientific papers devoted to the study of the phenomenon of Internet addiction, K. Young , M.Griffist , A.Goldberg, R.Davis, Noteworthy are the works of J. Grohol , D. Greenfield, K.Surratt, J.Moreichen-Martin, P. Schumacher, C. Chu and other authors. They explained the concept of "Internet addiction", clarified the evaluation criteria and tools. The results of the research work carried out served for the development of preventive measures by many practitioners. Their work determines the current state and prospects for studying the problem.

C. Young, A. Goldberg, D. Greenfield, M. Orzak (in the USA), Ch. Chu (in Asia), O. Egger, M. Rauterberg (in Europe) were among the first to start researching Internet addiction. criteria for diagnosing Internet addiction and recommendations for its treatment have been developed. On the initiative of some of them, a separate website was created for Internet addicts and a virtual clinic was introduced.

Researchers of the Commonwealth of Independent States identified the communication capabilities of the Internet in the context of the development of new educational, information, political and other technologies, looked for prospects for using the psychological features of virtual communication to implement traditional social practices (S. Bodker, D.V. Ivanov, E.B. Morgunov, N.V. Romanovsky, A.V. Chugunov, E.V. Kushina and others). When studying the nature of social behavior, we studied the subject-subject approach (Ch. Cooley, Yu. G. Mead, V. I. Thomas, F. Znanetsky, etc.), individual and group behavioral activity (L. Leontiev, S.L. Rubinshtein, G.M. Andreeva, A.V. Petrovsky and others). others) studied. The problem of virtual communication of young people is actively studied by leading experts, among them I.A. Smirnov, E.V. Smishlyaev, E.A. Ignatiev, A.A. Zamorkin, O.V. Kretov and others.

I.N. Rozina, A.A. Avetisova, O.N. Arestova, L.N. Babinina, In the works of G.U. Soldatova, E.P. Belinskaya, others studied the motives for using the Internet, social and socio-psychological causes of Internet addiction. A.E. Zhichkina presented the Scale of Internet Addiction as a result of studying the relationship between Internet behavior and the social identity of adolescent users. E. P. Belinskaya Internet communication considered its socio-psychological characteristics, social factors and emphasizes that the family environment plays a special role in the emergence of Internet addiction.

In Uzbekistan, the phenomenon of Internet addiction has become the subject of research only in the last decade. Uzbek scientists have conducted a small number of studies in this direction, and the main attention is paid to the study of the negative impact of addiction to computer games on the mental development of a child. The problem of diagnosing and correcting teenagers' addiction to computer games in the Uzbek national environment was covered by N.M. Dolimova (2010), in which an increase in restlessness and aggression was found in adolescents addicted to computer games. Rakhimova I.I. studied computer game addiction in primary school, adolescence and early adolescence, as well as aspects of relationships with family relationships and sociometric status (2017).

In the context of globalization, researchers in our country are trying to creatively approach political, legal, scientific and philosophical issues, issues of information leakage, information terror, the impact of information on moral and aesthetic education. Among our scientists: E.G'.Goziev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, R.S.Samarov, B.M.Umarov, U.Kadirov and their students, including M.A.Utepbergenov, E.Sh.Usmanov, G.T.Adgarova, O.T.To'raeva, Sh.Sh. Salaeva, R. Kh. Dushanov, N.Kh. Lutfullaeva, A.T.Kodirova, X.X.Zhabbarov, T.B.Norimbetov, see that a number of scientific studies have been carried out, such as psychological ways of forming a healthy ideology.

Object of study how - the process of determining the psychological aspects of the influence of Internet communication on the social behavior of young people was organized.

The subject of the research is the content, methods, means and forms of the process of determining the psychological aspects of the influence of Internet communication on the social behavior of young people.

Research methods: analysis of theoretical sources, surveillance, interview, socio-psychological survey "Pupils' ideas about the influence of Internet communication on their behavior" (author), Kimberly Young test (adapted by V.A. Loskutova); Methodology "Arrest of

value" (M. Rokeach); Mathematical statistics, correlation analysis (p-Pearson correlation coefficient), Excel programs were used to process the results obtained using the "Stability in Behavior" questionnaire (R. Lazarus), the "Self-Confidence" methodology by N. Rydosny and research methods. .

Scientific novelty of the research:

theoretically analyzed the concept and features of Internet communication, types of Internet communication, their significance in modern society, socialization in psychology, interpretation of the study of the influence of Internet communication in scientific research;

psychological characteristics of Internet addicts, such as "emotional instability", "excessive indulgence", "dissatisfaction with oneself", "self-disclosure" - a psychological factor that weakens the control of the emotional experiences of young people, and their general guidelines and methods of conclusion are determined on the basis of content analysis;

It was determined that the following characteristics reflected in the behavior of the younger generation when using the Internet are demonstrative behavior, social demand, the importance of communication, the phenomena of social elasticity and openness;

actively used the types of Internet communication, studied the components of a certain group of young people, developed an author's model of social behavior of young people based on the manifestation of socio-psychological characteristics, the personality of users, age, typical signs, the social behavior of users developed.

Main part

The increase in the human population has created situations such as harmony or conflict in the distribution between them. It's like the law of yin and yang. Their widespread involvement in physical labor led to an increase in experience and the integration of this experience into civilization. Civilization has enriched people's ability to think. The intellectual development of mankind has led to a great contribution to the development of science and technology. The American futurist E. Toffler argued that the progress of science and technology occurs in waves.

The first wave is associated with the development of agriculture, and the emergence of this wave was 10,000 thousand years ago. It destroyed the forms of the primitive communal system, created a division of labor and family organizational structures. The second wave of industrialization began 300 years ago and created the most powerful, compact, expansionist social system the world has ever known. The third wave arose in the 50s of the 20th century and was associated with the "information explosion" and the growth of information, as a result of which a person could not manage its volume without the help of new information technologies. That's why it's called technological development. The "first wave" wars are for the distribution of land, the second - for physical productivity, and the "third wave" battles for the acquisition and control of knowledge. It was technological development that became the basis of the information attack.

Information security specialists have identified 5 main classifications of the danger of the negative consequences of the Internet and social networks if students do not use them positively.

1. Weakening of parental authority due to uncontrolled use of the Internet. Sometimes parents leave him alone with the global network, saying that "my child will grow up" or "my child should be busy with some business and not bother me." Such situations are considered the first step in the uncontrolled use of the Internet by children, and as a result, children do not listen to their parents, get used to deceiving them and disrespecting them.

2. Culture, ideas, ideologies opposite system. life this complex during the course of growing oneself to show and in society one's own place to adopt ways looking for an independent mood to be in need feels this way the Internet in networks spread and increase against what is being done from yes the system, other subculture currents, religious extremist in the stream of ideology is still a person as a stable formation did not have time young to a generation of great risk giving birth.

3. Anonymous Internet communications. Anonymous communication insult, discrimination and stupidity do like actions reason to release can


4. Personal information loss is the Internet - a network of users (children and adolescents) is also reliable and

happened due to openness will this circumstance Social in networks from the list transition during, online purchases during the chat and on the forums of the questionnaire to fill in during observed.

5. To the addiction games online games are very interesting, their creators children the game in the process more time during stay care for all measures seeing to put this cases until the child spiritual impoverishment, the game addicted existence to stay take will come to the games addicted existence left, a lot of children food, lesson preparation forgetful and insomniac will


That is why for young people information security to provide in order for our country to September 9, 2017 adoption made their children to health harm deliverer from information protection to do health in article 5 of the law on harm deliverer from information protection to do in the field of the state policy of the main direction set posted

Universities participating in our study and the coverage of students and youth is as follows;




Our respondents are presented in this diagram in the section Universities: 166 students from Gulistan State University (GulDU) make up 41% of the total number of participants, from Jizzakh State Pedagogical University (JizzahDPU) 32% of 110 participants, from Toshken International University. Chemistry (KIUT) 31 out of 124 participants.

Rating of social networks chosen by respondents in our author's survey



In our author's methodology, the levels of selection of the Internet competition by our youth were as follows (those who chose the Internet competition a lot, and those who chose it less).



147 of our young people chose the online competition more than the respondents who took part in our survey; Separately, all the results of 1 young man who chose the Internet competition in full, 90 who chose the Internet competition more, and 56 who chose the Internet competition on average were studied. Based on these selected indicators, a model of social behavior of young people actively using the Internet was built.

The results of the Kimberly Young test (internet addiction of our respondents) are presented in our table below.

Table 1 .

The results of the study of Internet addiction among young people

OTM	Number of students	1st level No dependence 20-49 points		Level 2 internet addiction 50-79 points		Level 3 Internet addiction Risk level 80-100	
		Number	%	Number	%	Number	%
Members	Boys (160)	91	22.75	69	17.25	0	0
	Girls (240)	187	46.75	53	13.25	0	0
	Total (400)	278	69.5	122	30.5	0	0
GulDU	Boys (58)	24	6	34	8.5	0	0
	Girls (108)	82	20.5	26	6.5	0	0
	Total (166)	106	26.5	60	15	0	0
JDFU	Boys (50)	35	8.75	15	3.75	0	0
	Girls (60)	49	12.25	eleven	2.75	0	0
	Total (110)	84	21	26	6.5	0	0
KIUT	Boys (52)	32	8	20	5	0	0
	Girls(72)	56	14	16	4	0	0
	Total (124)	88	22	36	9	0	0

The conducted research on the psychological aspects of the influence of Internet communication on the social behavior of young people allows us to draw the following conclusions.

1. The analysis of the problem made it possible to present a model of social behavior of young people who actively use the Internet in society. Young people can be conditionally divided into groups characterized by the following behavioral characteristics: demonstrativeness, social demand, the importance of communication, social elasticity and openness. These manifestations of social behavior have socio-psychological characteristics and are manifested in the choice of a certain type of Internet connection.

2. The socio-psychological characteristics of young people are associated with the activity of using Internet communications. Highly active users highlight love and friendship as the dominant terminal value (self-respect) and note such personal qualities as cheerfulness and sensitivity as a means to achieve goals. For users of medium and low activity, the main goal is health (physical and mental), and the value is responsibility, a sense of duty, the ability to keep one's word.

3. For highly active users of Internet communication, the most attractive coping strategy is the search for social support, moderate - positive reassessment, low - problem planning. In problem situations, highly active people focus more on solving them using external resources rather than their own.

4. Online communications focused on real-time video, such as video chats and online broadcasts, are preferred by young users with visual behavior. They are prone to narcissism, the manifestation of unsportsmanlike qualities, cheerfulness as a way to achieve life goals, not to take responsibility in problem situations. This group often turns to experiments with their image, changing their appearance with the help of cosmetology.

5. Types of Internet communication that involve more formal relationships and some internal communication rules are e-mail and forums. They are preferred by active young users with high social demands. These are the norms of behavior approved by society, sociality; show more attention and tolerance for other people's opinions and, at the same time, have cases of external support in stressful situations.

6. The main types of Internet communications aimed at direct communication are instant messaging programs such as instant messengers and chats. This type of Internet communication is chosen by active young users with a high need for communication. With their help, the user can fill in the missing emotional richness of life (first of all, an active position as a value-targeted one). When a problem arises, they often seek social support, so it is important for them to have good and loyal friends. Frequent and lengthy telephone conversations, correspondence, participation in surveys, voting, training, rallies, group games are recorded.

7. Social networks as a type of Internet communication are known for their social adaptive effect among active youth. This is reflected in changing behavior (feeling of presence) by focusing on the expectations of the virtual community. This leads to the fear of being judged or not being judged. Focusing on social media (virtual news coverage) leads to a decrease in



attention, and the desire to "stay connected" leads to a distraction from the real environment and activities.

8. Aimed at the regular posting of information about the events taking place in it in the form of text, photo or video reports. This type of Internet communication is chosen by young active users striving for popularity. For them, social recognition is the goal of value. Following new fashion trends and public figures leads to an increased fantasy of imitation and fame. The ability to use an Internet resource to gain popularity determines the usual behavior: popularity, visits to unusual places, fitness clubs, flash mobs and photo shoots, an increased tendency to engage in extreme sports.

In general, the results of the study on establishing the relationship between Internet communication and the social behavior of young people made it possible to confirm the hypothesis put forward and determine further prospects for studying this problem. Certain characteristics of social behavior can become a means of building more effective communication, choosing the right means of communication, depending on the intended goals. We believe that further study of the problem is related to the deepening of the study of the role of Internet communications in the regulation of the social behavior of users in different age groups and in different areas of application.

ENG OG`IR GUNOH

Namangan viloyati Chortoq tuman MMTB ga qarashli 21-maktabning

Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Ergasheva Ra`no

Qishlog`imiz uncha katta emas. Bahavo, sersuv, xullas, nima eksangiz unadigan, tuprog`i unumdor, go`zal qishloqlardan biri. Odamlarini aytmaydizmi? Bir-birlariga juda mehribon. To`y-u ma`rakalari qo`ni-qo`shni, qarindosh-urug`, mahalla-ko`yisiz o`tmaydi. Agar hashar bo`lib qoladigan bo`lsa, keksa nuroniy oqsoqollari duo qilib tursalar, yoshlari, navqiron yigitlar ish bilan mashg`ul bo`ladi. Ayollari ham qarab turmaydi. Biri palovxonto`rani guruchini o`ynatib yuborsa, biri non yopadi. Yana biri issiq qatlama-yu, somsalar yopib, hasharga shoshadi.

Lekin guruch kurmaksiz bo`lmaydi deganlaridek, yaxshi odamlar orasida qo`shtirnoq ichidagi baxil kimsalar ham topilib turar ekan.

Men bir oilani bilar edim. Uch og`ilni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazishdi. Chiroyli to`ylar qilib, yaxshi niyatlar bilan kelin tushirishdi. Har bir o`g`ilga uy-joy qilib, vatan qilib berishdi. Navbat kenja o`g`ilga yetdi. Surpa qoqdi o`g`ilga mahallaning tanti, mehribon, bir kayvoni onaxonining qizini olib berishdi. Kelin saranjom-sarishta, oqila, qo`li gul pazanda edi. Qaynota-qaynona kelinlaridan juda xursand, tinmay duo qilishar, yaratganga shukrona aytishar edi. Ketma-ket beshta qiz nabirali bo`lishdi. Nabiralar shirindan shakar, buvi-yu bobosining ermaklari edi.

Nima bo`ldi-yu bu oilaga ko`z tegdi. Kenja o`g`il Usmonbek og`ir kasallikka chalindi. Ko`rsatmagan doktori, boqirmagan tabibi qolmadi. Usmonbek kundan kunga holsizlanib, dardi zo`riqib borar edi. Xotini, qizlari, ota-onasi tinmay duo qilishar, ollohimdan dardiga shifo tilashar edi. Aksiga olganday kenja qizi O`g`iloy ham tinmay chirqirab yig`lardi. Beshinchi qizlariga orqasidan o`g`il ergashtirib kelsin deb O`g`iloy ismini berishgan edi. Bemor tongga yaqin uzildi. Besh qizi bilan kelin beva qoldi. Chol-kampir bu og`ir judolikni ko`tara olmay qaddilari bukildi. Oilaga ketma-ket musibatlar yo`gila boshladi. Qaynonasi Mehri xola kenjatoyining dog`ini ko`tara olmay, omonatini topshirdi. Tohir otaga bu musibat ham bormidi. Jondan aziz farzandi, bir umrlik yostiqdoshining ayrilig`i otaning qaddini bukdi. Turolmay to`shakka mixlanib qoldi. Qiynalib voyaga yetkazgan, norg`ulday-norg`ulday o`g`illari - hammasi o`z ishi bilan band edi. Nima uchundir o`g`illar o`z otasidan xafa edilar. Keyin bilsam, ota bor merosini kenja kelinning nomiga o`tkazib bergan edi. Kelin boyaqish qizlari bilan birgalikda xasta qaynotasini ham qaray boshladi. Ovqatlantirar, yuvintirib, kiyimlarini ham o`zi almashtirardi. Ota o`g`illaridan ko`ra kelinidan mehr ko`ra boshlagan edi. Davangirday o`g`illardan hali ham darak yo`q edi. Kunlar shu zaylda o`ta boshladi. Kelin barcha qiyinchiliklarni yehgib o`tdi. Ro`zg`orni amal-taqal tebratar edi. Bo`sh qoldi deguncha, hovlining bir qarich yerini ham bo`sh qoldirmay loviya, mosh, ko`k piyoz, sarimsoq piyoz ekardi. Bozorga olib chiqib` sotib kun ko`rardi.



Baxt ham egiz, musibat ham egiz deganlariday, shafqatsiz o`lim bechora otani ham olib ketdi. Kelin besh qizi bilan katta hovlida yolg`iz, huvillab qildi. Yig`ladi, siqtadi, oxiri taqdirga tan berdi.

Endi gapni aka-ukalardan eshiting. Ularning paytavalariga qurt tushdi. Chunki kenja kelinga katta uy meros qolgan edi-da. Ular kelinlarini yomon otliqqa chiqarmoqchi bo`lishdi. Hatto ba`zi odamlarga ham o`ynash qilib ko`rishdi. Lekin qo`shnilar kelinning bunday ayol emasligini isbotlab berishdi. O`g`illardan birining ichiga o`t yoqsa yorishmas, qanday qilib bo`lsa ham uyning bir qismini olish yo`llarini o`ylay boshladi. Kun ora janjal ko`tarib, oilani, qo`ni-qo`shnilarni ham tinchini buza boshlabdi. Kelin boyaqishni boshqa sabri qolmadi. Nima bo`lsa bo`lar, bir kunimni ko`rarman deya, o`z qo`li bilan ekib, o`stirgan bog`ini berishga majbur bo`ldi. Oh-u nolalarini yolg`iz Ollohga to`kib soldi. Aka-ukalar xursand bo`lib, daraxtlarini kesib, o`tin qilishib, bo`sh joyni qanday qilib bo`lib olishni o`ylar edi.

Aka-ukalar o`z niyatlariga yetishdi. Taqdirni hukmini qarang-ku, bir kechaning o`zida akalardan birining sigiri nobud bo`ldi. Birining bugun-erta ko`zi yoriydigan qizining farzandi nobud bo`ldi, uyini zo`rg`a yong`indan saqlab qoldi.

MUSIQA DARSLARIDA MUSIQA SAVODI O'RGATISH METODIKASI

Xaitova Nodira Paxretdinovna
Surxondaryo viloyati Termiz tuman
25-maktab musiqa o'qituvchisi

Annotatsiya: *Musiqa savodi musiqa darsining bo'limlaridan biri bo'lib, xor bilan qo'shiq aytishga nisbatan ikkinchi darajali o'rin tutadi. Shunga qaramasdan musiqa savodi o'quvchi bolalarning musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi: musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang'ich bilim beradi, ularning saviyasini oshira borishga yordam qiladi.*

Kalit so'zlar: *musiqa, ritm, tovush, grafik, registr*

Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabat tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi, eng muhimi esa notaga qarab kuylash va ashula aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, xor ovozlarni aniq talaffuz etishga va xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiqlar o'rgatishni osonlashtiradi. Musiqa darsida musiqa savodiga juda oz vaqt 5-10 minut ajratiladi. Shu sababli har gal qo'shiq o'rganish va musiqa asarlarini tinglash jarayonida qo'llash va eshitish malakalarini hamda musiqa bilimni mustaxkamlab va chuqurlashtirib borishi kerak. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodi talab olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llash hamda savod o'rgatish bilan birgalashib qo'shiq aytishni bir-biriga chambarchas bog'lab olib borishdan iborat. O'quvchilar mustaqil qo'shiq ayta oladigan va notanish kuylarni notaga qarab o'rgana oladigan bo'lgan vaqtlardagina musiqa savodini o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadga erishilgan bo'ladi. Musiqa savodini o'rganish bolalarning musiqa tovushlarini eshitish sezgilarining o'sishiga asoslanishi kerak. O'quvchi biror tovushni ovoz bilan esga tushunishdan oldin uning qanday yangrashini aniq- ravshan tasavvur qilishi va eshitib bilishi, ya'ni ko'rayapman-eshitayapman-kuylayapman deb, ko'zga ko'rinadigan narsadan eshitiladigan narsaga qarab borishi lozim. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda ham musiqa savodini o'rgatish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi.

Musiqa savodini o'rgatishning boshlang'ich davri Musiqa savodini o'rgatish I-sinfda boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida bir qancha musiqaviy malakalar hosil qilgan bo'ladilar.

Ko'pgina qoshiqlar va o'yinlar o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar va h.k.

Uyda tarbiyalanadigan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radiyo va televideniye orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy va sistemaga solinmagan bo'lsa-da, ammo o'qituvchi bolalarga musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishini mumkin.

I-sinfda o'quvchilarning butun musiqa ta'limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o'qituvchi o'qitish metodikasini ayniqsa yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik bolalarning yosh

va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va vokal qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. 1-sinfda ta'limni shartli ravishda ikki bosqichga asosiy maqsad -bolalarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Bu bosqich odatda o'quv yilining birinchi yarmini to'liq egallaydi. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zma kabi o'ziga xos xususiyatlarini ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak.

O'quv yilining ikkinchi yarmi - ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni musiqa tovushlarining chizma (grafik) usulda ifodalanishi - nota yozuvini bevosita o'rganishga kirishiladi.

O'quv yilining birinchi yarmi tovushning baland-pastligi. Registrlar

Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini o'rganish bolalardagi mavjud tasavvurlarini aniqlashdan boshlanadi. Bu tasavvurlar ko'pincha noto'g'ri bo'ladi. Dastlab bolalar terminlarni adashtirib, baland tovushlarni past tovushlar deb va aksincha, balandlik haqidagi tasavvurini qandaydir katta bir narsa bilan bogliq bo'ladi (baland bo'yli erkak baland tovush va h.k.) Shuningdek, ular ko'pincha baland tovushlarni «ingichka tovushlar» deb, past tovushlarni «yo'g'on tovushlar» deb atashadi. Shuning uchun bolalarni bir yo'la to'g'ri terminlardan foydalanishga o'rgatish, baland va past tovushlarni eshitib farqlay bilish va to'g'ri atashga odatlantira borish kerak.

Balandligi jihatidan turlicha bo'lgan tovushlarni emas, balki registr tushunchasi bilan birlashgan tovushlar gruppasini o'rganishdek ana shu uzoq davom etadigan, serdiqqat ish boshlanadi. Bu termin haqida bolalarga ma'lumot bermaslik mumkin, ammo registr tushunchasining mohiyati haqida ularning aniq tasavvur hosil qilishlari, kuyi, o'rta yuqori registrlardagi tovushlarni ajrata bilishga o'rganishlari muhimdir.

Bolalarga tanish bo'lgan qo'shiqni ijro etishning ta'siri kuchlidir: shuning uchun ham dastlab ularga agar ayiq yoki fil aytishni bilganida edi, uni qanday ovoz bilan aytishi yoki qushlarning qanday sayrashi mumkinligini tasavvur qilishi taklif etiladi.

«Baland» yoki «past» tovushlar haqidagi tushunchani izohlab berishda tegishli assotsiatsiyalar hosil qilish uchun bolalarning hayotga, maishiy turmushga xos bo'lgan qushchaning osmonda chirillab sayrashini, yoqimli, jarangdor ovozi go'yo yuqoriga-osmonga intilayotgandek yengil va ravshan-sofligi - bu tovushlarning baland-pastligini, aksincha, ayiq, fil, arslondan eshitiladigan tovushlar, xayvonlarning o'zlari singari, xuddi yerdan ko'tarila olmagandek qo'pol, og'ir-past tovushlar ekanligini gapirib berish mumkin. Obrazlilik bolalarning yorqin va aniq musiqaviy taasurotlar hosil qilishlariga yordam beradi.

Registrlar haqidagi tushunchani mustaxkamlash va o'zlashtirishni tekshirib ko'rish uchun quyidagi o'yin-mashqni o'tkazish foydali bo'ladi. O'qituvchi qo'shiqni turli registrlarda chaladi, bolalar esa ularni qo'l harakatlari bilan ko'rsatib borishlari kerak. Agar qo'shiq yuqori registrda chalinayotgan bo'lsa, ular qo'llarini yuqoriga ko'tarishadi, pastki registrda chalinayotganda-pastga tushirishadi, o'rta registrda-qollarini oldinga uzatishadi. Bu o'yinni tikka turib bajarib yaxshiroq bo'ladi. U holda, ko'zlanadigan asosiy maqsaddan tashqari, bir yo'la go'yo jismoniy yengillikka ham erishilib darsda baland ruh paydo bo'ladi. Tovushlarning baland-pastligini aniqlash birinchi oktava bilan cheklangach, shu tovushlarni eshitishnigina emas, balki, ularni kuylashni ham talab etish kerak. O'shanda bolalarning eshitib tasavvur hosil qilishlari bilan bir vaqtda ular qo'shiqchilik sezgilari hosil bo'la boradi, chunki eng baland tovushlar qo'shiq aytishda o'rtacha va past tovushlarga qaraganda ko'proq zo'r berishni talab etadi. Shu ish bilan bir

qatorda qo'shiq o'rganish jarayonida o'quvchilarga avval qochiriq shaklidagi bir tovush, keyinroq esa o'ziga xos melodik misolga (davraga) mo'ljallangan ikki mashqni kuylash taklif etiladi. Bunda bolalarning diqqatini shunga ko'proq tortish kerakki, birinchi holatda ular ayni bir tovushni takrorlashadi, ikkinchi holatda esa ikki turli tovushni kuylashadi.

O'quvchilarda notaga qarab kuylash misollari etarli ravishda to'plangandan keyin, quyidagi topishmoq - o'yinni o'tkazish mumkin: tanish qo'shiq grafik shaklda tasvirlanadi va buning qanday qo'shiq ekanligini topish, keyin esa uni aytish taklif etiladi. So'ngra qo'shiq nota yozuvidan topiladi va aytiladi. Agar o'quvchilarning ko'pchilik qismi bu topshiriqni muvaffaqiyatli bajara olsa, ancha murakkab topshiriqni ham beraverish mumkin. O'qituvchi mashqlar uchun qo'shiqlar tanlar ekan, ularni aytishga qulay diapazondagi namunalardan bo'lishiga intilmog'i kerak, chunki bunday tanlash aniq talaffuz etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratadi.

Tovushlar cho'zimi va ularning yozilishi

Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini egallash ustida olib boriladigan ish jarayonida ularning cho'zimi tushunchasi asta-sekih kiritiladi. musiqa asarlaridagi tovushlar faqat muayyan balandlikkagina emas, balki muayyan cho'zimga ham ega ekanligiga, qisqa va uzun-cho'ziq tovushlar borligiga diqqatni jalb etiladi. Uzun tovushlarni cho'zib aytish kerak. Bunda qo'shiqning grafik rasmdan foydalaniladi; tovushlar bu grafik rasmda cho'zimga qarab qisqa yoki uzun chiziqchalar bilan ko'rsatiladi.

Ushbu mashqlarni bajarishda o'qituvchi avvalo qo'shiqni qanday yozish kerakligini tushuntirib va ko'rsatib beradi, so'nshiqni yoki melodik parchani aytadilar, keyin uning ritmini qalam bilan parta qopqogga chertmak chalib ko'rsatadilar, shundan keyin o'qituvchi kuyning ritmik tuzilishini daftarga yozishni taklif qiladi, tekshirib ko'rish uchun bolalardan biri uni doskaga yozib qo'yadi.

Notalarni yozish. Nota yo'li. Kalit

O'quv yilining ikkinchi yarmida (ikkinchi bosqich) nota yozuvini egallash mashg'ulotlariga kirishi mumkin. O'qituvchi nutqomizni, har bir so'zimizni harflar bilan yozish mumkin bo'lgani kabi, musiqani ham yozish mumkinligini, ammo buning uchun musiqaga xos harflarni - notalar deb ataladigan belgilarni bilish kerakligini tushuntirib beradi, notani yaxshi bilgan kishining har qanday qo'shiqni ayta olishini uqtirib o'tadi.

Notalar nota yo'liga yoziladi. Bunda o'qituvchi nota yo'lining ahamiyatini izohlab beradi; nota yo'li - nota yoziladigan o'rindir. U doskaga nota yo'lini chizib ko'rsatar ekan, bolalarning chiziqlar sanbg'i boshlanadigan joy - eng pastki chiziq -birinchi chiziq ekanligini bemalol esda qoldirishlari uchun pastki chiziqni chizishdan boshlashi lozim. So'ngra u notalarning chiziq'larga, chiziq'lar orasiga, chiziq'larning ustiga va ostiga yozilishini, asosiy chiziq'lar etishmay qolganda esa notalar qo'shimcha, qisqa chiziq'larga yozilishini uqtiradi. Shundan keyin o'qituvchi, nota chizig'i boshida maxsus belgi - skripka kaliti bo'lmaguncha yozilgan notalardan birontasini ham atay olmaymiz, bu kalit notalar nomini ochib beradi, deydi. U ushbu kalitning nima uchun skripka kaliti deb atalishini aytar ekan, kalitning ikkinchi nomi bo'lgan Col kaliti bilan ham o'quvchilarni tanishtiradi. Col notasining qaerda turganligini bilib olgan o'quvchi boshqa notalarni ham topishi mumkin. Bolalar notaning o'rnini qanday topish kerakligini juda

tez tushunib oladilar; bu narsa maroqli o'yinga aylanib ketadi; o'yin paytida bolalar qaerda qanday nota yozilishini esda qoldiradilar.

Bolalarning nota yozuvini bemalol tushunib, birinchi oktava doirasidagi har bir notaning o'rnini yaxshi bilib olishlari uchun quyidagi mashqlarni tavsiya qilish mumkin.

a) O'qituvchi notalarning nomlarini aytib turib yozdiradi yoki doskaga yozib beradi. O'quvchilar esa ularni nota yo'liga yozishlari kerak;

b) O'qituvchi qo'shiq kuyni doskaga yozadi hamda o'quvchilardan uni daftarga ko'chirib yozishni va shundan keyin notalarning nomlarini yozib qo'yishni taklif etadi.

Bu mashqlardan barcha o'quvchilar mustaqil ravishda bajarishadi, so'ngra ulardan biri shu mashqlarni doskaga yozadi, boshqalari esa o'z ishlari bilan solishtirib chiqadilar. Shunga o'xshash mashqlarni uyga vazifa qilib topshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Akbarov .«Musiqqa lug'ati»
2. Apraxina O. «Методика музыкального воспитания в школе» М. 1983

ABDULLA ORIPOVNING “O‘ZBEKISTON” QASIDASI

Abduqodirova Nozima Akmal qizi

*Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti, O‘zbek tili ta’limi fakulteti, “O‘zga tilli
guruhlarda o‘zbek tili” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘zbek she‘riyatining betakror siymosi, o‘ziga xos uslub sohibi, o‘zining ajib dunyosiga ega, xalqimizning suyukli farzandi Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” qasidasiga bag‘ishlanadi.*

Abdulla Oripov – rostgo‘y ijodkor sifatida xalqimizning quvonchiga ham, dardu g‘amiga ham birdek sherik. Shunga ko‘ra, uning ijodida shodlik va quvonch tuyg‘usi ko‘pincha tashvish, dardu alam tuyg‘usi bilan uzviy birlikda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *Milliy ruh, hurfiklik, ona vatan, ojizlik, sof tuyg‘ular, g‘ururbaxsh, erkinlik.*

Abdulla Oripov – noyob iste‘dod egasi. Chuqur falsafiy, milliy ruh, diniy- ahloqiy mezonlarga sadoqat shoir she‘riyatini ko‘p qismini tashkil etadi. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfiklik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she‘riyati katta o‘rin egallaydi.

Abdulla Oripov universitetda o‘qigan kezlari yozgan. Abdulla Oripovning “Bahor”, “Birinci muhabbatim”, “Kuz”, “Saraton”, “O‘zbekiston”, “Munojotni tinglab”, “Otello”, “Sarob”, “Dengizga”, “Malomat toshlari”, “Oltin baliqcha”, “Yuzma-yuz”, “Genetika” va boshqa she‘rlari – XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotining yorqin namunasi. Islom Karimovning ta’kidlashicha, Abdulla Oripov she‘riyatining bugungi ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti bosqichi muhim ahamiyatga egadir. Uning eng tasirchang va vatanimizga bo‘lgan sof tuyg‘ularini, o‘zgacha mehrini bildirib turuvchi she‘ri bu “O‘zbekiston” qasidasidir.

“O‘zbekiston” qasidasi hajman salmoqli, har biri 10 satrlik 14 banddan iborat. Jami 140 satr. Banddagi toq va juft satrlar o‘zaro qofiyalanib kelgan. Har bandning so‘nggi bayti bir-biri bilan qofiyalanadi. Abdulla Oripov bu she‘rni g‘oyat muhim mavzuga ona vatanimizning sha‘niga bag‘ishlab yozgan.

Shoir yurti haqida she‘r bitmoqchi. Uni dunyoning eng go‘zal maskanlariga qiyoslab ko‘rsatmoqchi. Yo‘q, unday joy yo‘q ekan. Hatto behishtni ham unga o‘xshatib bo‘lmaydi. Bu yurt – beqiyos. U – bitilmagan doston. Uni ta’rif qilmoqqa qalam ojizlik qiladi. Qasidaning har bir bandi «o‘zbekiston – Vatanim manim!» degan g‘ururbaxsh satr bilan yakunlanadi.

Yurtim, senga she‘r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun
Olam aro atagan tanho.
Ular she‘ri uchdi ko‘p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o‘lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostonidir bori:



Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

She‘rning quyidagi satrlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak. Shoir vatanini madh etish uchun qo‘liga qalam olgan mahali vatanini tariflashga xech qanaqa so‘z topa olmaydi. Bu haqida yozishga xatto qalamim ham ojiz deb yozadi.

Bu she‘r yana bir mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi bilan deyarli bir vaqtda yozilgan bu xalqimizning o‘zligini anglashga juda katta yordam berdi.

Vatan haqida juda ko‘p she‘rlarni o‘qiganmiz. Menga hammasidan ham ko‘proq yoqqani bu “O‘zbekiston” qasidasi. Bu qasidani har gal o‘qiganimda Vatanimizga bo‘lgan o‘zgacha tuyg‘larni his qilaman. O‘zbekiston degan jannatmakon o‘lkada tug‘ilganimdan juda hursandman, vatanim bilan faxrlanaman.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYITLARI:

- 1) <https://ilmlar.uz/abdulla-oripov-hayoti-va-ijodi-sherlari-asarlari-haqida/>
- 2) <https://arboblar.uz/uz/people/oripov-abdulla>
- 3) <https://www.savol-javob.com/abdulla-oripov-ozbekiston-qasidasi-haqida/>

KICHIK QUVVATLI MIKRO GESLARDA SINXRON GENERATORLARNI QO'LLASH

Toshev Sh.E

Jabborov I.R

Toshkent irrigatsiya qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari instituti"

Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mikro GESlarda sinxron generatorlarni qo'llash va ularni tuzilishi, ishlash prinsipi, tavsiflari, tutgan o'rni rivojlanishi, mikro GESning kamchiligi afzalligi ko'rib chiqilgan. Mamlakatimiz o'ziga hos gidropotensialga ega bo'lib, vaqt o'tib borgan sari, katta va kichik, mikro GES larning, rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. GESlarning 2020-2030-yillarda konsepsiya doirasida mavjud elektr stansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha energiya samarador texnologiyalardan foydalangan holda, yangi elektr stansiyalarini qurish bo'yicha qilingan loyihalar bilan taqqoslashimiz mumkin. Mikro GESlarda sinxron generatorlarni qo'llash, uning xarakteristikalari ko'rsatilib o'tilgan. Asosiy maqsadimiz suvning (tezligi, potentsiali, ya'ni erkin harakatdagi) energiyasidan unumli foydalanishimizdir.*

Kalit so'zlar: *sinxron generator, xarakteristika, rostdash, salt ishlash, kichik, o'rta, mikro, GES quvvat,*

Аннотация: *В данной статье рассмотрено применение синхронных генераторов на микроГЭС и их устройство, принцип работы, характеристики, разработка реле, преимущество микроГЭС в минус. Наша страна обладает уникальным гидropотенциалом, и с течением времени мы можем видеть развитие как больших, так и малых, микро-гидроэлектростанций. В рамках концепции ГЭС на 2020-2030 годы мы можем сравнить проекты модернизации и реконструкции существующих электростанций, строительства новых электростанций с использованием энергоэффективных технологий производства электроэнергии. Применение синхронных генераторов на микроГЭС, показаны его характеристики. Наша главная цель-максимально использовать энергию воды (скорость, потенциал, т. е. в свободном движении).*

Ключевые слова: *синхронный генератор, характеристика, регулировка, производительность salt, малый, средний, микро, мощность гидроэлектростанций,*

Abstract: *This article discusses the use of synchronous generators at microelectric power plants and their device, the principle of operation, characteristics, development of relays, the advantage of microelectric power plants in the minus. Our country has a unique hydro potential, and over time we can see the development of both large and small, micro-hydroelectric power plants. Within the framework of the HPP concept for 2020-2030, we can compare projects for the modernization and reconstruction of existing power plants, the construction of new power plants using energy-efficient power generation technologies. The use of synchronous generators at microelectric power plants, its characteristics are shown. Our main goal is to maximize the use of water energy (speed, potential, i.e. in free movement).*

Keywords: *synchronous generator, characteristic, adjustment, salt performance, small, medium, micro, hydroelectric power,*


KIRISH

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan keyin dastlabki yillaridanoq davlat rahbariyatining energetika siyosati mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlash hamda milliy energetika imkoniyatlaridan jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal etish uchun foydalanishga qaratib kelinmoqda.[1, 101 b] Yurtimizning energetika tizimi yaxshi rivojlangan bo'lsada, ayrim elektr energiya ishlab chiqaruvchi stantsiyalar va elektr tarmoqlari jihozlari eskirib ketganligi sababli uzoq chekkalardagi aholi punktlarida elektr energiya tanqisligi seziladi. Ayniqsa, tog' zonalarida joylashgan, gidro energiya potentsiali mavjud bo'lgan, uzoq chekkalardagi kichik aholi punktlarini elektr energiya bilan ta'minlashda, kichik daryolarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan kichik energetikadan katta umid qilish mumkin. GES lar qurilishida suv omborlarining ekologik zarari oldi olish, stantsiyalar qurilishida kichik kapital sarflar bo'lishi va kapital xarajatlarni tezda (5 yilgacha) qaytarish imkoniyatlari kichik energetikaning dunyo bo'yicha rivojlanishini keyingi o'n yilliklarda avj oldirib yubordi [1,113 b].

Suvning kinetik va potentsial energiyasidan foydalangan holda gidravlik turbina, suv o'tkazgich quvurlari va suv olishning konstruktiv, texnologik parametrlarini, bir yil mobaynida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi miqdorini va belgilangan parametrlar bo'yicha mikro GES uchun *sinxron generatorni* aniqlaymiz.

Sinxron mashina qo'zg'olmas qism - stator va aylanuvchi qism - rotordan tarkib topgan. Sinxron mashina statori korpus (stanina), uning ikki tomonidan berkituvchi podshibnik qalqon, stator magnit o'zak va chulg'amidan iborat.

Mashinaning vazifasi va gabaritiga ko'ra sinxron mashina statori konstruksiyasining bajarilishi xar hil bo'lishi mumkin. Masalan, kichik quvvatli GESlar uchun ko'p qutbli bo'lgan mashinalar qo'llanilib, stator magnit o'zagining tashqi diametri 900 mm va undan katta bo'ladi, magnit o'zak plastinalari alohida segmentlardan yasaladi va yig'ilgandan keyin magnit o'zak silindrini hosil qiladi. Sinxron mashinalar qutblari bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki xil konstruksiyaga ega bo'ladi: ayon qutbli va noayon qutbli. Gidrogenerator rotorlari ayon qutbli qilib yasalgan bo'ladi.




1 -rasm. Sinxron generatori tuzilishi:


1-kontakt xalqalar; 2-cho'tka tutqichi; 3-rotor qutb g'altagi; 4-qutb uchligi (boshmog'i); 5-stator o'zagi; 6-ventilator; 7-val

Gidrogenerator vali, aksariyat, vertikal joylashgan holatda yasaladi. Sinxron mashinalarda asosiy magnit maydon hosil qilish uchun elektromagnit qo'zg'otishdan foydalaniladi. Buning uchun rotor qutblarida qo'zg'otish chulg'amlari joylashtiriladi. Bu chulg'amdan o'zgarmas tok oqib o'tganda asosiy magnit yurituvchi kuch hosil bo'ladi, u o'z navbatida mashinaning magnit tizimida asosiy magnit maydon hosil qiladi. Hozirgi kunga qadar qo'zg'otish chulg'amini o'zgarmas tok bilan ta'minlash vazifasini maxsus mustaqil qo'zg'otish chulg'ami bo'lgan qo'zg'otkich (Q) deb nomlangan o'zgarmas tok generatorlari bajarib kelgan. Qo'zg'otkichning xos mustaqil qo'zg'otish chulg'amini esa o'zining yakor chulg'amiga parallel ulangan qo'zg'otish chulg'ami hosil qiladi. [1.129]

Sinxron mashina rotori va qo'zg'otkich yakorlari umumiy valda mahkamlanadi va bir vaqtda aylantiriladi. Bunda SG qo'zg'otish chulg'amiga tok kontakt xalqalar va shetkalar orqali keladi. Qo'zg'otish tokini boshqarish uchun qo'zg'otkichning chulg'amlariga ulangan boshqaruvchi reostatlar qo'llaniladi. O'rta va katta quvvatli SGlarda qo'zg'otish chulg'ami tokini boshqarish avtomatlashtirilgan. Ba'zan sinxron gidrogeneratorlarda qo'zg'otkich o'rnida o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka aylantiruvchi yarim o'tkazgichli to'g'rilagichlar ishlatiladi.



2-rasm. Elektromagnit qo'zg'atishli sinxron generatori



3-pacm. Sinxron generator asosiy magnit oqimi va statorning uch fazali chulg'amlari

Shunday qilib, sinxron generatorning qo'zg'otkich tizimi va qo'zg'otish chulg'ami generatorning rotorida magnit yurituvchi kuchni va u, o'z navbatida, generatorning rotor va stator magnit o'zaklarida asosiy magnit maydoni Φ_0 ni hosil qiladi (3-rasm). Turbina yordamida generator rotori n_1 tezlik bilan aylantiriladi, u bilan birga asosiy magnit maydon Φ_0 ham aylanadi (aylanuvchi magnit maydon hosil bo'ladi) va stator faza chulg'amlari [3-rasm]da A faza

– $C_1 - C_4$ g'altak tomonlari ko'rsatilgan; B faza - $C_2 - C_5$; C faza - $C_3 - C_6$]; ni kesib o'tib, ularda uch fazali simmetrik EYUK e_1 induktivlaydi:

$$\begin{aligned} U_A &= U_m \cdot \sin \omega_1 \cdot t \\ U_B &= U_m \cdot \sin(\omega_1 \cdot t - 120^\circ) \\ U_C &= U_m \cdot \sin(\omega_1 \cdot t - 240^\circ) \end{aligned} \quad (1)$$


bunda $\omega_1 = 2\pi f_1$ -stator chulg'amidagi o'zgaruvchan tokning burchak chastotasi (o'lchov birligi - radian); f_1 - stator chulg'amidagi o'zgaruvchan tok chastotasi, rotor aylanish tezligi bilan bevosita bog'liq $f_1 = n_1 / p$; n_1 - rotor aylanish tezligi (ayl/min); p - rotor juft qutblari soni. [1.130].

Sinxron generatorning tavsiflari, uning ishlash xususiyatlarini tavsiflaydigan kattaliklarni o'zaro bog'lanishini ko'rsatadigan egri chiziqlardir. Sinxron generatorning asosiy tavsiflari uning aylanish chastotasi tokning nominal chastotasiga mos va o'zgarmas, ya'ni $n=n_{1H}=const$ bo'lganda olinadi. Tavsiflar tajriba yo'li bilan generatorning asosiy parametrlarini aniqlashga va uning o'ziga xos muhim xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi. Tavsiflarni tajriba o'tkazish yo'li bilan yoki grafik usulda qurish mumkin [20].


Salt ishlash tavsifi. Sinxron generatorlarga uyg'otishda bir valga o'rnatilgan kichikroq o'zgarmas tok generatoridan yoki to'g'rilagichdan foydalaniladi. Statorning har bir fazasi chulg'amlarida hosil bo'ladigan EYUK elektromagnit induksiyasi qonuniga asosan quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$E = 4,44 \cdot \omega \cdot k_{ayl} \cdot \Phi. \quad V \quad (2)$$

bunda ω – stator bir fazasining chulg'amidagi o'ramlar soni; k_{ayl} – chulg'am koeffisienti; f – o'zgaruvchan tok chastotasi, Hz; Φ – qo'zg'atish chulg'amida hosil bo'ladigan magnit oqim, Vb.




4-rasm Sinxron generatorning salt ishlash tavsifi $U_0 = f(i_q)$



5-rasm. Sinxron generatorning salt ishlash tavsifidagi: a) stator cho'lg'amidagi magnet oqimi, b) E_{0a} , E_{0b} , E_{0c} EYUK har biri 180° burchak c) E_{0a} , E_{0b} , E_{0c} salt ishlashdagi diagramma ko'rinishi

Sinxron generatorlarni yuklamasiz rejimda uyg'otish tokini chiqish EYuK ga yoki kuchlanishiga bog'liqlik grafigiga salt ishlash tavsifi deyiladi; $I_1=0$, $n = const$ bo'lganda $U_0 = f(i_q)$. EYuK asosan magnet oqimga bog'liq bo'lgani uchun salt ishlash tavsifi magnetlanish egri chizig'i bilan deyarli bir xil bo'ladi.

Rostlash tavsifi. Generatorning kuchlanishi $U_1 = U_{1n} = const$ bo'lganda uning uyg'otish toki $I_{qo'z}$ ni yuklama toki I_1 ga bog'lanishi, ya'ni $I_{qo'z} = f(I_1)$ generatorning rostdash tavsifi deyiladi. Bu tavsif $n=const$ va $\cos\varphi=const$ bo'lganda tekshiriladi.




6-rasm Sinxron generatorning rostdash tavsifi

Sinxron mashinalar turg'un rejimda ishlaganda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:


- a) mashinalar generator yoki motor rejimida ishlaganda uning rotori magnet maydonining aylanish chastotasiga teng bo'lgan o'zgarmas chastota bilan aylanadi;
- b) yakor chulg'amida hosil bo'ladigan EYuKning chastotasi rotorning aylanish chastotasiga proporsional bo'ladi;
- c) mashinalar turg'un rejimda ishlab turganda uning rotor chulg'amida EYuK hosil bo'lmaydi, mashinalarning MYuK qo'zg'atish toki bilan aniqlanadi va uning ishlash rejimiga bog'liq bo'lmaydi.

Sinxron mashinalarning quvvati uyg'otish tokini qiymatiga bog'liq. Uyg'otish toki nafaqat quvvatning qiymatiga balki harakteriga ham ta'sir ko'rsatadi. Agar, uyg'otish toki nominal qiymatdan kam bo'lsa, sinxron mashinalar reaktiv quvvat ist'emol qiladi. Agar, uyg'otish toki nominal qiymatdan katta bo'lsa, sinxron mashinalar reaktiv quvvat generatsiyalaydi. 8-rasmda uyg'otish tokini stator tokiga bog'liqlik grafigi ko'rsatilgan. Ushbu bog'liqlik lotin imlosidagi U

harfiga o'xshagani uchun Ushbu tavsif U-simon tavsif deb ataladi. Shunday qilib sinxron mashinalar motor rejimida ishlab turib reaktiv quvvati ist`emolchisi ham, manbai ham bo`la oladi. Uning bu xossasidan reaktiv quvvatni qoplash uchun foydalanishadi.



7-rasm. Sinxron generatorni burchak tavsifi. Punktir-ayon qutbli, uzluksiz-noayon qutbli.




8-rasm Sinxron generatorni U – simon tavsifi.


Mikro GESning texnologik xususiyatlari: quyidagi 1-jadval, sutkalik yuklamasi 9- rasm, FIK $n = 0,65 \div 0,75$ bo`lgan mikro GESlar uchun sinxron generator quvvatining suv sarfi 10-rasmda keltirilgan

1-jadval .*Mikro GESning texnologik xususiyatlari.*

Mikro GESning texnik parametrlari	QuvvatikW	Bosim m	Suv sarfi m ³ /s	n ayl/min	U _n V	v _n H
Pervanel turbinalar bilan mikro GES10 PP mikro GES50 PP	0,6÷0,4 10÷50	2÷4,5 4÷10	0,07÷0,14 0,36÷0,	1000 600,750	230	50±2,5
Diognalli turbinalar bilan mikro GES50 DP mikro GES100 DP	10 ÷ 50 100 gacha	10÷25 25÷55	0,05÷0,28 0,19÷0,25	1500,3000 3000	230,400	50±2
Radio-aksial quvurlar bilan GA 2 GA 11	1000 580	30÷100 80÷160	0,4÷1,2 1÷4,3	1000, 1500 750, 1000	400, 6000 6000, 10000	50±2



9- rasm. Mikro GESning sutkalik yuklamasi



10-rasm. FIK $n = 0,65 \div 0,75$ bo'lgan mikro GESlar uchun sinxron generator quvvatining suv sarfiga bog'liqligi

Mikro GES quyidagi darajalarga bo'linidi:

- 0-daraja - "mikro-GES" ob'ekti;
- 1-daraja - mikro GESlarini "Bosimning mavjudligi, yoki yo'qligi" tasniflash mezoniga muvofiq unifikatsiya qilish;
- 2-daraja - "Mikro GESga suv zahirasini yetkazib berish printsiplari" tasniflash mezonlari bo'yicha mikro GESlarini birlashtirish;
- 3-daraja - "Turbin konstruksiyasi" tasniflash mezoniga muvofiq mikro GESlarining birlashmasi.

Avtonom tarmoqda ishlaydigan sinxron generatorning ishlashi quyidagi 2 jadvalda ko'rsatilgan beshta xususiyat asosida tahlil qilinadi

2- jadval. *Sinxron generatorning ishlash tasnifi*

Nomlanishi	Belgilanishi	Parametr
Salt ishlash tasnifi	$U_0 = f(i_q)$	$I_1 = 0$
Qisqa tutashuv tasnifi	$I_1 = f(I_{qoriz})$	$U = 0$
Yuklama tasnifi	$U = f(I_{qoriz})$	$I_1 = 0$
Tashqi tasnifi	$U = f(I_1)$	$I_{qoriz} = 0$
Rostlash tasnifi	$I_{qoriz} = f(I_1)$	$U = const$

Ikkinchi va uchinchi darajalar o'rtasidagi munosabatlar noaniq bo'ysunishga ega, chunki turli xil turbinalar konstruksiyalari juda keng ko'lamlarga ega va aslida suv manbasini gidroelektr blokiga yetkazib berish uchun taqdim etilgan har qanday yechimlarda foydalanish mumkin. Birinchi taxminiy ravishda ishlab chiqilgan to'rt darajali tasnif mikro GESlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish uchun asos bo'lib qabul qilinishi mumkin va bundan keyin energiya samaradorligi va energiya tejash elementlarini hisobga olgan holda sug'orish, yer zahini qochirish tizimlarini loyihalashda foydalaniladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining yirik GESlari mavsumiy qorlarni, muzliklarni erigan suvlari bilan to'ldiriladi. Kichik suv oqimlarini gidrologik va gidroenergetik xususiyatlari, sekin va tez oqadigan daryolar, kanallar va soylar, orqali aniqlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlardagi kichik daryolarning gidroenergetik potentsiali 4 ming MW dan ko'proq yangi mikro GESlarini qurish imkoniyatini beradi.

Misol tariqasida umumiy generatorlar o'rnatilgan mikro GESning quvvati:

5 kW bo'lgan mikro GES qishloqlarni va markazlashgan elektr tarmoqlarini, kichik fermer xo'jaliklarini alohida, elektr energiyasi bilan ta'minlaydi;

10 kW dan ortiq bo'lgan mikro GES, elektr energiyasi olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonasini tashkil etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-iyundagi "Elektr energetikasi sohasida ilmiy-texnikaviy faoliyatni yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422-son PQ-2559-son Farmonlari
2. Toirov O.Z., Alimxodjayev K.T., Alimxodjayev SH.K. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. -Toshkent.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.
3. Investitsii v vodno energeticheskiy kompleks sentral'noy azii. Vinokurov E., Axunbaev A., Usmanov N., Sukarev T., Sarsembekov T. (2021) Investitsii v vodnoenergeticheskiy kompleks Sentral'noy Azii. Almati, Moskva: Yevraziyskiy bank razvitiya.
4. Mahammadhoshim M. M., Mukhtor K. H., Ismoiljon S. A. ЭНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТЕПЛОТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ УСТАНОВОК В СОВРЕМЕННОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ ENERGY EFFICIENCY OF HEAT TECHNOLOGICAL INSTALLATIONS IN MODERN POWER ENGINEERING.
5. Пирматов Н.Б., Муминов М.У., Салимов Д.С., А.М.Муталов. Способы определения продольно-поперечной составляющих напряжения якоря явнополюсной синхронной машины. Проблемы энергоресурсо-сбережения 2011. №1-2. с. 131-135
6. Н.Пирматов.,А.Нармирзаев.,М.Муминов., А Сотиболдиев. —Анализ ситемы возбуждения синхронных генераторов ГЭС| научно технический журнал Узбекгидроэнергетика 2022№1(13).с 34-35.
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/05/04/2030-energy-strategy>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi "O'zbekgidro- energo" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkillashtirish chora tadbirlar to'g'ri- sida"gi PQ-2972-sonli qarori.
9. Karabaeva G. O'zbekistonda gidroenergetika sohasi faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari -Toshkent, 2017. - 79 bet.
10. Sultanov A., Fazliddin X., Karimov V. QISHLOQ SHAROITIDA QUYOSH PANELI YORDAMIDA NASOSNI ISHGA TUSHIRISH //Journal of new century innovations. - 2023. - Т. 29. - №. 4. - С. 103-107.

O'QUVCHILARNI O'ZINI JONIZGA QASD QILISHINI OLDINI OLISHNI PSIXOLOGIK O'RGANISH

Erkaboyeva Dilobarxon Qosimjon qizi

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar

16-orta ta'lim maktabi Amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining o'z joniga qasd qilishning ayrim ijtimoiy psixologik jihatlari, uning oldini olish, o'z joniga qasd qilish va uning oldini olishning eng dolzarb omillari, shuningdek, ushbu holatlarda eng keng tarqalgan psixologik aralashuv usullari haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Hadis, suitsid, F.K.Terexovka, individual-psixologik, depressiya xususiyat, reflektor, temperament, xarakter, emotsiyalar, motivatsion doiralar.*

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 800 mingdan ortiq odam o'z joniga qasd qiladi; bu dunyo bo'ylab o'limning o'ninchi asosiy sababidir. Agar biz muvaffaqiyatsiz urinishlarni qo'shsak, bu raqam taxminan o'nga ko'payadi va ko'p odamlar o'zlarini o'ldirish haqida takrorlanadigan fikrlarga ega.

O'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilishga urinish kishilik jamiyatida qadimdan mavjud bo'lib, bu muammoga turli davrlarda turlicha munosabat bildiriladi. O'z joniga qasd qilish ayrim mamlakatlarda qoralangan bo'lsa, ayrimlarida esa mardlik, jasurlik, sevgi muhabbatga sadoqatlik ramzi sifatida ulug'langan. Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yaponiyada o'z joniga qasd qilish ijtimoiy, avvaldan belgilab qo'yilgan majburiy harakatga ega bo'lgan voqea - hodisa deb qaralgan bo'lsa, islom mamlakatlarida bu hodisa qoralanadi. Qadimgi Rimda ham o'z joniga qasd qilishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishgan. Hindistonda eri olamdan o'tgan ayollar jamoa nafratiga uchramaslik uchun o'zini-o'zi o'ldirishga mahkum bo'lgan. O'z joniga qasd qilish hodisasi diniy ilmlar tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, u barcha dinlarda qoralanadi. Xususan, islom dinida bu hodisaga nisbatan salbiy munosabat bildirilib jumladan "Hadis" to'plamlarida takidlanishicha: - "Bir kishi o'zini-o'zi jarohatlab o'ldirdi, shunda Olloh - taolo "bandam mendan ilgari o'z jonini o'zi oldi, uni men jannatdan mahrum qilaman" deyiladi". O'z joniga qasd qilish hodisasini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga XIX asrning XX asrning boshlaridan boshlab kirishila boshlandi. Bunga birinchidan, butunlay dunyo miqyosida o'z joniga qasd qilish hodisasining ortib borayotganligi sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan suitsid muammosini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishi bu muammoni har tomonlama o'rganishga turtki bo'ldi.

Taxminan o'z joniga qasd qilganlarning yarmi katta depressiya buzilishi mezonlariga javob beradi. Shu ma'noda, avvalgisidan kelib chiqqan kognitiv terapiya va xulq-atvorni faollashtirish terapiyasi o'z joniga qasd qilish g'oyalari va boshqa depressiv alomatlarni kamaytirishda foydali ekanligi isbotlandi. Sog'liqni saqlash psixologiyasi sohasida, asosan, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda, ba'zida psixo-ta'lim vazifalari va emotsional yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash targ'ib qilinadi va ba'zi skrining testlari, shuningdek, xavf ostida bo'lgan populyatsiyada, masalan, o'spirinlarda o'tkaziladi. Biroq, ushbu turdagi aralashuvlar ko'p joylarda juda kam uchraydi.

Umuman olganda, buni ta'kidlash muhimdir o'z joniga qasd qilish asosan hayotning past darajasi bilan bog'liq. Biron bir joyda odamlarning qoniqish va farovonligini yaxshilaydigan har qanday siyosat choralari ularning o'z joniga qasd qilish xavfini kamaytiradi, masalan, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash yoki o'rtacha ish haqini oshirish.

O'z joniga qasd qilishni psixologik jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, ulardan affektiv holatlarning suitsidga ta'siri, shaxs xulq atvoridagi o'zgarishlar, ruhiy tushkunlik va ruhiy kechinmalarining suitsidal xulqning kelib chiqishi o'rni kabilar tahlil qilinganligining guvohi bo'lamiz. O'z joniga qasd qilishni psixologik jihatdan tadqiq qilish yuzasidan qator tadqiqotchilar samarali ilmiy izlanishlar olib borishdi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga shaxsning individual psixologik va mijoz turlarining ta'siri hamda suitsidning psixologik ma'nosi kabilar o'rganildi. Biroq, o'z joniga qasd qilishni o'rganishning boshqa nazariyalari singari psixologik nazariya tarafdorlari ham suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka berilganliklari kuzatiladi. Natijada suitsidning psixologik ma'nosini aniqlash va psixologik asoslashda qator noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Xususan, ular suitsidal xulqning psixologik mexanizmlarni izohlashga harakat qilsalarda, biroq suitsidal xulqning ruhiyat sog'lomlik va nosog'lomlik holatlariga bog'liqligi masalasini tahlil qilishda chalkashliklarga yo'l qo'yadilar. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida kattalar suitsidi bilan bir qatorda bolalar va o'smirlar suitsidi muammosi yuzasidan ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Biroq, ilmiy adabiyotlar tahlili bu davrda bolalar va o'smirlar o'z joniga qasd qilishni tadqiq qilish yuzasidan olib borilgan ishlarning yetarli emasligini ko'rsatdi. Shunga qaramasdan bu sohada ma'lum ilmiy tadqiqotlar olib borildiki, bu bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilishning keyingi yillardagi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu o'rinda F.K.Terexovkaning ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Uning ta'kidlashicha bolalar va o'smirlar suitsidining motivlari rolini "jazolanishdan qo'rqish", "g'am-g'ussa", "sevgi va rashk" kabilar o'ynashi mumkin. Muallifning fikriga qaraganda bolalar va o'smirlar suitsidining oldini olish uchun ularni mustahkam irodali, sog'lom fikrli va keng fe'l atvorli qilib tarbiyalash lozimdir. Shuningdek, uning ta'kidlashicha suitsidi o'zini hayotdan mahrum etishiga emas balki nomaqbul vaziyatlarga nisbatan "norozilik" sifatida yo'naltirilgan xatti-harakatdir. F.K.Terexovkaning bolalar va o'smirlar suitsidiga bag'ishlangan qator ijobiy fikr va mulohazalari mavjudligiga qaramasdan uning ayrim noaniq fikrlari ham uchrab turadi. Jumladan, uning bolalar va o'smirlar suitsidi kattalar o'z joniga qasd qilishni singari ruhiy nosog'lomlik mahsulidir degan fikri qator tanqidiy mulohazalarga sabab bo'ladi. Shuningdek, uning bolalar va o'smirlar o'z joniga qasd qilishning oldini olishda ijtimoiy psixologik va psixiatrik tadbirlardan foydalanish befoyda va behudadir degan fikri ham qattiq qarshilikka uchraydi. 1900-1912 yillarga kelib, Rossiyada ayrim vrachlarning suitsidni o'rganishga bag'ishlangan shaxsiy statistik tadqiqotlari paydo bo'la boshlaydi. Shunday shaxsiy statistik tadqiqot mualliflaridan biri M.N.Gernet (1922) bo'lib, u o'z tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar o'z joniga qasd qilishning statistik tahlili bilan shug'ullanib, Rossiyada va butun dunyoda bolalar va o'smirlar suitsidi yildan-yilga ortib borayotganligi haqidagi xulosaga keladi. Xalq ta'limi statistik hisoblari asosida G.Xlopin, N.Ushinskiy, Ye.Neznamovlar tahriri ostida chop etilgan "Samoubiystvo, pokusheniya na samoubiystvo i neschastnie sluchai sredi uchashixsya uchebnix zavedeniy M.N.P." (Xalq ta'limi vazirligi o'quv yurtlari o'quvchilari o'rtasida o'z joniga qasd

qilish, o'z joniga qasd qilishga urinish va baxtsiz hodisalar), nomli to'plam bolalar va o'smirlar o'z joniga qasd qilishning statistik tahlili asosida yaratilgan "Samoubiystvo detey" (Bolalarning o'z joniga qasd qilishlari) nomli asari ham bu sohada olib borilgan muvaffaqiyatli ilmiy tadqiqotlardan biri sifatida qabul qilinadi. Muallif o'z xulosalarida bolalar va o'smirlar suitsidi faqatgina ruhiy nosog'lomlik natijasida sodir etiladigan hodisa bo'lmasdan balkim, ruhiy sog'lom bolalar va o'smirlarda ham sodir etilishi mumkin bo'lgan hodisadir deb ta'kidlaydi. U bolalar va o'smirlar suitsidining 12 xil ko'rinishini ta'kidlab, uning kelib chiqishidagi asosiy sabab va motivlari haqidagi e'tiborli fikrlarni ilgari suradi. Xususan, suitsidial xulqni keltirib chiqaruvchi sabablarni "endogen" va "ekzogen" sabablarga bo'ladi. Endogen sabablarga bola psixikasining yosh psixologik xususiyatlari natijasida vujudga keladigan suitsidal xulq, uy va niyatlarni kiritisa, "ekzogen" sabablarga esa ijtimoiy muhit ta'siri va shaxslararo nizolar tufayli vujudga keladigan suitsidal xulqni kiritadi.

Suitsidal xulqning kelib chiqishida depressiyaning o'rni kattadir degan nazariyaning yuzaga kelishi suitsidni tadqiq qiluvchilarni ikki qarama-qarshi oqimga bo'linishiga olib keldi. Birinchi guruhdagi tadqiqotchilar fikriga ko'ra suitsidal xulqning kelib chiqishida depressiya asosiy o'rinni egallaydi va u bolalar va o'smirlar suitsidining sodir etilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidlashsa, ikkinchi guruhdagi tadqiqotchilar bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning yuzaga kelishida depressiyaning asosiy o'rin tutishini inkor qiladilar. Tadqiqotchilar o'rtasida bunday bo'linish nafaqat depressiyaning suitsidal xulqning kelib chiqishiga ta'sir o'tkazishi masalasini o'rganishga balki, depressiyani aniqlashning diagnostik metodlarini ishlab chiqish rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003- 1009
2. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
3. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.
4. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защита: ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
5. Olimov, L. (2021). maqola СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ: СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7)..



6. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017

7. Содирджонов М. М. Мониторинг вопросов исследования человеческого капитала в этносоциальных процессах и социальные тенденции // Социальная политика и социальное партнерство. - 2021. - №. 6. - С. 447-458.

8. Содирджонов М. М. Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах // В поисках социальной истины. - 2021. - С. 59-69.

QUYOSH FOTOELEKTRIK STANSIYALARI TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI

To‘raqulov Latif Rustam o‘g‘li
Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada siz quyosh fotoelektrik qurilmalari, ularning ishlash prinsipi, insoniyat hayotida tutgan o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risida umumiy ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.*

Kalit so‘zlar: *quyosh fotoelektrik qurilmasi, qayta tiklanuvchi, energiya, stansiya, tabiiy manba, GES, beqarorlik, avtonom tizim, rezerv, neft, gaz, global.*

Annotation: *In this article, you will get general information about solar photoelectric devices, their principle of operation, their role and importance in human life.*

Key words: *solar photovoltaic device, renewable, energy, plant, natural resource, hydropower, instability, autonomous system, reserve, oil, gas, global.*

Kirish. Barchamizga ma’lumki bugungi kunda energiya olishda ishlatiladiga tabiiy boyliklar hisoblangan ko‘mir, neft va gaz konlarining borgan sari tugab borayotganligi butun dunyo miqiyosida global energiya taqchilligiga yetaklamoqda. Bunga qarama qarshi tarzda dunyo aholisining ortib borishi kundan kunga energiyaga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘lmoqda. Dunyo tajribasidan ma’lumki bunga yechim tariqasida qayta tiklanuvchi energiya ma’nbalari (shamol, quyosh ES, atom ES, GES) dan foydalanib kelinmoqda. an’anaviy xom ashyolarga qaramlikni bartaraf etadi hamda atrof muhit muhofazasi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham butun dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kelajakdagi energiya tanqisligi muammosini bartaraf etish imkonini beruvchi asosiy manbalar sifatida qaralmoqda. Biroq qayta tiklanuvchi energiya manbalarining afzallik tomonlaridan tashqari qator kamchiliklari ham mavjud. Bulardan biri ularning beqarorlikda ishlashi hisoblanadi. Quyosh elektr stansiyalari bulutli ob-havo sharoitida yomon ishlaydi, kechqurungi qorong‘ulik uning salbiy tomoni hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish yo‘llaridan biri quyosh fotoelektrik qurilmalariga asoslanga katta stansiyalar qurish va ularni katta energiya akkumulyatorlari bilan ta’minlash, elektr energiyasi oz miqdorda ishlab chiqarilgan paytda, zaxira manbadan qo‘shimcha ta’minlash orqali hal qilish mumkin. Ammo bunday stansiyalarni qurish katta miqdordagi mablag‘larni talab qiladi. Shunga o‘xshagan boshqa bir qator murakkab muammolar tufayli dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi sekin kechmoqda. Chunki qazilma yoqilg‘ini olib yoqish hali ham oson va arzon. Qayta tiklanuvchi energiya sohasi kelajak fani, ertangi kunning asosiy masalasi bo‘lib qolmoqda. Dunyo miqiyosida mamlakatlar iqtisodiyoti aynan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan qanday foydalanishiga qarab rivojlanib kelmoqda. Umumiy qilib aytganda, energiya sohasidagi rivojimiz aynan qayta tiklanuvchi energiya sohasi taraqqiyotiga bog‘liq. Yurtimizda ham qayta tiklanuvchi energiya ma’nbalaridan foydalanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2023-yil 16-fevraldagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejevchi texnologiyalarni

joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-57-son qaroriga ko'ra viloyatlar kesimida quyosh fotoelektrik stansiyalarni qurish qarorlari tasdiqlangan. Bu qarornig o'zi ham bu ma'nbalardan yurtimiz energiya ta'minoti tizimida foydalanish muhim ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida takidlaganimizdek, quyosh fotoelektrik qurilmalaridan samarali foydalanish usullaridan biri bu ularning kompleks stansiyalarini qurish sanaladi.

Shuningdek quyosh panellari ishonchli elektr energiyasi manbasi bo'lishi uchun u tizimda qo'shimcha elementlar bilan ta'minlanishi zarur kerak bo'ladi. Bular sirasiga kabellar, tizimning turiga (tarmoq bilan bog'langan FES, avtonom, rezerv) bog'liq ravishda struktura, elektron inverter, akkumulyator batareyalari to'plami va zaryad-razryad kontrolleri kiradi. Bunday tizim butunligicha quyosh fotoelektrik sistema yoki quyosh stansiyasi deb nomlanadi. Hozirgi davrda dunyo bo'lab foydalanilayotgan quyosh fotoelektrik stansiyalarini ularning qo'llanilishiga muvofiq holda 3 turga bo'linadi. Bular:

- 1) Avtonom Quyosh fotoelektrik stansiyalari (AFES);
- 2) Rezerv Quyosh fotoelektrik stansiyalari (RFES);
- 3) Elektr tarmog'i bilan paralell ulangan quyosh fotoelektrik stansiyalari.

Avtonom fotoelektrik tizimlar: Avtonom fotoelektrik tizimlardan markazlashtirilgan elektr ta'minoti mavjud bo'lmagan joylarda foydalaniladi. Sutkaning tungi vaqtlarida energiya ta'minoti va quyosh yaxshi nur sochmagan vaqtlar uchun akkumulyator batareyasi (AB) bilan taminlanishi zarur. Avtonom fotoelektrik tizimlar ko'pincha alohida uylarning elektr ta'minoti uchun foydalaniladi. Bunday kichik tizimlar uyda mavjud asosiy vositalar (yoritish manbalari, ba'zida televizor yoki radio), shuningdek o'rta quvvatli elektr bilan ishlaydigan qurilmalar, suv nasosi, muzlatgich va boshqalarni ta'minlashi mumkin.

Rezerv tizimlar: Bunday turdagi tizimlar markazlashtirilgan elektr ta'minot tarmoq bilan bog'langan ammo unda vaqti vaqti bilan uzilishlar sodir bo'lganda foydalaniladi. Shuningdek tarmoqda kuchlanish bo'lmagan vaqtlarda ham mavsumiy vaqtlarda elektr ta'minot uchun rezerv tizimlar qo'llaniladi. Kichik rezerv quyosh tizimlari asosan uyning aloqa vositalari, kompyuterlar (radio, telefon, faks va boshqa) elektr ta'minoti uchun foydalaniladi.

Elektr tarmog'i bilan paralell ulangan quyosh fotoelektrik stansiyalari. Bunday turdagi tizimlar markazlashga elektr ta'minoti bilan birgalikda kerakli obyektlarni kerakli energiya bilan ta'minlaydi. Bunday stansiyalar uchun doimiy markazlashgan elektr tarmoqlari mavjud hududlarda qo'llaniladi va elektr energiyasi tejamkorligida ham ahamiyatga molik sanaladi.

Xulosa

Dunyo bo'ylab elektr energiyaga bo'lgan talabning oshib borishi, ushbu energiyani hosil qilishda foydalaniladigan tabiiy boyliklar (neft, ko'mir, gaz va boshqalar) ning kamayib borishi hamda CO2 tasirida ekologiyada bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar qayta tiklanuvchi energiya ma'nbalariga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Qayta tiklanuvchi energiyaning asosini quyosh, shamol kabi tabiat inom etgan ma'nbalar vositasida hosil qilingan elektr energiyasi tashkil etadi. Bu manbalardan foydalanish asnosida ular kamayish yoki ko'payishga yuz tutmaydi. Shu sababdan ham ulardan foydalanish ekologik toza va atrof muhit muhofazasi uchun juda ahamiyatlidir. Rivojlangan davlatlar sirasiga kiruvchi AQSH, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya davlatlarida qayta tiklanuvchi energiya ma'nbalaridan juda keng

miqiyosida foydalaniladi. Bu esa davlatlarning elektr energiyasi hosil qilish uchun zarur hom ashylarga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi hamda barqaror energiya bilan ta'minlanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Yurtimizda ham qayta tiklanuvchi energiya ma'nbalariga talab ortib bormoqda va bu ta'labni qondirishga bo'lgan keng ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda. Ma'mlakatimizning tabiiy-geografik joylashuvi, quyosh energiyasiga bo'lgan potentsialning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu sababdan quyosh fotoelektrik stansiyalarini qurish va ulardan keng ko'lamda foydalanish yurtimizda elektr energiya inqirozini oldini olishi va ta'minotning rivojlanishida o'z hissasini qo'shishiga katta umid bildirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 16.02.2023 yildagi PQ-57-son qarori.
<https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
2. I.A.Yuldoshev., E.B.Saitov. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.
"Noshir" nashriyoti, Toshkent. Quyosh panellarini o'rnatish, sozlash va foydalanish.
2017-y. 164 b.
3. I.X.Siddiqov., H.A.Sattarov., Q.I.Siddiqov., X.E.Xo'jamatov., D.T.Xasanov.,
SH.B.Olimova. TDAT nashriyoti. Darslik . Zamonaviy energiya o'zgartirish tizimlari. 2018
y., 318 b
4. Zikrillayev H. F, Saytov E.B. Журнали Экология. Изучение в вузах
республики проблемы сохранения аралского моря и рационального
использования водных ресурсов Узбекистана//№4, 2015
5. <https://mininnovation.uz/en/news/post-146>

РАЗВИТИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Мустакимова Кундуз Собировна

преподаватель

Бухарский инженерно-технологический институт, г.

Бухара, Республика Узбекистан

Пайзиматов Мухаммадкодир Ильхамджанович

студент группы 715-22 МНТ

Бухарский инженерно-технологический институт, г.

Бухара, Республика Узбекистан

Аннотация: *В данной статье рассматривается развитие самостоятельности студентов в условиях дистанционного обучения. Цель исследования - раскрыть некоторые вопросы развития самостоятельности учащихся в формате дистанционного обучения у разных категорий учащихся.*

Ключевые слова: *самообразование, контроль, самообучение, дистанционное обучение.*

Описывая способности человека, одним из важнейших компонентов является самостоятельность. В педагогике и психологии можно найти различные толкования этого термина. «Самостоятельность как устойчивое качество личности обеспечивает высокий уровень успешности и практическую реализуемость планов и намерений в любой деятельности» [3].

В нашем понимании автономия – это многоплановое личностное образование, которое формируется в потребностях и проявляется в деятельности, умении обучающегося ставить перед собой цели, формулировать для себя значимые проблемы, выбирать средства их решения, настойчиво добиваться положительных результатов, давать самооценку деятельности [2, 131]. Например, Л. В. Жарова обоснованно считает, что самостоятельность есть результат воспитания и самовоспитания. Это важнейшее условие самореализации личности и творческих способностей. Как усилить формирующий эффект? Одним из возможных вариантов педагогического сопровождения является переход от модели педагогического сопровождения к педагогической помощи. То есть от «контактного» сотрудничества к «дистанционной» самостоятельности, к своеобразной форме неформального образования. К важнейшим компонентам самостоятельности относятся:

- Общеучебные навыки (правильно читать текст, находить ответ на вопрос, составлять план прочитанного, тезисы, конспект, таблицы, планировать свою деятельность, контролировать выполняемые действия;

- Общие логические навыки: (выявлять существенное, сравнивать, доказывать, делать выводы, формулировать вопросы);
- Предметные (специальные) умения, отражающие специфику отдельных учебных дисциплин);
- Метапредметные умения (универсальные обучающие действия);

Коммуникативные навыки (вести диалог, участвовать в совместной деятельности). Всегда ли учащиеся со знаниями и навыками стремятся быть независимыми? Для этого им часто нужна мотивационная установка, которая приводит в движение знания и умения, побуждает к действию без посторонней помощи, без напоминания. Однако существует также необходимость в содействии для принятия самостоятельного решения. Ученые выделяют три основные составляющие части самостоятельности: умение, мотив, воля. Они взаимосвязаны и взаимообусловлены [5, 23]. Недооценка практической самостоятельности приводит к тому, что студенты не умеют использовать полученные знания в сложных жизненных ситуациях, не умеют ставить цели и достигать их, планировать и налаживать взаимодействие [6,3 9]. Поэтому преподаватели должны не только владеть знаниями и умениями, предоставляемыми избранной профессией, но и самостоятельно совершенствовать прикладные знания, применяя их на практике, грамотно работать с информацией, уделять время самообразованию [10, 30]. Перед педагогом стоит задача развивать у учащихся ряд качеств, таких как самоорганизация, самоконтроль, самостоятельность, инициативность, развивать навыки планирования и выполнения учебно-познавательной деятельности. Достижение целей невозможно без правильно организованной самостоятельной работы. Большое внимание в связи с этим уделяется формированию самостоятельного мышления. Специалисту необходимо учиться почти всю жизнь в современном обществе с бурным ростом информации. Раньше можно было позволить себе научиться раз и навсегда [10, 35].

Сегодня идея непрерывного образования «на протяжении всей жизни» приводит к необходимости поиска новых методов передачи знаний и технологий обучения. Одной из таких технологий является дистанционное обучение. Начиная с XX века дистанционное образование, претендующее на особую форму обучения (наряду с очной, заочной, вечерней, экстерном), происходит под девизом «образование для всех» на любой дистанции, занимая все более важную роль в модернизации образования. В чем суть этой формы обучения? Согласно государственному стандарту образования, это совокупность технологий, с помощью которых учащиеся обеспечиваются определенным объемом учебного материала на основе интерактивного взаимодействия учащихся и преподавателей в процессе обучения, предоставляя учащимся возможность самостоятельной работы. - что очень важно - на усвоение изучаемого материала. Учащиеся получают материал, предназначенный для усвоения, и изучают его самостоятельно в удобное для них время. Во время конференции они общаются с преподавателем онлайн, по электронной почте или по скайпу, задают вопросы, могут

получить консультацию по непонятому разделу, отправить задания. Позже учитель оценивает знания учащегося [12,227].

Дистанционное обучение, реализуемое с помощью компьютерных телекоммуникаций, сети Интернет, электронной почты, имеет следующие формы занятий. Чат-занятия – это обучающие занятия, проводимые с использованием чат-технологий. Занятия в чате проводятся синхронно, то есть все участники имеют одновременный доступ к чату. Веб-классы – дистанционные уроки, конференции, семинары.

Веб-форумы отличаются от чатов возможностью более длительной (многодневной) работы и асинхронным характером взаимодействия студентов и преподавателей. Телеконференции – обычно проводятся на основе списков рассылки по электронной почте. Образовательные телеконференции характеризуются достижением конкретных целей обучения.

В 21 веке доступность компьютеров и Интернета значительно способствует распространению дистанционного обучения. Возможность общаться и получать обратную связь от любого ученика нашла широкий отклик в образовательной сфере. Это обусловлено рядом неоспоримых преимуществ. Таким образом, использование современных программных технологий позволяет сделать процесс обучения более эффективным, так как обучающийся, получив задание в электронном виде, должен самостоятельно подумать и решить, как его выполнить. Он уже не может сразу получить ответ учителя на вопрос и будет стараться проявлять активность и находить правильный выход. Такой подход способствует развитию самостоятельности как качества личности, без которого будущий специалист не сможет плодотворно, творчески работать. Нельзя забывать и об эмоциональном факторе. В условиях дистанционного обучения снижается нервность как преподавателя, так и обучающегося. Снижается психологическое воздействие, исчезают волнение и страх, которые иногда испытывает ребенок во время занятий, боязнь дать неправильный ответ. Однако наряду с преимуществами получение дистанционного образования сопряжено и с проблемами [11,108]. К проблемам относятся следующие особенности: отсутствует непосредственная коммуникация учителя и ученика, эмоциональная связь во взаимодействии. Обучение не происходит в аудитории, поэтому у части учащихся при отсутствии такого стимула, как проявление своей индивидуальности перед однокурсниками, утрачивается интерес к учебной деятельности, творческая самостоятельность [11,110]. Для такого формата тренировок необходима строгая самодисциплина, которая напрямую зависит от самостоятельности и самосознания. Наши студенты привыкли к постоянному контролю со стороны преподавателя, а это мощный стимул. Роль непосредственного контакта с учителем по-прежнему высока. Подготовка к занятиям занимает у учителя много времени. Мы должны продумывать каждый момент при подготовке заданий к методам и приемам, которые не вызовут у

учащихся особых затруднений, не снизят интерес, а будут побуждать их к самостоятельности в подготовке [16, 93].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бадалова, Л. Х. (2016). Проблемно-диалогическое обучение как способ решения учебной задачи. Молодой ученый, (11), 1415-1417. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=26425135>
